- Javoblar to‘liq xulosalangan bo‘lsa.
- Javoblar hajmi talabga javob bersa.

**11-13 ball olish tartibi quyidagicha:**

- Talaba berilgan vaqtda 2 ta savolga to‘liq, batafsil 1 savolga qisman javob yozgan bo‘lsa.
- Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalangan bo‘lsa.
- Fan bo‘yicha istiloh va atamalarni qisman qo‘llasa.
- YOzma ishda imlo xatoliklariga yo‘l qo‘ymasa.
- SHaxsiy fikr va mulohazalari etarli bo‘lmasa.
- Javoblar xulosalangan bo‘lsa.
- Javoblar hajmida mutanosiblik saqlanmagan bo‘lsa.

**8-10 ball olish tartibi quyidagicha:**

- Talaba berilgan vaqtda 2 ta savolga etarlicha javob yozgan bo‘lsa.
- Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan qisman foydalangan bo‘lsa.
- YOzma ishda imlo xatoliklariga yo‘l qo‘ysa.
- SHaxsiy fikr va mulohazalari etarli bo‘lmasa.
- Javoblar etarlicha  xulosalanmagan bo‘lsa.
- Javoblar hajmida mutanosiblik saqlanmagan bo‘lsa.

**0-7 ball olish tartibi quyidagicha:**

- Talaba berilgan vaqtda1 savolga qisman, 1 savolga kam javob yozgan bo‘lsa.
- Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanmagan bo‘lsa.
- YOzma ishda imlo xatoliklariga ko‘p yo‘l qo‘ysa.
- SHaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo‘lmasa.

- Javoblar  xulosalanmagan bo‘lsa.
- Talaba mavjud adabiyotlardan ko‘chirgan bo‘lsa.
-

**“Mumtoz tarixiy poetika” fani bo‘yicha yakuniy nazoratni baholash mezonlari**

**26-30 ball uchun talabaning faoliyati quyidagilarga javob berishi lozim:**

- ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan materiallar yozma ishda to‘liq aks etgan bo‘lsa;
- talaba yozma ishda imlo xatoliklariga yo‘l qo‘ymasa;
- yakuniy yozma nazorat ishida berilgan barcha savollarga aniq va to‘liq javob berilgan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘zlashtirgan va yozma ishda ular yozasidan berilgan savollar to‘liq yoritilsa;
- tarixiy poetika manbalarini, istiloh va atamalarni qo‘llashda xatolik bo‘lmasa;
- fan bo‘yicha tavsiya etilgan tahlil materiallari struktural poetika talablari asosida bajarilgan bo‘lsa.

**21-25 ball uchun talabaning faoliyati quyidagi talablarga javob berishi lozim:**

- ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan materiallar yozma ishda aks etgan bo‘lsa;
- talaba yozma ishda ayrim juz’iy imlo xatoliklariga yo‘l qo‘ysa, lekin ishning mazmuni talabga javob bersa;
- yakuniy yozma nazorat ishida berilgan savollarning 80% ga aniq javob berilgan bo‘lsa;
- mumtoz poetika manbalari, istiloh va atamalarning asosiy qismi to‘g‘ri qo‘llanilsa;
- fan bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘zlashtirgan va yozma ishda ular yozasidan berilgan savollarning uchdan ikki qismi yoritilsa;
- fan bo‘yicha tavsiya etilgan tahlil materiallari struktural poetika talablari asosida bajarilsa-da, tahlilda oqsoqliklar kuzatilsa.

**16-20 ball uchun talabaning faoliyati quyidagi talablarga javob berishi lozim:**

- ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan materiallar yozma ishda to‘liq aks etgan bo‘lsa;
- talaba yozma ishda ayrim juz’iy imlo xatoliklariga yo‘l qo‘ysa, lekin ishning mazmuni talabga javob bersa;
- yakuniy yozma nazorat ishida berilgan savollarning 80% ga aniq javob berilgan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘zlashtirgan va yozma ishda ular yozasidan berilgan savollarning uchdan ikki qisini yoritilsa;
- fan bo‘yicha tavsiya etilgan tahlil materiallari struktural poetika talablari asosida bajarilsa-da, tahlilda oqsoqliklar kuzatilsa.

**Quyidagi hollarda talabaning faoliyati 0-15 ball bilan baholanadi:**

- talaba yozma ishda imlo xatoliklariga yo‘l qo‘ysa va ishning mazmuni talabga javob bermasa;
- yakuniy yozma nazorat ishida berilgan savollarning 50% gacha javob berilgan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘zlashtirmagan va yozma ishda ular yozasidan berilgan savollarga javob bermasa;
- istiloh va atamalarni qo‘llashda ayrim xatolik bo‘lmasa;
- fan bo‘yicha tavsiya etilgan tahlil materiallari bajarilmasa yoki ularning 1/3 qismigina bajarilsa.

**“Mumtoz tarixiy poetika” fani bo‘yicha kurs ishini baholash mezonlari**

**91-100 ball quyidagi holatlarda qo‘yiladi:**

- tanlangan kurs ishi mavzusi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar to‘liq o‘zlashtirilgan bo‘lsa;
- kurs ishi belgilangan vaqtda aniq, to‘liq va to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa;
- yozilgan kurs ishi bo‘yicha natijalar olinib, ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarilgan bo‘lsa;
- matnlar bayonida ilmiylik va mantiqiylik saqlangan bo‘lsa;
- imloviy, punktuatsion va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa.

**81-90 ball quyidagi holatlarda qo‘yiladi:**

- tanlangan kurs mavzusi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lsa;
- kurs ishi belgilangan vaqtda aniq bajarilgan bo‘lsa;
- yozilgan kurs ishi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalardan xulosalar chiqarilgan bo‘lsa;
- kurs ishining maqsadi va vazifalari atroflicha yoritib berilgan bo‘lsa;
- ba’zi imloviy xatolar mavjud bo‘lsa.

**60-80 ball quyidagi holatlarda qo‘yiladi:**

- tanlangan kurs mavzusi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirgan bo‘lsa;
- kurs ishi belgilangan vaqtda bajarilgan bo‘lsa;
- yozilgan kurs ishi bo‘yicha natijalar olingan bo‘lsa;
- kurs ishining maqsadi va vazifalari yoritib berilgan bo‘lsa;
- orfografik, punktatsion va stilistik xatolar kuzatilsa.

**0-59 quyidagi holatlarda qo‘yiladi:**

- tanlangan kurs mavzusi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar o‘zlashtirilmagan bo‘lsa;
- kurs ishi belgilangan vaqtda bajarilmagan bo‘lsa;
- yozilgan kurs ishi bo‘yicha olingan natijalar noaniq bo‘lsa;
- kurs ishining maqsadi va vazifalari ochib berilmagan bo‘lsa;
- ko‘plab imloviy va uslubiy xatolar uchrasa.

# TA’LIM TEXNOLOGIYASI VA TEXNOLOGIK KARTA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

## MUMTOZ TARIXIY POETIKADA TA’LIM TEXNOLOGIYASI

**DILOROM SALOHIY**

**«MUMTOZ TARIXIY POETIKA» FANI BO‘YICHA TA’LIM TEXNOLOGIYASI**

## 1. «MUMTOZ TARIXIY POETIKA» FANINING DOLZARBLIGI VA O‘QITISH STRUKTURASI

### Kirish

Mazkur dastur mumtoz tarixiy poetika fanining dolzarb muammmolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi kabi masalalar to‘g‘risida ma’lumot berishi bilan dolzarbdir. Jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda ushbu fan muammolarining milliy ma’naviyat va qadriyat masalalari bilan chambarchas bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega. Ajdodlar merosining tarixiy poetika asosida o‘rganilishi talabalarni ma’naviyatga yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

### Fanni o‘qitishning maqsadi va vazifalari

Magistr talabalarni mumtoz tarixiy poetikaning nazariy muammolarini o‘rganish, milliy adabiyot tarixini nazariy aspektda o‘rganish va uning madaniy va ma’naviy ildizlariga oid muhim muammolarni tahlil qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Badiiy asarlarni va adabiy namunalarni tarixiy-nazariy aspektda o‘rganish orqali talabalarning dunyoqarashi va ilmiy tafakkurini kengaytirish nazarda tutilgan. SHuningdek, mazkur fan quyidagi muammolarga e’tibor qaratadi:

- mumtoz poetikaning vazifalarini aniqlash va uni adabiy-badiiy jarayonning tarixiy xususiyatlarini o‘rganishga qaratish;
- milliy adabiyot tarixining nazariy masalalari bilan talabalarni tanishtirish va ulardan muhim xulosalar chiqara bilish;
- tarixiy, adabiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojidagi rolini baholay olish;
- talabalarda badiiy matn mohiyatini chuqurroq anglash uchun mumtoz janrlarni tadqiq etish ko‘nikmasini hosil qilish;
- mavjud matnlarni tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va echimlarga kelish ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘zbek mumtoz adabiyotining tarixiy ildizlari va namunalarini tarixiy poetika masalalari bilan aloqadorlikda o‘rganishga kirishish;
- talabalarga o‘zbek mumtoz adabiyotining namunalarini SHarq va jahon adabiyoti kontekstida qarash lozimligini uqtirish;
- egallangan bilim va malakani xalq ma’naviyatini rivojlantirish yo‘lida amaliyotga tatbiq etish.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

### Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

Ushbu dastur “Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi”, Davlat ta’lim standartida aks etgan talaba bilimlariga qo‘yiladigan talablar asosida shakllantirilgan.

Ushbu fan doirasida *magistr*:
Adabiyot tarixining nazariy muammolari;
- mumtoz adabiyotda qo‘llaniladigan adabiy tur va janrlar tasnifi;
- mumtoz badiiy asar komponentlari, ularni adabiy jarayondagi o‘rni;
- mumtoz poetika asoslari va ularning tarkibiy tahlili;
- badiiy timsollar tizimi va ularga tarixiy poetika nuqtai nazaridan munosabat;
- adabiyotshunoslikdagi mifologik (etnografik) maktab va uning namoyandalari;
- tarixiy poetika yo‘nalishining tahlil va talqin tamoyillari;
- badiiy asarlarni tahlil qilishda an’anaviy poetika usullarini qo‘llay olish;
- mumtoz adabiyot namunalarini tarixiy poetika talablariga mos ekanligini bilishi kerak;
- badiiy asarni tahlil qilishda tarixiy poetika asoslari sanalgan janr, shakl va uslub mohiyatini anglash;
- badiiy matnni talqin etishda germenevtik munosabatni shakllantirish;
- sinkretizm davri poetikasi va uning xususiyatlarini tushunish;
- sinkretizm davrida adabiy tur va janrlar mohiyatini haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- an’anaviy poetika va uning tarixiy hamda nazariy poetikaga munosabatini farqlash;
- tragik, komik va dramatik pafosning tarixiy poetikadagi o‘rnini aniqlash kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;
- adabiy tur va ifoda shakllarini o‘zaro farqlash va ularning spetsifik xususiyatlarini belgilay olish;
- mumtoz tarixiy janrlarda yozilgan asarlar poetik xususiyatlarini aniqlash;
- badiiy nutq va va uslubiy xusuiyatlarni aniqlashda tarixiylik tamoyilidan kelib chiqish;
- ijodkorning badiiy mahoratining shakllanishida ishtirok etuvchi poetik komponentlarni tahlil qila olish;
- tanlangan mavzu yuzasidan ilmiy umumlashmalar chiqara bilish;
- poetik jarayonda adabiy muhit, ijodiy maktab va an’analarning o‘rnini aniqlash malakalariga ega bo‘lishikerak.

## Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligiva uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Tarixiy va nazariy poetika” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, o‘quv yilining 1-semestrida o‘qitiladi. Bu fan bakalavriat bosqichi (5-6 semestr)dagi “Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari” fanining mantiqiy davomi bo‘lib, adabiyot tarixining nazariy masalalarini o‘rganishga qaratilgandir. Dasturda belgilangan mavzular ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va seminar shakllarida olib boriladi. Fanning ayrim muhim muammolarini talabalarga mustaqil o‘zlashtirish va kurs ishlarini bajarish tavsiya etiladi.

Tarixiy va nazariy poetika fani adabiyotshunoslik tarixi, falsafa, tarix, matnshunoslik va manbashunoslik fanlari doirasida o‘rganiladigan muammolar bilan yaqin bo‘lib, shu fanlar bilan mustahkam bog‘langan. SHuningdek, mumtoz adabiyotdagi nazariy tushunchalarni, tarixiy voqelikning badiiy matnni

shakllantirishdagi rolini, diniy qarashlarning yozma adabiyot taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatish bilan ham bog‘liq. Eng qadimgi miflardagi falsafiy tafakkur kurtaklari, etnik jarayonga oid rivoyatlar va afsonalarning yozma adabiyotni rivojlantirishdagi roli, o‘rta asrlardagi miniatyura san’atining rivojida badiiy tafakkurning roli, tarixiy asarlardagi adabiy namunalarning maqsadini o‘rganish shular jumlasidandir.

## Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Fan masalalarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va “Davlat ta’lim standartlari”da nazarda tutilgan. YOshlarni har tomonlama etuk inson qilib tayyorlash bilan chambarchas bog‘liqligi orqali belgilanadi. Bu mumtoz madaniyatimiz va qadriyatlarimizni teran anglash, o‘zlashtirish, ajdodlarimiz meros qilib qoldirgan ma’naviy-axloqiy mezonlarni magistr talabalar ruhiyatida ulg‘aytirish asosida amalga oshiriladi.

“Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” shiori milliy mafkuraning asosini tashkil etadi. Mumtoz tarixiy poetikani o‘rganish mamlakat va millat kelajagini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan magistr talabalarni inson ma’naviyatining umumbashariy muammolari bilan ham tanishtiradi. Ularda adabiyot, san’at namunalarini chuqur anglash, tahlil va tadqiq etish, baholash, hayotga tatbiq qilish malakasini hosil etishga ko‘maklashadi.

**Fanga ajratilgan o‘quv soatlarining o‘quv turlari bo‘yicha taqsimoti**

(Ma’ruza - 28 soat, seminar – 20 soat, amaliy mashg‘ulot – 24 soat, mustaqil ta’lim 40 – soat )

| № | Mavzularning nomi | Auditoriya soatlari | | | | Mus-ta-qil ish | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Jami | SHu jumladan | | | | |
| | | | ma’ruza | semi-nar | Amaliy mash-g‘ulot | | |
| | **MUMTOZ TARIXIY POETIKA** | | | | | | |
| 1. | Adabiyotshunoslikka oid fanlar tizimida tarixiy poetikaning mohiyati va o‘rni. (nazariy poetika, dinamik poetika, struktural poetika va b.) | 4 | 2 | 2 | 1 | 1 | 5 |
| 2. | Sinkretizm davri poetikasi | 4 | 2 | 1 | 2 | 1 | 5 |
| 3. | Sinkretizm davrida syujet. Syujetlar poetikasi | 5 | 2 | 1 | 2 | 1 | 6 |
| 4. | Syujetlarni o‘rganishga oid muhim nazariyalar | 4 | 2 | 2 | 2 | 1 | 6 |
| 5. | Badiiy modallik poetikasi | 4 | 2 | 2 | 2 | 2 | 6 |
| 6. | Mif poetikasi (ma’ruza davomida grafik organayzerlardan, slaydlardan foydalaniladi). | 4 | 2 | 2 | 2 | 1 | 5 |
| 7. | Ramziy obrazlar | 5 | 2 | 1 | 2 | 2 | 7 |
| 8. | Ramziy obrazlar va mif munosabati | 5 | 2 | 1 | 1 | 2 | 7 |

|  |  |  |  |  |  |  |  |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 9. | Qadimgi Sharq adabiyoti | 5 | 2 | 1 | 2 | 2 | 7 |
| 10 | Sharq adabiyoti poetikasi masalalari | 4 | 2 | 1 | 1 | 1 | 5 |
| 11 | Janrlar poetikasi | 4 | 2 | 1 | 2 | 1 | 5 |
| 12 | Ilk arab adabiyoti janrlari | 4 | 2 | 1 | 1 | 1 | 5 |
| 13 | Mumtoz adabiyotshunoslikda tarixiy poetikaning joriylanishi | 4 | 2 | 2 | 2 | 2 | 6 |
| 14 | Forsiy-tojik adabiyoti janrlari | 4 | 2 | 2 | 2 |  | 5 |
|  | **Jami:** | 60 | 28 | 20 | 24 | 40 | 112 |

## 2. «MUMTOZ TARIXIY POETIKA» FANINING MAZMUNI

**1-mavzu. Adabiyotshunoslikka oid fanlar tizimida tarixiy poetikaning mohiyati va o‘rni. Sinkretizm davri poetikasi (2 soat).**

Tarixiy poetika va unga yondosh fanlar (nazariy poetika, dinamik poetika, struktural poetika v.b.). Mumtoz tarixiy poetika shakllangan davr va uning asoschilari. A.N.Veselovskiyning “Tarixiy poetika” asari va uning predmeti. Tarixiy poetikaning maqsad va vazifalari. Tarixiy poetika mumtoz adabiyotning nazariy tarixi ekanligi (Yu.B.Borev).

**2-mavzu. Sinkretizm davri poetikasi (2 soat).**

Sub’ekt sinkretizmi manbalari. Sub’ekti sinkretizmi davrida so‘z. Obraz genezisi va uning kelib chiqish shakllari masalalari. Obrazli tafakkur evolyusiyasi: ikki a’zoli va ko‘p a’zoli parallelizm. Ko‘chimlarning ilk shakllari paydo bo‘lishi.

**3-mavzu. Sinkretizm davrida syujet. Syujetlar poetikasi (2 soat).**

Motiv va syujet. Qahramon va syujet. Turkumlangan syujet. Sinkretizm davrida adabiy turlar va ularning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlar: san’at va adabiy turlar munosabati. SHe’r, epos, drama va ularning ilk badiiy jarayondagi o‘rni (A.N.Veselovskiy, E.M.Meletinskiy).

**4-mavzu.Syujetlarni o‘rganishga oid muhim nazariyalar.** Mifologik nazariya va bu nazariyaning vakillari: Grimm, Kun, Maks Myuller. “O‘zlashtirish nazariyasi” va bu nazariyaning vakillari: Koyler, Paris, Koskuin. Etnografik nazariya.

**5-mavzu. Badiiy modallik poetikasi(2 soat).**

Badiiy modallik poetikasi tamoyillari. Badiiy modallik poetikasida obrazning o‘ziga xosligi. Nasriy va she’riy nutq. M.M.Baxtinning bir tomonlama “ikki ovozli” va “ko‘p tomonlama” ikki ovozli so‘z haqidagi qarashlari va tasnifi. Badiiy modallik va obrazli til munosabatlari.

**6-mavzu. Mif poetikasi(2 soat).**

Ilk mifik tafakkurning xususiyatlari, ibtidoiy inson va tashqi olamning o‘xshashligi. Arxaik miflar, xalq og‘zaki ijodi, ilk yozma manbalar, mumtoz adabiyot namunalari tarixiy poetikaning ob’ekti sifatida.

**7-mavzu. Ramziy obrazlar va mif munosabati.Mifologiya va yozma adabiyot munosabatlari (2 soat)..**

E. Kassirerning bu haqdagi nazariyasi. A.A.Potebnyaning ramziy obrazlar, metafora haqidagi qarashlari. A.A.Potebnyaning ramzlarga, umuman ko‘chimlarga poetik an’analar nuqtai nazaridan bergan bahosi (Presnyakov, s.73). A.F.Losevning allegoriya va ramz haqidagi qarashlari, ramzning turli qatlamlari, uning “ramziy mifologiya”ga oid qarashlari.

Xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyotning asosi sifatida. Xalq og‘zaki ijodi va ilk yozma adabiyot poetikasi yaxlitligi. YOzma adabiyotda doston janriga asos bo‘lgan miflar. Epik asarlar tarkibidagi mifologik unsurlar.

**8-mavzu.Qadimgi SHarq adabiyoti poetikasi masalalari(2 soat).**

Qadimgi Misr, shumer, yahudiy va boshqa sharq xalqlari adabiyoti poetikasi masalalari. “Avesto” mif va yozma adabiyot munosabatini o‘zida mujassam qilgan asar sifatida. Zardushtiylikning Sharqdagi qadimiy yodgorliklar (SHumer yodgorliklari, Yangi Ahd va b.) bilan o‘zaro aloqadorligi masalasi. Qadimgi turkiy yodgorliklar va “Avesto”dagi mifologik tasavvurlar uyg‘unligi.

**9-mavzu.Janrlar poetikasi. Ilk arab adabiyoti janrlari(2 soat).**Janrlar kanoni va janrlar orqali fikrlash. Janrlarning eydetik bosqichga mansubligi. Qat’iy va erkin janrlar shakllari: g‘azal, ruboiy, tuyuq, xokku va b. Adabiy janrlarning tarixiy kategoriyaga mansubligi.

O‘rta asr arab adabiyotida poetikaga oid asarlar. O‘rta asar arab adabiyotida individual she’riyatning boshlanishi. Bu davr arab poetikasida motiv haqidagi qarashlar. O‘rta asr arab filologiya fanida “poetik o‘zlashtirish” nazariyasi, shakl va mazmun haqidagi qarashlar.

**10-mavzu.Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi (2 soat)**.

Qadimgi turkiy adabiyotning janrlar tizimi, xalq og‘zaki ijodi janrlari va yozma adabiyot janrlari bir tizim sifatida. “Devonu lug‘atit-turk”da janrlar tizimi. Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar tizimi: ibodat, o‘tunch, qo‘shug‘, sudur, shlok tag‘shut va b.

**11-mavzu. Mumtoz adabiyotshunoslikda tarixiy poetikaning joriylanishi (2 soat).**

*Ilmi adabning* shakllanishi va tarkibi. Ilmi adab***adabmadaniyati*** ta’sirida paydo bo‘lgani. Hind, arab, fors va turkiy adabiyotda adab adabiyotining shakllanishi va o‘ziga xos jihatlari. Adab adabiyotining vakillari: al-Johiz, Ibn Qutayba, Abu Xayyon at-Tavhidiy. **“**Fununu-l-balog‘a”dapoetikaning asosiy masalalari: adabiy nav’lar va she’riy janrlar, aruz, qofiya, balog‘at ilmlari.

*Ilmi bade’* tarixiy poetikaning predmeti sifatida (“Hadoyiqu-s-sehr”, “Badyi’u-s-sanoe’”). Aruz risolalarining tarixiy poetika shakllanishidagi o‘rni (Alisher Navoiy va Bobur).

**12-mavzu.Tazkirachilik tarixida ijodkor shaxsiyati va adabiy jarayon muammolari** (“Yatimat ad-dahr”) (2 soat).

Tazkiralarda adabiy muhit, adabiy janrlar va ijodkor shaxsiyati, ijod mas’uliyati masalalari (“Muzakkiri ahbob” va b.). Tazkiralarda janrlar tasnifi (Davlatshoh Samarqandiydan Ahmad Tabibiygacha).

**13-mavzu. Tarixiy manbalar va poetika munosabatlari (2 soat).**

Rashididdinning “Jomeu-t-tavorix” asari, asardagi turkiy xalqlar tarixiga oid afsonalar, bu afsonalarning turkiy, xususan, oʻzbek adabiyotiga aloqadorligi masalasi. “Jomeu-t–tavorix”da hikoyat janri va tarixiy shaxslarga (CHingizxon, Oʻktoyxon va Chigʻatoyxon kabilar) munosabat. Ayrim tarixiy shaxslarning ideallashtirilishi va tarixiylik tamoyillari. “Jome ut–tavorix”da Oʻgʻuz xoqon shaxsi va “Oʻgʻuznoma” dostoni oʻrtasidagi aloqadorlik masalalari.

**14-mavzu. Tarixiy poetikaning boshqa adabiyotshunoslik fanlari bilan oʻzaro munosabati (2 soat).**

Qiyosiy-tarixiy metodning tarixiy poetikada tutgan oʻrni.

## MA’RUZA VA AMALIY MASHGʻULOTLARDA OʻQITISH TEXNOLOGIYALARI

| **1-Mavzu** | **Adabiyotshunoslikka oid fanlar tizimida tarixiy poetikaning mohiyati va oʻrni.** |
|---|---|

**3.1. Oʻquv mashgʻulotining ta’lim texnologiyasi modeli**

| | |
|---|---|
| *Talabalar soni: 7* | *Oʻqitish vakti: 2 soat* |
| *Mashgʻulot shakli* | Mavzu boʻyicha koʻrgazmali ma’ruza. |
| *Ma’ruza rejasi* | 1. Kursning maqsadi va vazifasi<br>2. Poetika va uning turlari: nazariy poetika, tarixiy poetika, dinamik poetika.<br>3. Poetika tarixi.<br>4. Poetika haqida bugungi nazariyalar. |
| *Mashgʻulotning maqsadi:* Mumtoz tarixiy poetika haqida tasavvurni shakllantirish | |
| *Pedagogik vazifalar:* | *Oʻquv faoliyati natijalari:* |
| Tarixiy poetika va uning boshqa fanlar bilan aloqasi, bu fanning maqsadi haqida toʻliq ma’lumot beriladi. | Poetika fanining shakllanishi va turli davrlardagi vazifalari yoritib beriladi. |
| Poetika haqida gapirib beriladi va izohlanadi. | Poetika fanini shakllantirgan va unga katta hissa qoʻshgan olimlar (Aristoteldan shu kungacha) haqida ma’lumot beriladi. |
| Tarixiy poetikaga oid SHarq va Gʻarb olimlarining tadqiqotlari va kitoblari bilan tanishitirilib, har birining bu fanga qoʻshgan hissasi ochib beriladi. | Aristotelning poetikaga oid ishlari va mundarijasi hamda Veselovskiyning tarixiy poetikani fan sifatida ishlab chiqqani dalillar bilan asoslanadi. |
| Tarixiy poetika boʻyicha SHarq olimlarining asarlari taqdim qilinadi va Gʻarb olimlari qarashlari bilan oʻxshash va farqli tomonlari aytiladi. | Tarixiy poetikaga oid nazariy tushunchalar, terminlar, gʻoyalar va qoʻyilgan masalalarning mohiyati tushuntiriladi. |
| *Oʻqitish vositalari* | Tarqatma materiallar,sxemalar,slaydlar. |
| *Oʻqitish usuli va shakli* | Informatsion ma’ruza, akliy xujum, jamoaviy ishlash, diskussiya,klaster usuli. |
| *Oʻqitish sharoiti* | Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya. |
| *Monitoring va baholash* | Ogʻzaki nazorat, savol-javob, oʻz-oʻzini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

| *Ish jarayonlari vaqti* | *Faoliyatning mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *o‘qituvchi* | *talaba* |
| 1-Bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | 1.1. Mavzuni o‘zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi. | YOzib oladilar |
| | 1.2. O‘quv mashg‘uloti mavzusi bilan tanishtiradi va uning maqsadi, o‘quv faoliyati natijalarini bayon etadi. | Mavzu nomini yozib oladilar |
| | 1.3. Mavzu yuzasidan blits-so‘rov usuli yordamida (bakalavrda olgan ta’limi asosida) ma’lum bo‘lgan tushunchalarni faollashtiradi. Bu usul yordamida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlaydi. (1- Ilova) | Tushunchalarni sanaydi, ularga izoh beradi. O‘UMga qarang |
| 2-Bosqich. Asosiy bo‘lim (50 daqiqa) | 2.1. Mavzu rejasi va tushunchalari bilan tanishtiradi. Tarixiy poetika va uning shakllanishi tarixini vizual materiallar yordamida yoritib beradi.(2-Ilova) | Tinglaydilar. YOzib oladilar |
| | 2.2.Tarixiy poetika tuzilishini “T-sxema” texnikasidan foydalangan holda yoritib beradi.(3-Ilova) | Tinglaydilar. YOzib oladilar. Savollar beradilar. Olingan bilimlarni tizimlashtiradilar. O‘UMga qaraydilar |
| | 2.3. Tarixiy poetikaning boshqa poetika turlari doirasidagi o‘rni va vazifasi, poetikaning boshqa turlari bilan aloqasi dalillar hamda vizual materiallar yordamida yoritib beriladi. | Tinglaydilar. YOzib oladilar |
| | 2.4. Qadimdan to shu kungacha tarixiy poetikaga asos solgan olimlar, bu sohaga salmoqli hissa qo‘shgan A.N.Veselovskiy, Qays Roziy, D.S.Lixachev kabi olimlarning qarashlari tushuntiriladi. | Tinglaydilar.Konspekt qiladilar. O‘UMga qaraydilar |
| 3-Boskich YAkuniy boskich. (20daqiqa) | 3.1. Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosa chiqaradi.Faol talabalar rag‘batlantiriladi. | Tinglaydilar.Konspekt qiladilar |
| | 3.2. Kelgusi mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar tavsiya etiladi. | O‘zini qiziqtirgan savollarni beradi |

1(3.1)-Ilova

**Mavzuni mustahkamlashga qaratilgan**
**«Blits-so‘rov» savollari**

| **№** | **Savollar** | **Javoblar** |
|---|---|---|
| 1. | Tarixiy poetika Aristotel ilmiy faoliyatida qanday o‘rin tutadi? | |
| 2. | SHarq tarixiy poetikasida birinchi bo‘lib kitob yozgan | |

| | | |
|---|---|---|
| | olim kim? | |
| 3. | Rus adabiyotshunosligida tarixiy poetikani fan sifatida kim yaratgan? | |
| 4. | Nazariy poetika bilan tarixiy poetika o‘rtasidagi farq nimalardan iborat? | |
| 5. | Dinamik poetika nima? | |
| 6. | Poetika tarixini davrlashtirishda nimalar hisobga olinadi? | |

2(3.1)-Ilova

**O‘quv vizual materiallar**

1-slayd

**ТАРИХИЙ ПОЭТИКА**

Поэтика қадимдан ўрганилиб келинаётган соҳа бўлиб, адабиётшуносликнинг мазмуни ва шаклини ташкил қилади. Поэтика қадимдан бери олимлар ва ижодкорларнинг диққатини жалб қилиб келади. Бу табиий, албатта. Бадиий ижод, адабиётнинг тараққиёти назарий ёритишни ва умумлаштиришни тақозо қилади. Кўпинча умумлаштиришларнинг натижаси катта аҳамиятга эга бўлган эди. Шу муносабат билан Аристотелнинг “Поэтика” асарини эслаш ўринлидир.

2-slayd

**Поэтиканинг қуйидаги турлари мавжуд:**

Тарихий поэтика

Умумий ёки назарий

Меъёрий поэтика ва б.

3-slayd

Мумтоз тарихий поэтикани Шарқ ва Ғарб адабиётида қуйидаги олимлар фан сифатида яратганлар

Шамсиддин Қайс Розий (Х111 аср) “Ал-Мўъжам” асарида поэтиканинг формал-поэтик хусусиятларини биринчи бор таҳлилқилди.

А.Н.Веселовский “Историческая поэтика” асарида тарихий поэтиканинг мазмуни ва мундарижасини асосан, славян, француз ва немис халқлари оғзаки ижоди материаллари асосида яратди.

3(3.1)-Ilova

**"T-sxema" jadvalini to'ldiring**

SHarq va G'arb tarixiy poetikasida qaysi jihatlarga urg'u berilgan?

| Formal-poetik xususiyatlariga | Manbalar mazmuni va tuzilishiga |
|---|---|
| | |

**3.2. Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi modeli.**

| | |
|---|---|
| *Talabalar soni 7 ta* | *vaqti 2 soat* |
| *Mashg'ulot shakli* | "Nima uchun?" organayzeridan foydalangan holda, mavzu bo'yicha bilimlarni musthxkamlashga va chuqurlashtirishga qaratilgan amaliy mashg'ulot. |
| *Amaliy mashg'ulot rejasi:* | 1.Qadimgi turkiy yodgorliklarning formal-poetik xususiyatlariga umumiy tavsif.<br>2.Qadimgi turkiy yodgorliklarning qaysi adabiy turga mansubligi va u haqdagi qarashlar.<br>3. Qadimgi turkiy yodgorliklarda ritmik nasr xususiyatlari.<br>4. Qadimgi turkiy yodgorliklarning janr xususiyatlari |
| *Mashg'ulotning maqsadi:* Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta'minlash. | |
| *Pedagogik vazifalar:* | O'quv faoliyati natijalari: |
| Qadimgi turkiy yodgorliklarga tavsif beriladi. | Qadimgi turkiy yodgorliklarning o'rganilishiga qisqacha tavsif beriladi. |
| Qadimgi turkiy yodgorliklarning matn xususiyatlari va hududiy jihatdan turlari haqida aytiladi. | Qadimgi turkiy yodgorliklar qahramonlari haqida axborot beriladi. |
| Qadimgi turkiy yodgorliklarning qadimgi turkiy adabiyot rivojidagi o'rni yoritib beriladi. | Qadimgi turkiy yodgorliklarning janr xususiyatlariga qisqa tavsif beriladi. |
| Qadimgi turkiy yodgorliklarda badiiy tasvir vositalarining roliga va vazifasiga urg'u qaratiladi. | Qadimgi turkiy yodgorliklarda badiiy san'atlar haqida qisqa aytib beriladi va qadimgi turkchasidan misollar keltiriladi. |
| *O'qitish vositalari* | Sxema,slaydlar,doska, kog'oz qalam |
| *O'qitish usullari* | Topshiriqlar, Nima uchun? dialog,amaliy ishlash usuli |
| *O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari* | Individual, guruhlarga bo'linib ishlash |
| *O'qitish sharoiti* | Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya. |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi**

| *Ish jarayonlari vaqti* | *Faoliyatning mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *O‘qituvchi* | *talaba* |
| I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut) | 1.1. O‘quv mashg‘uloti mavzusi, maqsad va o‘quv faoliyati natijalarini aytadi: Ta’lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. | Tinglaydilar. |
| | 1.2. Talabalarni jonlantirish maqsadida «Nima uchun?» texnikasidan foydalanilgan holda: «Nima uchunqadimgi turkiy yodgorliklarni o‘rganish hozirgi kunlarda ham faol olib borilmoqda?» deb savol bilan murojaat qiladi (1-ilova). Fikrlarni umumlashtirib, amaliy mashg‘ulotni boshlaydi. | Organayzerli to‘ldiradilar. O‘z fikrini erkin bildiradilar. |
| | 1.3. Talabalarni 2 ta kichik guruhlarga bo‘ladi, baholash ko‘rsatkichi va mezonlari bilan tanishtiradi (3-ilova). | Interfaol usul-lardan foydalanil-gan holda kichik guruhlarga bo‘linadi. |
| II-bosqich. Asosiy (60 minut) | 2.1. Guruhlarga topshiriq beradi: 10-minut ichida har bir guruh quyidagi mavzular bo‘yicha umumiy esse yozing: 1.Qadimgi turkiy yodgorliklar qaerlardan topilgan?<br>2.YOdgorliklarning yaratilish maqsadi nima?<br>Z.YOdgorliklarning tarixiy poetika uchun ahamiyati nimada? | Esseni mustaqil, birgalikda vatman-qog‘ozlarga yozadilar. |
| | 2.2. Esse yozish uchun yo‘riqnoma beradi, taqdimotini tayyorlashga ko‘maklashadi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor qaratadi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. | Topshiriqni baja-radilar, taqdimotini o‘tkazadilar, qo‘shimchalar kiri-tadilar, baholay-dilar, xulosa chiqaradilar. |
| | 2.3. Guruhlarga «Koop-koop» texnika-sidan foydalanilgan holda, (2-ilova), «Qadimgi turkiy yodgorliklarning poetik qurilishini hosil qiluvchi omillar nima?», - deb savol bilan murojaat qiladi. | Mustaqil topshiriqni bajaradilar. |
| | 2.4. Ish boshlanganligini e’lon qiladi, har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishda yordam beradi. | Topshiriqni bajaradilar. |
| | 2.5. Ish taqdimotini tashkil qiladi, izoh beradi, talabalarning bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga e’tiborini qaratadi. | Ish natijalarining taqdimotini o‘tkazadilar. Jamoa bo‘lib muhokama qiladilar, baholaydilar. |
| III-bosqich. YAkuniy (10 minut) | 3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag‘batlantiradi. | Eshitadi. Aniqlaydi. |
| | 3.2. Mustaqilishlashuchuntopshiriqlarberadi: Mavzuningmazmuninichuqurо‘rganish, keyingimashg‘ulotgatayyorgarlikko‘rish. (4-Ilova) | Tinglaydi. Aniqlaydi. |

1(3.2)-Ilova

**1-o‘quv topshiriq**
**«Nima uchun» organayzeri**




2(3.2)-Ilova

**«Koop-koop» («Birgalikda o‘qiymiz») texnikasini o‘tkazish qoidasi**

| *Ish bos-qichlari* | *Faoliyat* | |
|---|---|---|
| | *Ta’lim beruvchi* | *Ta’lim oluvchi* |
| 1. | 3 va 4 kishidan iborat kichik guruhlarni tashkil qiladi | |
| 2. | Har bir guruhga mavzuning bir bo‘lagi bo‘lib hisoblangan bir xil topshiriqlar beradi. Topshiriqni bajarish uchun yo‘riqnomalar beradi. | Guruh a’zolari o‘zaro topshiriqlarni bo‘lib olishadi. |
| 3. | Topshiriqning muvaffaqiyatli bajarilishini va muomala madaniyatini nazorat qiladi. | 3.1. Hamma topshiriqni mustaqil bajaradi, mavzular bo‘yicha mustaqil ishlaydi.<br>3.2. Guruh a’zolarining mini-ma’ruzalarini tinglaydi. Umumiy ma’ruza tayyorlanadi. Ma’ruzani o‘qish uchun spiker tayinlanadi. |
| 4. | Guruhlarda ish yakunlarining chiqarilishini so‘raydi va taqdimotini o‘tkazishni talab qiladi. | Guruh-spikeri ma’ruzaning taqdimotini o‘tkazadi. |
| 5. | Natijalarni tahlil qiladi va baholaydi, g‘olib guruhlarni aniqlaydi. | |

3(3.2)-Ilova

**Talabalarning bilim va ko‘nikmalarini**
**baholash mezonlari**

| **Guruh** | **1-topshiriq** | **2-topshiriq** | **Jami** | **Baho** |
|---|---|---|---|---|
| I | | | | |
| II | | | | |
| III | | | | |

4(3.2)-Ilova

**1-o‘quv topshiriq.**
**Jadvalni to‘ldiring.**

| Qadimgi turkiy yodgorliklarning poetik qurilishi | Qadimgi turkiy yodgorliklarda badiiy san’atlar | Qadimgi turkiy yodgorliklarda ritmik vositalar |
|---|---|---|
| | | |

**2-o‘quv topshiriq.**
**Mavzuni mustaqil o‘rganish uchun topshiriq savollari**

| |
|---|
| 1.Mavzu bo‘yicha berilgan qo‘shimcha adabiyotlar bilan tanishing<br>2.”Mifq narodov mira” ensiklopediyasidan «Tyurksaya mifologiya» maqolasidan ma’lumot oling<br>3. Qadimgi turkiy yodgorliklarning poetik qurilishi mavzusi bo‘yicha referat tayyorlang<br>4 Universitet slaydlariga kirib ushbu mavzu bo‘yicha qo‘shimcha axborotlaroling. |

**5- mavzu** **Mif poetikasi**

**6.1. O‘quv mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli**

| *Talabalar soni:* 7 | *Vaqti:*2 soat |
|---|---|
| *Mashg‘ulot shakli* | Muammoli - ma’ruza. |
| *Ma’ruza rejasi* | **1. Mif og‘zaki ijod va yozma adabiyotning shakllanish manbai sifatida.**<br>**2. Mif haqidagi qarashlar.**<br>**3. Mifning ta’rifi.**<br>**4. Mifning paydo bo‘lishi. Mifologik fikrlashning umumiy xususiyatlari haqida.**<br>**5. Mif va metamorfoza munosabati.**<br>**6. Mif va g‘ayratabiiy timsollar.**<br>**7. Mifologik jarayon va udumlar.** |
| *Mashg‘ulotning maqsadi:* Ma’naviy barkamol inson tushunchasi va uning sharqona ta’rifi haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, komil inson va uning sharqona fazilatlari haqida tushuncha hosil qilish | |
| *Pedagogik vazifalar:* | *O‘quv faoliyati natijalari:.* |
| Islom Karimov tomonidan bar-kamol inson tushunchasiga be-rilgan ta’rifning mohiyatini yoritib beradi | Barkamol inson avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘la-digan bilimli, ma’rifatli kishi ekanligini aytib beradi |
| Komil inson va uning sharqona fazilatlari bilan tanishtiradi | Komil insonni tarbiyalash zaruriya-tining oshib borish sabablarini sanab beradi |
| Vatanparvarlik, insonparvar-lik - inson va jamiyat ma’naviy qiyofasining mezoni, o‘z millatiga sadoqatli bo‘lish - yuksak burch ekanligini | Vatanparvarlik, insonparvarlik - inson va jamiyat ma’naviy qiyofasining mezoni, o‘z millatiga sadoqatli bo‘lish - yuksak burch ekanligini izohlab beradi |

| | |
|---|---|
| yoritib beradi | |
| Iymon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, halollik va vafodorlik - shaxs ma’naviy fazilatlari ekanligini yoritib beradi | Iymon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, halollik va vafodorlik-shaxs ma’naviy fazilatlarini sanab beradi |
| *O‘qitish metodlari va texnika* | Muammoli uslub, bahs-munozara, suhbat, «o‘yla-juft bo‘lib ishla – fikr almash», bliz-so‘rov, FSMU, T-sxema texnikalari. |
| *O‘qitish vositalari* | Ma’ruza matni, lazerli proektor, tarqatma materiallar. |
| *O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari* | Jamoa, frontal va juft-juft bo‘lib ishlash. |
| *O‘qitish shart-sharoiti* | Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya. |
| *Qaytar aloqa usul va vositalari* | Og‘zaki nazorat, savol-javob, o‘z-o‘zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

| *Ish jarayonlari vaqti* | *Faoliyatning mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *o‘qituvchi* | *talaba* |
| I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut) | 1.1. Muammoni keltirib chiqaradi, yakuniy xulosa – muammo echimining aniq natijasidir.<br>Muammo ichidan muammolarni kel-tirib chiqaradi, uning echimi esa hamma muammolarni hal qiladi. Muammo ichidagi muammolarni xulosalaydi, muammoli savollar bilan uning echimiga vosita bo‘la oladi. Talabalar uchun savollar va topshiriqlar tuzadi. Bu savol va topshiriqlar muammoning echimiga turtki bo‘ladi. | O‘UM ga qaraydilar |
| | 1.2. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qiladi, o‘quv mashg‘ulotining maqsadi va vazifalarini tushuntiradi. | Tinglaydilar, yozadilar. |
| II-bosqich. Asosiy (60 minut) | 2.1. Talabalarning bilimlarini suh-bat asosida savollar orqali dolzarb-lashtirib, jonlantiradi. | Savollarga javob beradi. |
| | 2.2. Dolzarblashtirilgan savollar or-qali talabalarni muammo bilan to‘q-nashtiradi, Darsda ko‘rib chiqiladigan muammoni shakllantiradi.<br>FSMU texnologiyasidan foydalanil-gan holda talabalarga: «Qanday in-sonni ma’naviy barkamol inson, vatanparvar va insonparvar deb hisoblaysiz?» degan muammoli savol bilan murojaat qiladi. FSMU kar-tochkalarini tarqatadi (1-ilova) | Muammoli savolni yozib oladilar.<br>Juft-juft bo‘lib, FSMU kartochkalarini to‘ldiradi. O‘z erkin fikrini ifoda etadi. |
| | 2.3. Talabalarni qay darajada jad-valni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri to‘ldirgan-liklarini tahlil qiladi, birgalikda muammoli savolni muhokama qiladi, xulosa chiqarishga yordam beradi. | Muhokama qiladilar, g‘oyalar bilan chiqadilar. |
| | 2.4. Ma’naviy barkamol insonni tar-biyalash zamona talabi ekanligi eng muhim muammolardan biri ekanligini aytib o‘tadi. Talabalarga yo‘nalti-ruvchi savollar berish orqali | O‘z erkin fikrlarini bildiradilar, bahs-munozara yuritadilar, tahlil qiladilar, xulosa |

| | | |
|---|---|---|
| | (2-ilova), ushbu muammo ichidagi muam-molarni keltirib chiqaradi. Muammo-li savollar orqali talabalarni bu muammo echimini topishga undaydi. | chiqaradi. |
| | 2.5. Talabalarning fikrlarini umum-lashtirib, ma’naviy barkamol inson, vatanparvar va insonparvar tushunchasini slaydlar yordamida (3-ilova) tushuntiradi. | Tinglaydilar. YOzadilar. |
| | 2.6. Komil inson va uning sharqona fazilatlarini SHarq mutafakkir-larni fikrlaridan namunalar keltir-gan holda yoritib beradi. Talabalarga: «Ma’naviy barkamol, sog‘lom avlod, komil inson tushunchalaridagi mushta-raklik va farq nimada?» - deb savol bilan murojaat qilib, T-sxemani to‘ldirishni so‘raydi (4-ilova). | Tinglaydilar, yozadilar. T-sxemani juft-juft bo‘lib to‘ldiradilar. |
| | 2.7. Berilgan topshiriq yuzasidan blits-so‘rov o‘tkazadi, Vatan sajdagoh kabi muqaddas. Insonparvarlik - inson va jamiyat ma’naviy qiyofasining mezoni. O‘z millatiga sadoqatli bo‘lish - yuksak burch. Iymon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, halollik va vafodorlik-shaxs ma’naviy fazilatlari xususida yakuniy xulosa chiqaradi. | Javoblarni o‘qib beradi. |
| III-bosqich. YAkuniy. (10 min.) | 3.1. Talabalarning bilim va ko‘nik-malari baholanadi. | O‘zini qiziqtirgan savollar beradi. |
| | 3.2. Kelgusi mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish uchun topshiriqlar va foyda-laniladigan adabiyotlar tavsiya eti-ladi. «Ma’naviy barkamol insonning qiyofasi» mavzusida esse yozib kelib vazifa tariqasida beriladi. | O‘UM ga qaraydilar |

1(8.1)-Ilova

**1-o‘quv topshiriq**

**FSMU jadvali**

**Qanday insonni ma’naviy barkamol, vatanparvar va insonparvar inson deb hisoblaysiz?**

| |
|---|
| **F**<br>(Fikringizni bayon eting). |
| **S**<br>(Fikringiz bayoniga biror sabab ko‘rsating). |
| **M**<br>(Ko‘rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring). |
| **U**<br>(Fikringizni umumlashtiring). |

2(8.1)-Ilova

**Mavzu bo‘yicha bilimlarni dolzarblashtiruvchi savol**

Jamiyat taraqqiyotini rivojlanishiga asos bo‘luvchi ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi muammolar va ularning echimi.

***Yo‘naltiruvchi savollar:***

1. Ma’naviyatning inson faoliyatidagi rolini izohlang.
2. Ma’naviy qashshoqlikni yo‘qotish uchun nimalar qilish kerak? (2-slayd)

***1-muammo.***Kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalash jarayoni samaradorligini qanday oshirish mumkin?
1. Ma’naviy barkamol insonni, komil insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalash nima uchun zamona talabi hisoblanadi?
2. Islom Karimovning ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash to‘g‘risidagi g‘oyalari.
***2-muammo.*** Ma’naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash borasidagi muammolarni aniqlash va echimini topish.
1. Ma’naviy barkamol inson deganda nimani tushunasiz?
2. Sog‘lom avlodning qirralarini izohlang.
3. Sog‘lom avlod Davlat dasturi haqida nimalarni bilasiz?
***3-muammo.*** Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish yo‘l-yo‘riqlarini bugungi shart-sharoitdan kelib chiqqan holda aniqlash.
1. Komil inson deganda qanday insonni tushunasiz?
2. SHarq mutafakkirlari komil inson haqida qanday fikrlar bildirilgan.
3. Ma’naviy barkamol, komil insonning asosiy fazilatlariga nimalar kiradi?

**O‘quv vizual materiallar**

3(8.1)-Ilova
1-slayd



2-slayd

**Ma’naviy qashshoqlikni yo‘qotish**




3-slayd

**SHaxs ma’naviyatining botiniy belgilari**



4-slayd

Erkin fuqaro, ozod shaxs, barkamol inson, ya’ni har bir fuqaro

O‘z haq-huquqini taniydigan bo‘lsin

O‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo‘lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko‘rsin

Atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin

SHaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg‘un holda ko‘rib, faoliyat yuritsin

5-slayd

**Mustaqillik tafakkuri**

Vatan istiqboli va istiqloli haqida qayg‘urish

Xalqi, yurti, qadr-qimmati, or-nomusini anglash va buni himoya qilish

Butun mehnati, iste’dodi, imkoniyatini zarur bo‘lsa jonini ham yurt istiqboli, xalq baxti uchun baxshida etish.

6-slayd




7-slayd

**Vatan va vatanparvarlik tushunchalarning falsafiy talqini**

Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh aqrobalar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so‘zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo‘lsa, qaysi vijdonli odam u uchun jonini berishga ikkilanar ekan

*SITSERON*

Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo‘lida qurbon bo‘lishga hozir ekanliklarida aks etadi

*GEGEL*

Kimki o‘z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

*BAYRON*

Kimki o‘z vataniga daxldor bo‘lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas

*BELINSKIY*

O‘z Vataniga dog‘ tushirish – uni sotish degan so‘z

*GYUGO*

Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug‘iladi. YA’ni inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib yuksala boradi. Bu ildiz qanchalar chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi

*I.KARIMOV*

8-slayd

**V a t a n p a r v a r l i k**

O‘z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish

Qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma’naviy meroslarni ko‘z qorachig‘iday asrash va avlodlarga taqdim etish

Xalqimizning, ajdodlarimizning go‘zal va ma’noli urf-odatlar, rasm-rusm va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish

Ajoyib vatandoshlar – ajdodlar nomi bilan, ularning ulug‘ ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo‘lish.

SHunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish

Turon zaminni himoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan qahramonlar nomini yod etish

Millatimizga qarshi uyushtirilgan qatag‘onlarda, qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo‘lgan minglab millatimiz gullarini unutmaslik

YUksak e’tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo‘lish

**2-topshiriq**

4(8.1)-Ilova

**T-sxema**

| *Ma’naviy barkamol, sog‘lom avlod, komil inson tushunchalaridagi mushtaraklik* | *Ma’naviy barkamol, sog‘lom avlod, komil inson tushunchalaridagi farq* |
|---|---|
| • har bir insonning o‘z-o‘zini anglashi; | • ma’naviy barkamol inson – ongi yuksak, mustaqil fikrlash oladigan, xulq atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishi; |
| • o‘zga insonlarni qadrlay bilishi; | |
| • inson zotini ulug‘lay bilishi; | |
| • insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boylik-larni o‘zlashtirishga intilish; | • Sog‘lom avlod – jismonan baquvvat, ma’naviy boy avlod; |
| • ichki va tashqi dunyosining birligi; | • Komil inson – odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislat-larning ifodachisi. |
| • sog‘lom fikri va oqilona so‘zining birligi; | |
| • dili va tilining birligi; | |

## 6.2. Amaliy mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| *Talabalar soni: 21* | *Vaqti:*4 soat |
| *Mashg‘ulot shakli* | Bilimlarni chuqurlashtirish va mustah-kamlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulot. |
| *Amaliy mashg‘ulot rejasi* | 1. Barkamol inson ta’rifi. Komil insoning sharqona fazilatlari.<br>2.Mustaqillik va bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida vatanparvarlik tuyg‘ularining mustahkamlash zaruriyati. O‘z millatiga sadoqatli bo‘lishning mohiyati.<br>3.SHaxsning ma’naviy fazilatlari:<br>a) iymon tushunchasi;<br>b) diyonat tushunchasi;<br>v) adolat tushunchasi;<br>g) mehr-shafqatlilik tushunchasi;<br>d) e’tiqod tushunchasi;<br>e) milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchasi.<br>4. Ta’lim tizimi shaxs ma’naviyatini shakllantirishning muhim omilidir |
| *Mashg‘ulotning maqsadi:* Ma’naviy barkamollik va komillikning qirralari va asosiy mezonlari hamda shaxsning ma’naviy fazilatlari bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta’minlash | |
| *Pedagogik vazifalar:* | *O‘quv faoliyati natijalari.* |
| • mavzuni mustaqil o‘rganish uchun asos yaratish;<br>• mavzu bo‘yicha bilimlarni chu-qur o‘zlashtirish va mustahkam-lashga yordam berish;<br>• o‘quv ma’lumotlar bilan musta-qil ishlashga imkoniyat yarata-di, taqqoslashga, tahlil qilish-ga umumlashtirishga ko‘mak be-rish;<br>• muammoli vazifalarni echishda shart-sharoit yaratish;<br>• mantiqiy xulosa chiqarishga ko‘mak berish | • amaliy mashg‘ulot rejasi bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgar-lik ko‘radi;<br>• ma’naviy barkamol insonni tarbiya-lash zaruriyatining oshib borish sabablarini sanab beradi;<br>• ma’naviy barkamol va komil inson-ning aqliy, axloqiy, ma’naviy fazi-latlarini yoritib beradi;<br>• muammoli vazifalarni echishda naza-riy bilimlarini qo‘llaydi;<br>• muammoni aniqlab, uni hal qilishda echim topadi |
| *O‘qitish metodlari* | Muammoli uslub, aqliy hujum, bahs-munozara, blits-so‘rov. |
| *O‘qitish vositalari:* | Ma’ruza - matni, markerlar, qog‘ozlar, doska, bo‘r, Z. Musoqovning «Vatan» kinofilmining SD. |
| *O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari* | Jamoa va guruhlarda ishlash. |
| *O‘qitish shart-sharoiti* | Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya. |
| *Qaytar aloqa usul va vositalari* | Og‘zaki nazorat, savol-javob, o‘z-o‘zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi**

| *Ish jarayonlari vaqti* | *Faoliyatning mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *o‘qituvchi* | *talaba* |
| I-bosqich. | 1.1. O‘quv mashg‘uloti mavzusi, maqsadi, vazifalari va o‘quv faoliyati natija-larini aytadi, dolzarbligi va ahamiyatiga to‘xtalib | Tinglaydilar, O‘UM ga |

| | | |
|---|---|---|
| Mavzuga kirish (10 minut) | o‘tadi. | qaraydilar |
| | 1.2. Olgan bilimlarini umumlashtirish maqsadida, talabalarni faollashtirish uchun «Ma’naviyat tushunchasi deganda nimani tushunasiz?» deb savol beradi, «Aqliy hujum» o‘tkazadi. Fikrlarni umumlashtiradi (1-ilova). | Erkin fikr bildiradi. |
| II-bosqich. Asosiy (60 minut) | 2.1. Talabalarning bilimlarini tek-shirish maqsadida test o‘tkazadi (1-ilova) | Test savollariga javob beradi |
| | 2.2. Talabalarni 3 ta kichik guruhlarga ajratadi, ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi (4-ilova) mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi (2-ilova) | Guruhlarga ajraladi, yozib oladilar, topshiriqlar ustida ishlaydilar |
| | 2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi | Faolqatnashadilar |
| | 2.4. Harbirguruhtopshiriqlarnivatman-qog‘ozlargatushirib, taqdimotinio‘tkazishdayordamberadi, izohberadi, bilimlariniumumlashtiradi, xulosalargaalohidae’tiborberadi. Topshiriqlarnibajarilishiningqaydarajadato‘g‘riekanliginidiqqatbilantinglaydi. | Jamoabo‘libbaja-rilganishningtaq-dimotinio‘tkazadi-lar, baxs-munozarayuritadilar, qo‘-shimchalarqiladi-lar, baholaydilar, xulosachiqaradilar. |
| | 2.5. Talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida blits-so‘rov o‘tkazadi (3-ilova). Darsyakuniniumumlashtiradi. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. YAkuniy (10 minut) | 3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Bugungi mavzu dolzarb ekanligiga to‘xtalib o‘tadi. Olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq etishlari lozim ekanligini ta’kidlaydi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag‘batlantiradi. | Eshitadi. Aniqlaydi. |
| | 3.2. Uygamustaqilbajarishuchuntop-shiriqberadi: «Ma’naviyqashshoqlikniyo‘qotish» mavzusidaesseyozibkeling. | O‘UM ga qaraydilar |

## 1-topshiriq
## Testlar

**1. Har qanday ertak mif bosqichini bosib o'tishi kerakmi?**
a) bosib o'tishi kerak
b) sehrli ertaklar bosib o'tmasligi mumkin
v) ertak sxemasi naturalistik mifdan qadimiy bo'lgani uchun bosib o'tmaydi
g) maishiy ertaklar bosib o'tadi.

**2. Antik davr...**
a) folklor yaratilgan davr
b) madaniyat tug'ilgan davr
v) individual she'riyat tug'ilgan davr
g) romanning ilk paydo bo'lgan davr

**3. Ibtidoiy fikrlashning xususiyatlari...**
a) inson faqat sonlarni bilgan
b) san'at asarlarini, obrazli fikrlashni bilmagan
v) ibtidoiy fikrlash konkret, ajralmagan va obrazli
g) ibtidoiy fikr konkret emas, ajralgan va obrazli emas.

**4. Ibtidoiy fikrlash...**

a) mavhum tushunchalarga asoslangan
b) mifologik obrazlarga asoslangan
v) Gomer eposlariga asoslangan
g) ibtidoiy fikrlash degan tushuncha yo'q

**5. Poetik metafora...**
a) mifologik fikrlashdan kelib chiqadi
b) individual fikrlashdan kelib chiqadi
v) boshqa xalqlar badiiy tafakkuri ta'siridan kelib chiqadi
g) o'xshatishdan kelib chiqadi

**6. Ibtidoiy fikrlash bosqichida tashqi olam...**
a) so'z ko'rinishida tasavvur qilingan
b) inson ko'rinishida tasavvur qilingan
v) hayvonot olami ko'rinishida tasavvur qilingan
g) tabiiy jismlar ko'rinishida tasavvur qilingan

**7. Ilk obraz...**
a) individual badiiy tafakkur shakli
b) inson bilan tabiat o'rtasidagi aloqalar shakli
v) inson va samoviy jismlar o'rtasidagi munosabatlar shakli

g) mifologik tasavvur shakli

**8. Ibtidoiy inson olamni...**
a) totemlar sifatida tasavvur qilgan
b) fetishlar sifatida qabul qilgan
v) samoviy jismlar sifatida qabul qilgan
g) hayvonot olamidan iborat deb bilgan

**9. Mif nima?**
a) janr
b) bilish jarayonining bevosita shakli
v) obraz
g) bir necha obrazni yaxlit tasavvur qilish

**10. Qadimgi miflar – bu …**
a) totemistik miflardir
b) kalendar miflardir
v) qahramonlik miflaridir
g) kosmogonik miflardir

**11. Totemizm...**
a) mavhum tushunchalarni paydo qiladi
b) konkret tushunchalarni paydo qiladi
v) metaforani shakllantiradi
g) obrazni paydo qiladi
d) YUrtda tinchlik, totuvlikni ta'minlaydi.

**12. A.N.Veselovskiyning qarashicha, qaysi biri qadimiy?**
a) mif
b) ertak
v) epos
g) drama
13. **Tarixiy poetikaning quyidagi metodlaridan qaysi birini O.M.Freydenberg ishlab chiqqan?**
a) tarixiy
b) qiyosiy-tarixiy
v) genetik
g) tarixiy-tipologik

**14. Sinkretizm davridagi "daraxt" so'zi...**
a) buyum va so'zdan iborat
b) so'z bor, buyum hali mavjud emas
v) so'z va buyum ajralmagan
g) uchalasi ham to'g'ri

**15. Ko‘p a’zoli parallelizm...**
a) ikki a’zoli parallelizmdan kelib chiqqan
b) inkor parallelizmdan kelib chiqqan
v) bir a’zoli parallelizmdan kelib chiqqan
g) ramzlardan kelib chiqqan

**16. Sinkretizm davridagi obraz...**
a) arxaik tushunchalardan o‘sib chiqdi
b) arxetip shakllardan kelib chiqdi
v) ko‘chimlardan kelib chiqdi
g) bu davrda hali obraz shakllanmagan edi.

**17. “Syujet motivlardan tashkil topib qolmay, ko‘p hollarda...”**
a) motivni yaratadi
b) kompozitsiyani hosil qiladi
v) asarni shakllantiradi
g) motivlar tomonidan aniqlanadi

**18. Arxetip syujet sxemalari...**
a) mifologik syujet sxemalaridir
b) epos syujeti sxemalaridir
v) lirik janrlar sxemalaridir
g) bunday syujet sxemalari bo‘lmagan

**I. Muammoli topshiriq**

*Vaziyat.* «Jamiyat taraqqiyotini rivojlanishiga asos bo‘luvchi ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi muammolar va ularning echimi.

*Vazifa.* Siz ma’naviy barkamol, komil, vatanparvar va insonparvar insonni tarbiyalash zaruriyatining oshib borish sabablari, uning millat mamlakat va umuminsoniyat oldida turgan ulkan vazifalar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatib berishingiz lozim.

**II. Uslubiy tavsiyalar**

*1. Muammoviy tahlilning bosqichlari.*

Birinchi bosqich – muammoning asosiy mazmunini ajratib olishni taklif qiladi, tadqiqot ob’ektini aniqlab, shakl beradi.

Ikkinchi bosqich – muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob’ektning holatini aniqlaydi, asosiy qirralariga e’tibor qaratadi, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiladi.

Uchinchi bosqich – muammoni echish uchun barcha vaziyatlarni ko‘rib chiqadi, muqobil vaziyatni yaratadi.
To‘rtinchi bosqich – muammoning echimini aniq variantlardan tanlab oladi, muammoning aniq echimini topadi.
*2. Vazifani bajarish ketma-ketligi:*
1) Muammoni shakllantiring.
2) Vaziyatni tahlil qiling, sabablarini ko‘rsating.
3) Vaziyatdan chiqib ketish xarakatlarni izlab toping.
4) Jadvalni to‘ldiring.
5) Aniq yakuniy xulosa chiqaring.

3. «Muammoli vaziyat» jadvali.

| Muammoli vaziyat turi | Muammoli vaziyatning sabablari | Vaziyatdan chiqib Ketish xarakatlari |
|---|---|---|
| | | |

4(8.2)-Ilova

**2-o‘quv topshiriq**
**Blits-so‘rov savollari**

| *№* | *Savol* | *Javob* |
|---|---|---|
| 1. | Ma’naviy barkamol insonning fazilat-larini sanab bering. | |
| 2. | Komil insonning fazilatlarini sanab bering. | |
| 3. | Milliy iftixor nima? | |
| 4. | Milliy g‘urur nima? | |
| 5. | Millatparvarlik deganda nimani tushu-nasiz? | |
| 6. | Mustaqillik tafakkuri deganda nimani tushunasiz? | |

5(8.2)-Ilova

**Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari**

| *Guruh* | *Baho* | *Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari* | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *O‘tilgan mavzuni bilishadi* | *Guruh faol* | *Muammoni echish uchun takliflar* | *Jami* |

| | | | | *berishdi* | |
|---|---|---|---|---|---|
| | *Ball* | *1,0* | *0,5* | *1,5* | *3* |
| 1 | | | | | |
| 2 | | | | | |
| 3 | | | | | |

## Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho

| *Guruh* | *1* | *2* | *3* | *Jami ball* | *Baho* |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | | |
| 2 | | | | | |
| 3 | | | | | |

2,2 – 3 ball – a’lo
1,2 – 2 ball – yaxshi
0,5 – 1,1 ball – qoniqarli
0 – 0,5 ball – qoniqarsiz

## Testlar

**1. Har qanday ertak mif bosqichini bosib o‘tishi kerakmi?**
a) bosib o‘tishi kerak
b) sehrli ertaklar bosib o‘tmasligi mumkin
v) ertak sxemasi naturalistik mifdan qadimiy bo‘lgani uchun bosib o‘tmaydi
g) maishiy ertaklar bosib o‘tadi.

**2. Antik davr...**
a) folklor yaratilgan davr
b) madaniyat tug‘ilgan davr
v) individual she’riyat tug‘ilgan davr
g) romanning ilk paydo bo‘lgan davr

**3. Ibtidoiy fikrlashning xususiyatlari...**
a) inson faqat sonlarni bilgan
b) san’at asarlarini, obrazli fikrlashni bilmagan
v) ibtidoiy fikrlash konkret, ajralmagan va obrazli
g) ibtidoiy fikr konkret emas, ajralgan va obrazli emas.

**4. Ibtidoiy fikrlash...**

a) mavhum tushunchalarga asoslangan
b) mifologik obrazlarga asoslangan
v) Gomer eposlariga asoslangan
g) ibtidoiy fikrlash degan tushuncha yo‘q

**5. Poetik metafora...**
a) mifologik fikrlashdan kelib chiqadi
b) individual fikrlashdan kelib chiqadi
v) boshqa xalqlar badiiy tafakkuri ta’siridan kelib chiqadi
g) o‘xshatishdan kelib chiqadi

**6. Ibtidoiy fikrlash bosqichida tashqi olam...**
a) so‘z ko‘rinishida tasavvur qilingan
b) inson ko‘rinishida tasavvur qilingan
v) hayvonot olami ko‘rinishida tasavvur qilingan
g) tabiiy jismlar ko‘rinishida tasavvur qilingan

**7. Ilk obraz...**
a) individual badiiy tafakkur shakli
b) inson bilan tabiat o‘rtasidagi aloqalar shakli
v) inson va samoviy jismlar o‘rtasidagi munosabatlar shakli
g) mifologik tasavvur shakli

**8. Ibtidoiy inson olamni...**
a) totemlar sifatida tasavvur qilgan
b) fetishlar sifatida qabul qilgan
v) samoviy jismlar sifatida qabul qilgan
g) hayvonot olamidan iborat deb bilgan

**9. Mif nima?**
a) janr
b) bilish jarayonining bevosita shakli
v) obraz
g) bir necha obrazni yaxlit tasavvur qilish

**10. Qadimgi miflar – bu …**
a) totemistik miflardir
b) kalendar miflardir
v) qahramonlik miflaridir
g) kosmogonik miflardir

**11. Totemizm...**
a) mavhum tushunchalarni paydo qiladi
b) konkret tushunchalarni paydo qiladi
v) metaforani shakllantiradi
g) obrazni paydo qiladi
d) YUrtda tinchlik, totuvlikni ta’minlaydi.

**12. A.N.Veselovskiyning qarashicha, qaysi biri qadimiy?**
a) mif
b) ertak
v) epos
g) drama
13. **Tarixiy poetikaning quyidagi metodlaridan qaysi birini O.M.Freydenberg ishlab chiqqan?**
a) tarixiy
b) qiyosiy-tarixiy
v) genetik
g) tarixiy-tipologik

**14. Sinkretizm davridagi "daraxt" so'zi...**
a) buyum va so'zdan iborat
b) so'z bor, buyum hali mavjud emas
v) so'z va buyum ajralmagan
g) uchalasi ham to'g'ri

**15. Ko'p a'zoli parallelizm...**
a) ikki a'zoli parallelizmdan kelib chiqqan
b) inkor parallelizmdan kelib chiqqan
v) bir a'zoli parallelizmdan kelib chiqqan
g) ramzlardan kelib chiqqan

**16. Sinkretizm davridagi obraz...**
a) arxaik tushunchalardan o'sib chiqdi
b) arxetip shakllardan kelib chiqdi
v) ko'chimlardan kelib chiqdi
g) bu davrda hali obraz shakllanmagan edi.

**17. "Syujet motivlardan tashkil topib qolmay, ko'p hollarda..."**
a) motivni yaratadi
b) kompozitsiyani hosil qiladi
v) asarni shakllantiradi
g) motivlar tomonidan aniqlanadi

**18. Arxetip syujet sxemalari...**
a) mifologik syujet sxemalaridir
b) epos syujeti sxemalaridir
v) lirik janrlar sxemalaridir
g) bunday syujet sxemalari bo'lmagan

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

ORALIQ NAZORAT

**1 variant**

1. Sharq va Evropa tarixiy poetikasini o‘rganuvchi manbalar (“Badoyi us –sanoyi’”, “al Mo‘‘jam”, A.N.Veselovskiy)
2. Qadimgi turkiy yodgorliklar poetikasi masalalari
3. Ramziy obrazlar va mif munosabatlari

**2 variant**

1. Ilk turkiy badiiy doston poetikasi
2. Syujetlar poetikasi
3. Janrlar poetikasi.

**3 variant**

1. Janrlar sinkretizmi haqida ma’lumot
2. Ilmi adabning shakllanishi
3. “Poetik o‘zlashtirish” va uning tarixiy poetikada o‘rni.

YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

**1 variant**

1. Ilmi adabning shakllanishi va tarkibi
2. Adabiy janrlarning tarixiy kategoriyaga mansubligi
3. Epik asarlar tarkibidagi mifologik unsurlar

**2 variant**

1. Qadimgi turkiy yodgorliklar va “Avesto”dagi mifologik tasavvurlar uyg‘unligi
2. Ilk mifik tafakkurning xususiyatlari, ibtidoiy inson va tashqi olamning o‘xshashligi
3. Mifologik nazariya va bu nazariyaning vakillari: Grimm, Kun, Maks Myuller

**3 variant**

1. SHe’r, epos, drama va ularning ilk badiiy jarayondagi o‘rni (A.N.Veselovskiy, E.M.Meletinskiy)
2. Obraz genezisi va uning kelib chiqish shakllari masalalari
3. Mumtoz tarixiy poetika shakllangan davr va uning asoschilari

## MUMTOZ TARIXIY POETIKA

fanidan ma'ruza matni

1-mavzu

### Adabiyotshunoslikka oid fanlar tizimida tarixiy poetikaning mohiyati va o'rni. (nazariy poetika, dinamik poetika, struktural poetika va b.)

**1.Reja:**

1.Mumtoz tarixiy poetika tushunchasi

2. Mumtoz tarixiy poetika fanining predmeti

3. Mumtoz tarixiy poetika fanining vazifalari

Poetika qadimdan o'rganilib kelinayotgan soha bo'lib, adabiyotshunoslikning mazmuni va shaklini tashkil qiladi. Poetika qadimdan beri olimlar va ijodkorlarning diqqatini jalb qilib keladi. Bu tabiiy, albatta. Badiiy ijod, adabiyotning taraqqiyoti nazariy yoritishni va umumlashtirishni taqozo qiladi. Ko'pincha umumlashtirishlarning natijasi katta ahamiyatga ega bo'lgan edi. SHu munosabat bilan Aristotelning "Poetika" asarini eslash o'rinlidir. Uning mazkur asaridagi umumlashtirish katta mohiyat kasb etgani uchun ham bugungacha unga murojaat etamiz.

Poetika uzoq vaqt tavsifiy va me'yoriy xarakter kasb etib keldi. X1X asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarixiy poetika sohasida qilingan ishlar mazmun tomondan keskin o'zgardi. Ayniqsa, A.N.Veselovskiyning "Tarixiy poetika" ("Istoricheskaya poetika") asari tarixiy poetikani fan sifatida shakllantirishga turtki berdi.

X1X asrda adabiyotning tarixiy tadqiqotlari yo'nalishida ko'p ishlar amalga oshirildi, badiiy tasvir vositalariga tarixiy nuqtai nazardan yondashuv, tur va janrlarga oid olib borilgan tadqiqotlar va ularning rivojiga batafsil ta'rif berilgin ishlar tarixiy poetikaga fan sifatida asos yaratib berdi. Tarixiy poetikaga oid ko'plab ishlar Rossiya, Polsha, Fransiya, Germaniya kaba mamlakatlarda yuzaga keldi va davom etmoqda. Jumladan, Rossiyada tarixiy poetikani fan sifatida shakllantirgan olim A.N.Veselovskiydir. Uning izlanishlari va erishgan yutuqlari adabiyotshunoslikda alohida bosqichni tashkil etadi. SHu bilan birga ta'kidlash kerakki, A.N.Veselovskiy mo'ljallagan niyatini – adabiy hodisalarning keng doirasini qamrab oladigan yagona umumiy poetikani yaratishga ulgurmadi. A. N. Veselovskiyning "Tarixiy poetika" asarida tarixiy-metodologik tamoyillarda ayrim etishmovchiliklar bo'ldi. Jumladan, turli poetik turlar va shakllarni ajratib olib talqin qilishda, badiiy tasvir vositalarini yoritishda ma'lum noizchillikda ko'rinadi. Ammo shunga qaramay, u tarixiy poetikaning tamal toshini yaratib berdi. U tarixiy poetikaning o'rganish ob'ekti sifatida uslub, poetik til, adabiy syujetlarni o'rganishni birinchi o'ringa chiqardi, so'ngra adabiy turlarning "tarixiy izchilligi" tadqiq etilishi lozimligini uqtirgan edi. V.M.Jirmunskiyning "Poetika – she'riyatni san'at sifatida o'rganadigan fandir"[1] deb aytganda, tarixiy poetikaning o'rganish ob'ektini aniqlab, A.N.Veselovskiyga yaqinlashgan edi. Ayniqsa, SHarq mumtoz poetikasida Abu Nasr Forobiyning

---

[1] Жирмунский В.М. Историческая поэтика А.Н.Веселовского. – "Веселовский А.Н. Историческая поэтика" (Москва, 1940) китобида, 9-10- бетлар; Горский И.К. Александр Веселовский и современность, Москва, 1975.

she'riyat va uning shakllanishi, arab va yunon she'riyatidagi qonuniyatlar va ularning har biridagi o'ziga xosliklar, she'r insoniyatni taajjubga solish va ijtimoiy maqsadlar uchun yozilishi to'g'risidagi fikrlari, nazariy qarashlari SHarq mumtoz tarixiy poetikasining ob'ektini ifoda etadi.

Tarixiy poetika nazariy poetika bilan zich aloqadadir. *Nazariy poetika badiiy asarning, umuman olganda, adabiyotning ishoraviy (semiotik), estetik va kommunikativ tabiati muammolarini o'z ichiga olib, bu muammolarni sinxron nuqtai nazardan tahlil qiladi.* Hatto adabiyot nazariyasining asosini aynan poetika tashkil qiladi, degan fikrlar o'tgan asrning 20-yillarida paydo bo'lgan edi.[2] Xuddi shu davrda M.M.Baxtin nazariy poetikaning vazifasi va ob'ektiga "badiiy asarni shu holicha ajratib ko'rsatish, uning tuzilishi manzarasini berish, badiiy asarning elementlarini va bu elementlarning vazifalarini aniqlashdir", deb ta'rif beradi. SHuningdek, M.Baxtin bu vazifalarni badiiy asarning estetik tabiati haqidagi savolga javob bermasdan hal qilib bo'lmasligini ta'kidlaydi.[3] Bular nazariy poetikaning o'rganish ob'ektiga kiradigan vazifalardan bir qismidir.

"Adabiyot nazariyasi" ("Teoriya literaturы")ning muallifi V.E.Xalizev ham nazariy poetikani adabiyot nazariyasi bilan bir deb qaraydi: "Adabiyot nazariyasi...turli aspektlar va bo'limlardan iborat. Uning markaziy bo'g'ini – *umumiy poetika* bo'lib, *nazariy poetika* deb ham yuritiladi... (ta'kid bizniki – D.S.)"[4]

*Tarixiy poetika* badiiy asar tarkibiy qismlarining va ularning vazifalari o'zgarishini qamrab olib, diaxron nuqtai nazardan tahlil qiladi, bunday o'zgarishlar yirik madaniy davrlar qamrovida kechadi.

YUqoridagi iqtiboslar va qarashlar majmuini quyidagicha ifodalasak, to'g'ri bo'ladi: *nazariy poetika* adabiyotshunoslik kategoriyalari tizimini ishlab chiqadi va ularning mantiqiy tahlilini beradi. *Tarixiy poetika* esa adabiyotshunoslik kategoriyalari tizimining kelib chiqishi va taraqqiyotini o'rganadi. SHu bois nazariy poetikada sinxron, tarixiy poetikada daixron nuqtai nazar asosiy o'rin tutadi.

Adabiyotshunoslikni nazariy va tarixiy poetikaga bo'lib o'rganish metodologik xarakter ifodalashidan ko'ra, texnik xarakterga ega deb qaraydiganlar ham bor. Bu qarash tarafdorlarining fikricha, "nazariy poetika tarixiy bo'lishi kerak", poetikaning har bir ta'rifi "aniqlanadigan shakllar butun taraqqiyoti davomida o'xshash"[5] bo'lishi lozim.

Nazariy, tarixiy, me'yoriy va boshqa poetika turlari haqidagi bahs munozaralar hali davom etadi. CHunki A.Veselovskiy boshlab bergan tarixiy poetika bo'yicha tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillariga qadar to'xtab qoldi. XX asrning ikkinchi yarmidan keyin Rossiyada ham, Evropada ham tarixiy poetikaga qiziqish kuchaydi. V.V.Vinogradov, D.S.Lixachev, E.M. Meletinskiy, S.Averinsev, M.Gasparov, O.Freydenberg, M.Steblin-Kamenskiy, M. Polyakov va boshqa bir qator yirik olimlarning tarixiy poetika bo'yicha olib borgan tadqiqotlari bu sohaning rivoj

---

[2] Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория литературы. В двух томах. Том 1, Москва.ACADEMA. 2004, С.9.

[3] Бахтин М.М. Проблемы содержания, материала и формы в словесном художественном творчестве. //ВЛЭ. Москва, 1975, С. 9.

[4] Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва, 2002, С.8.

[5] Медведев П.Н. (Бахтин М.М.). Формальный метод в литературоведении. – Москва, 1993, С.38.

topishiga katta xizmat qildi. SHuni har doim nazarda tutish kerakki, Evropada olib borilgan poetikaga oid ko‘p ishlar sturkturalizm g‘oyalari ta’siri ostida paydo bo‘ldi. Bu tadqiqotlar tarixiylik tamoyiliga nafaqat begona, balki bu tamoyilga qarama-qarshi qo‘yildi.

Tarixiy poetika adabiyot tarixi bilan zich bog‘lanib, o‘z o‘rganish ob’ektiga ega bo‘lgan nazariy kurs hisoblanadi. Hozirgi adabiyotshunoslikda mavjud muammoga turli yondashuvlar bu fanning aniq definitsiyasini chegaralashda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. 1986 yili Tarixiy poetika: o‘rganish yakunlari va istiqbollari” (“Istoricheskaya poetika. Itogi i perspektivы izucheniya”) to‘plamida P.A.Grinser va M.L.Gasparovning maqolalari bilan M.M. Girshman maqolasi o‘rtasida tarixiy poetikaning predmetini va o‘rganish ob’ektini belgilash borasida bahslar bo‘lib o‘tdi. Mazkur to‘plamdan joy olgan P.A.Grinserning maqolasi “Literatura drevnosti i srednevekovya v sisteme istoricheskoy poetiki” va M.L.Gasparovning maqolasi “Istoricheskaya poetika i sravnitelnoe stixovedenie” deb nomlanadi. Jumladan, P.A.Grinser tarixiy poetikaning o‘rganish ob’ekti va predmetiga quyidagicha ta’rif beradi: “Agar tarixiy poetikaning predmeti u yoki bu darajada ishlab chiqilgan deb hisoblanadigan va uning predmeti poetik tamoyillar, usullar va shakllarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyotini o‘z ichiga oladigan bo‘lsa, bu qadar keng muammoni o‘rganishning aniq yo‘llari hali jiddiy oydinlashtirishni talab qiladi. YAnada tabiiy yo‘l – poetologik kategoriyalar (obraz, uslub, janr, metod va b.) ni diaxronik (ya’ni tarixiy izchillik nuqtai nazaridan – D.S.) tahlil etish – bu kategoriyalarni o‘z ierarxiya va vazifalari bo‘yicha o‘zgarmas hodisa sifatida talqin etish xavfini tug‘diradi. Qolaversa, poetik kategoriyalar, shubhasiz ko‘chib yuradi. Hatto uzoq tarixiy istiqbolda ular o‘z dolzarbligini saqlaydi, davrdan davrga va adabiyotgan adabiyotga o‘tganda ham, ular ko‘pincha o‘z qiyofasini va mazmunini o‘zgartiradi, yangi aloqalar va munosabatlarga kirishadi, har safar alohida va bir-biridan farq qiladigan tizim yuzaga keladi. Har bir bunday tizimning xarakteri davrning badiiy tafakkuri, o‘z navbatida, davrning adabiy aqidalarida va uning poetikasida yuzaga chiqqan. Agar poetik nazariya bilan poetik amaliyot o‘rtasida ma’lum uzilish mavjud bo‘lsa, bu uzilish u yoki bu madaniy an’analar orqali bir necha asr, ba’zan ming yillar oralig‘ida ajralib turadigan zamonaviy tadqiqotlar bilan Grinser tarixiy poetikaning predmeti sifatida SHarq mumtoz adabiyotining tajribasidan o‘rganishni, ayniqsa, SHarq adabiyotiga yaqin bo‘lgan Evropa antik adabiyoti va o‘rta asr adabiyoti bilan tipologik jihatdan qiyoslab o‘rganishni taklif qiladi (72 bet). Bu fikr ancha jonli va ma’lum bir nazariy dalillarga tayangani bilan o‘zini oqlaydi. Tarixiy poetikaning predmetini u yoki bu darajada qat’iylashgan deb qarash mumkin. Tarixiy poetika poetik tamoyillar, usullar, shakllar va janrlarning kelib chiqishi hamda ularning taraqqiyoti (evolyusiyasi) bilan ish ko‘radi.

Grinserning mulohazalari ancha jonli, ayni paytda ma’lum manbalarga tayangani bilan diqqatga sazovor. SHarq mumtoz adabiyoti degan tushuncha ostida Grinser, birinchi navbatda, sanskrit, arab adabiyotini nazarda tutadi. Zotan yozma adabiyotning, yaratilgan davri qadimiyligi e’tiborga olinsa, Grinser tayangan manbalar tamomila o‘zini oqlaydi. Jumladan, asli sanskrit tilida yaratilgan “Oltun yorug‘” asarining tarkibi

va janr husUsiyatlariga va janrlar poetikasiga e’tibor bersak, masala ma’lum darajada oydinlashadi.

2-mavzu

## Sinkretizm davri poetikasi

Reja:

Ilk yozma adabiyotda tarixiylik tamoyillari

Tarixiy poetika bilan nazariy poetikaning o‘rganish ob’ekti boshqa- boshqadir. Poetika bo‘yicha yirik tadqiqotlar olib borgan A.N.Veselovskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy kabi olimlarning fikr-qarashlari bo‘yicha har ikki sohaning o‘rganish ob’ektini quyidagicha ifodalash mumkin:

***Umumiy*** yoki ***nazariy poetika*** badiiy asarning tarkibi, shakllarini o‘rganishga e’tibor qaratadi.

***Tarixiy poetika*** turli xalqlarning va millatlarning badiiy ijodiga, adabiy yo‘nalishlar va janrlarga e’tibor qaratib, voqelikni badiiy jihatdan amalga oshirish usullari, yo‘llarining taraqqiyotini tadqiq etadi, bularni keng miqyosda o‘rganadi.

Tarixiy poetika va uning o‘rganish predmeti va ob’ekti haqidagi qarashlar, nazariyalar, munozaralar, shubhasiz, ma’lum bir maqsadlarni amalga oshirishga undaydi. Bir so‘z bilan aytganda, tarixiy poetikaning mazmun-mundarijasi, predmetini aniqlash birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Ayni shu maqsadda tarixiy poetikaning mundarijasi, ob’ekti quyidagicha bo‘lishi lozim:

1. Umumiy tarixiy poetikani yaratish.
2. Milliy adabiyotlar (bugungi kunda qardosh xalqlar yoki turkiy xalqlar adabiyoti – D.S.) poetikasini yaratish.
3. Mashhur ijodkorlar asarlari poetikasini, bu ijodkorlarning milliy va jahon adabiyoti poetikasiga qo‘shgan hissasini tadqiq etish.
4. Badiiy umumlashtirishning alohida ko‘rinishlari va vositalari taraqqiyoti, shuningdek, poetika sohasida alohida kashfiyotlarning, masalan, psixologik tahlilning, badiiy adabiyotdagi estetik tafakkurning voqelikni tasvirlashdagi alohida o‘ziga xosligini o‘rganish.[6]

Tarixiy poetika mundarijasining u yoki bu jihatlari A.N.Veselovskiy, A.A.Potebnya kabi olimlarning ishlarida o‘rganilgan. Tarixiy poetika o‘z nomi bilan badiiy ijodning ma’lum bir tarixiy jarayonda, ma’lum bilan madaniy davrda o‘zgarishlarga uchrashi va bu o‘zgarishlarning estetik mohiyatini tadqiq etishdir. Tarixiy poetikani nazariy poetikadan tamomila ajratib olib o‘rganib bo‘lmaydi. Til tarixi bizga o‘xshash hodisani ayon qiladi: yangi tilga biz asos solmaymiz, chaqaloq tug‘ilgandan boshlab tilni tayyor holda, o‘zgarishsiz oladi. Faqat taraqqiyot, ma’lum bir madaniy davrlar, boshqa tillarning ta’siri til tarixiga ta’sirini o‘tkazishi mumkin. So‘zning dastlabki shakli bilinmas holga kelib qolmaydi, agar shu jarayon yuz bersa ham. asta-sekinlik bilan, bir necha avlodlar davomida yuz beradi. Tarixiy poetikani ham aynan til tarixi taraqqiyotiga qiyoslash mumkin: tarixiy poetikaning o‘rganish ob’ektlaridan bo‘lgan poetik formulalar, barqaror motivlar, ko‘chib yuruvchi syujetlar bir tarixiy davrdan

---

[6] Бу ҳақда қаранг: Храпченко М.Б. Историческая поэтика: основные направления исследований. – “Историческая поэтика. Итоги и перспективы изучения” тўпламида, Москва, “Наука”, 1986, 15-бет.

boshqasiga ko‘chib o‘tadi, o‘zgarish qisman bo‘lishi mumkin, ammo o‘zak mohiyati saqlanadi. Uchinchi avlod ikkinchisidan o‘sha holatda aynan yoki qisman o‘zgarishlar bilan oladi va h. Xullas, til tarixida yuz bergan jarayon singari, eski kombinatsiyalar yangisiga o‘rin bera boradi. Bu esa hayotni yangicha tushunish, o‘tmishga qaraganda yangi deb qaralayotgan davrning olg‘a ketishi, so‘z, poetik formulalarning boyishi, syujetlarning mazmuni takomillashuvi bilan bog‘liqdir. Dalil sifatida olamning yaratilishi haqidagi mifga murojaat qilaylik. Mazkur mif dunyo xalqlarining hammasida bor: Musoning “Ibtido” kitobida ham, “Avesto”da ham, qadimgi turkiy qavmlarda ham, yunonlarda ham, shumerlarda ham bor. Obrazlar va ayrim detallardagi farqlarni (Masalan, “Avesto”da er yuzi gunohga botgani uchun jamiki insoniyatni va tirik jonzotlarni yo‘q qilib tashlash uchun Xo‘rmuzd qahraton qish yuboradi; Musoning “Ibtido” kitobida esa YAhve, ya’ni Xudo To‘fon yuboradi va h.) hisobga olmaganda, syujet deyarli bir. Ammo olamni gunohlardan poklash uchun Xudo tomonidan gunohkorlarga yuborilgan jazo, er yuzida qaytadan hayot davom etishi uchun Xudoning afsona qahramoniga bergan ko‘rsatmasi – har bir jonzot, shuningdek, insonning ham, juftidan, o‘simliklarning hamma navlaridan saqlab qolish uchun bergan amri deyarli bir hil.

Bu syujet o‘rtasidagi genetik aloqalar to‘g‘risida so‘z yuritish, ularning hammasini bir manbadan izlash, bizningcha, noo‘rin bo‘lardi. Bu singari bir mazmundagi syujetlarning bir qator xalqlarda paydo bo‘lishiga yana bir sabab – madaniy muhit, badiiy tafakkurning ibtidosi hamma xalqlarga bir xil kechishi hodisasi bor ekanini ta’kidlash o‘rinlidir. Badiiy tafakkurning ilk davrdagi o‘xshashligi haqida so‘z yuritish ilmiy tamoyilga mos keladi.

Umuman olganda, tarixiy poetikaning asosiy yo‘nalishlari va ob’ekti –ma’lum bir davr adabiyotining tarixiy poetikasi (masalan, qadimgi davrlar yoki ilk o‘rta asrlar davri adabiyoti poetikasi), qardosh va jahon adabiyoti mumtoz vakillarining ijodi tarixiy poetikasi, milliy adabiyot tarixiy poetikasidir. Bu kursning vazifasi badiiy shakllar, janrlar, syujetning tarixini, taraqqiyotini, shakliy va mazmunan o‘zgarishlarini o‘z ichiga olib, bu o‘zgarishlarning sabablarini, adabiy jarayonga madaniy va tarixiy jarayonning ta’sirini o‘rganadi.

Tarixiy poetika bilan nazariy poetikaning o‘rganish ob’ekti boshqa- boshqadir. Poetika bo‘yicha yirik tadqiqotlar olib borgan A.N.Veselovskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy kabi olimlarning fikr-qarashlari bo‘yicha har ikki sohaning o‘rganish ob’ektini quyidagicha ifodalash mumkin:

***Umumiy*** yoki ***nazariy poetika*** badiiy asarning tarkibi, shakllarini o‘rganishga e’tibor qaratadi.

***Tarixiy poetika*** turli xalqlarning va millatlarning badiiy ijodiga, adabiy yo‘nalishlar va janrlarga e’tibor qaratib, voqelikni badiiy jihatdan amalga oshirish usullari, yo‘llarining taraqqiyotini tadqiq etadi, bularni keng miqyosda o‘rganadi.

Tarixiy poetika va uning o‘rganish predmeti va ob’ekti haqidagi qarashlar, nazariyalar, munozaralar, shubhasiz, ma’lum bir maqsadlarni amalga oshirishga undaydi. Bir so‘z bilan aytganda, tarixiy poetikaning mazmun-mundarijasi, predmetini aniqlash birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Ayni shu maqsadda tarixiy poetikaning mundarijasi, ob’ekti quyidagicha bo‘lishi lozim:

5. Umumiy tarixiy poetikani yaratish.
6. Milliy adabiyotlar (bugungi kunda qardosh xalqlar yoki turkiy xalqlar adabiyoti – D.S.) poetikasini yaratish.
7. Mashhur ijodkorlar asarlari poetikasini, bu ijodkorlarning milliy va jahon adabiyoti poetikasiga qo‘shgan hissasini tadqiq etish.
8. Badiiy umumlashtirishning alohida ko‘rinishlari va vositalari taraqqiyoti, shuningdek, poetika sohasida alohida kashfiyotlarning, masalan, psixologik tahlilning, badiiy adabiyotdagi estetik tafakkurning voqelikni tasvirlashdagi alohida o‘ziga xosligini o‘rganish.[7]

Tarixiy poetika mundarijasining u yoki bu jihatlari A.N.Veselovskiy, A.A.Potebnya kabi olimlarning ishlarida o‘rganilgan. Tarixiy poetika o‘z nomi bilan badiiy ijodning ma’lum bir tarixiy jarayonda, ma’lum bilan madaniy davrda o‘zgarishlarga uchrashi va bu o‘zgarishlarning estetik mohiyatini tadqiq etishdir. Tarixiy poetikani nazariy poetikadan tamomila ajratib olib o‘rganib bo‘lmaydi. Til tarixi bizga o‘xshash hodisani ayon qiladi: yangi tilga biz asos solmaymiz, chaqaloq tug‘ilgandan boshlab tilni tayyor holda, o‘zgarishsiz oladi. Faqat taraqqiyot, ma’lum bir madaniy davrlar, boshqa tillarning ta’siri til tarixiga ta’sirini o‘tkazishi mumkin. So‘zning dastlabki shakli bilinmas holga kelib qolmaydi, agar shu jarayon yuz bersa ham. asta-sekinlik bilan, bir necha avlodlar davomida yuz beradi. Tarixiy poetikani ham aynan til tarixi taraqqiyotiga qiyoslash mumkin: tarixiy poetikaning o‘rganish ob’ektlaridan bo‘lgan poetik formulalar, barqaror motivlar, ko‘chib yuruvchi syujetlar bir tarixiy davrdan boshqasiga ko‘chib o‘tadi, o‘zgarish qisman bo‘lishi mumkin, ammo o‘zak mohiyati saqlanadi. Uchinchi avlod ikkinchisidan o‘sha holatda aynan yoki qisman o‘zgarishlar bilan oladi va h. Xullas, til tarixida yuz bergan jarayon singari, eski kombinatsiyalar yangisiga o‘rin bera boradi. Bu esa hayotni yangicha tushunish, o‘tmishga qaraganda yangi deb qaralayotgan davrning olg‘a ketishi, so‘z, poetik formulalarning boyishi, syujetlarning mazmuni takomillashuvi bilan bog‘liqdir. Dalil sifatida olamning yaratilishi haqidagi mifga murojaat qilaylik. Mazkur mif dunyo xalqlarining hammasida bor: Musoning “Ibtido” kitobida ham, “Avesto”da ham, qadimgi turkiy qavmlarda ham, yunonlarda ham, shumerlarda ham bor. Obrazlar va ayrim detallardagi farqlarni (Masalan, “Avesto”da er yuzi gunohga botgani uchun jamiki insoniyatni va tirik jonzotlarni yo‘q qilib tashlash uchun Xo‘rmuzd qahraton qish yuboradi; Musoning “Ibtido” kitobida esa YAhve, ya’ni Xudo To‘fon yuboradi va h.) hisobga olmaganda, syujet deyarli bir. Ammo olamni gunohlardan poklash uchun Xudo tomonidan gunohkorlarga yuborilgan jazo, er yuzida qaytadan hayot davom etishi uchun Xudoning afsona qahramoniga bergan ko‘rsatmasi – har bir jonzot, shuningdek, insonning ham, juftidan, o‘simliklarning hamma navlaridan saqlab qolish uchun bergan amri deyarli bir hil.

Bu syujet o‘rtasidagi genetik aloqalar to‘g‘risida so‘z yuritish, ularning hammasini bir manbadan izlash, bizningcha, noo‘rin bo‘lardi. Bu singari bir mazmundagi syujetlarning bir qator xalqlarda paydo bo‘lishiga yana bir sabab – madaniy muhit, badiiy tafakkurning ibtidosi hamma xalqlarga bir xil kechishi hodisasi

---

[7] Бу ҳақда қаранг: Храпченко М.Б. Историческая поэтика: основные направления исследований. – “Историческая поэтика. Итоги и перспективы изучения” тўпламида, Москва, “Наука”, 1986, 15-бет.

bor ekanini ta’kidlash o‘rinlidir. Badiiy tafakkurning ilk davrdagi o‘xshashligi haqida so‘z yuritish ilmiy tamoyilga mos keladi.

Umuman olganda, tarixiy poetikaning asosiy yo‘nalishlari va ob’ekti –ma’lum bir davr adabiyotining tarixiy poetikasi (masalan, qadimgi davrlar yoki ilk o‘rta asrlar davri adabiyoti poetikasi), qardosh va jahon adabiyoti mumtoz vakillarining ijodi tarixiy poetikasi, milliy adabiyot tarixiy poetikasidir. Bu kursning vazifasi badiiy shakllar, janrlar, syujetning tarixini, taraqqiyotini, shakliy va mazmunan o‘zgarishlarini o‘z ichiga olib, bu o‘zgarishlarning sabablarini, adabiy jarayonga madaniy va tarixiy jarayonning ta’sirini o‘rganadi.

Veselovskiyning ko‘rsatishicha, tarixiy poetikaning metodi mavhum va nazariy bo‘lishi kerak emas, balki, birinchidan, *tarixiy* metodga asoslanishi lozim; ikkinchidan, *qiyosiy* metodga asoslanishi kerak. Adabiy-tarixiy tadqiqotlarda qiyosiy metodning o‘rni katta bo‘lib, estetik, falsafiy va hatto tarixiy metodning o‘rnini bosganini Veselovskiy ta’kidlaydi. Uningcha, qiyosiy metod tamomila yangi emas, balki “o‘sha tarixiy metod bo‘lib, imkon qadar to‘liq umumlashtirishga erishgan ko‘rinishda va parallel qatorlarda jadallashgan, takrorlangan[8] tarzda tushuniladi. SHuningdek, qiyosiy metodga A.N.Veselovskiy alohida e’tibor berar ekan, mifologiyaga, xalq she’riyatiga, sayyor syujetlarga ham tatbiq qilingani haqida yozadi.[9]

Xullas, yuqorida keltirilgan fikrlar, qarashlar va mulohazalardan kelib chiqqan holda, tarixiy poetikaning o‘rganish ob’ekti mifologiyaga, ma’lum bir tarixiy davrdagi adabiy manbalarga tayanadi.

3-mavzu

## Sinkretizm davrida syujet. Syujetlar poetikasi

Tarixiy poetikaning tuzilishiga oid ilk urinishlar qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslikning asoschilari tomonidan o‘rtaga tashlangan edi. V.M.Jirmunskiy, M.P.Alekseevning qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslikka oid ishlari buning dalilidir. Jumladan, V.M.Jirmunskiyning “Sravnitelnoe literaturovedenie” nomli asari buning yorqin dalilidir. Tarixiy poetikaning o‘rganish ob’ektini va predmetini yuqorida ko‘rib o‘tdik. Ammo o‘sha aytilganlar o‘zgarmas, qotib qolgan dogma degani emas, balki barcha xalqlarning qadimiy va o‘rta asrlar adabiyotini o‘rganish, tadqiq etish natijasida tarixiy poetika masalalariga yanada aniqlik kiritish, uning o‘rganish ob’ekti va predmetiga oid yangi masalalarni ko‘rib chiqish mumkin bo‘ladi.

Tarixiy poetikaning asoschisi A.N.Veselovskiy X1X asrning oxirgi choragida – tarixiy poetikaga endigina asos solingan paytda “tarixiy poetikanning predmetini ma’lum darajada qaror topgan deb hisoblash mumkin, tarixiy poetika poetik tamoyillar, usullar va shakllarning evolyusiyasi bilan ish ko‘radi” deb yozgan edi. Garchi A.N.Veslovskiy sinkretik davr materiallariga tayangan holda tarixiy poetikaning prdemetini aniqlagan bo‘lsa ham, uning yuqorida keltirilgan gaplarida

---

[8] Веселовский А.Н. Историческая поэтика, Москва, 1949, 47-бет.

[9] Веселовский А.Н. Юқоридаги асар, 47-бет.

qadimgi va o‘rta asrlardagi yozma va og‘zaki adabiyotning rivoji ham o‘z ifodasini topgan.

Poetika kategoriyalari, shubhasiz, doimo harakatda, o‘zgaruvchan. Hatto uzoq kelajakda ham ular o‘z dolzarbligini saqlaydi, ular davrdan davrga, adabiyotdan adabiyotga o‘tish jarayonida qiyofasini va mazmunini o‘zgartiradi, yangi aloqalarga va munosabatlarga kirishadi, har safargi munosabatlar orqali bir-biridan farqli alohida va maxsus tizim hosil qiladi. Bu tizimning har biri xarakteri davrning badiiy tafakkuri, o‘z navbatida davrning adabiy aqidalari, uning poetikasi orqali yuzaga chiqadi.

“Tarixiy poetika” tushunchasining mazmuni va mohiyatidagi o‘zgarishlar, adabiy jarayon taraqqiyotini tahlil qilish bevosita va bilvosita adabiyot tarixiga tayanadi. Zotan, SHarq adabiyot tarixi va uning nazariyasi bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlarni Evropa antik va o‘rta asr adabiyotiga qiyoslab o‘rganish orqali adabiyot tarixining tarixiy poetika uchun material va manba ekanini aniqlay olamiz.
SHarq adabiyoti, xususan, sanskrit adabiyoti poetikasini o‘rgangan olimlardan M. Vinternits sanskrit she’riyatiga baho berar ekan, bu she’riyatda “mazmundan ko‘ra shaklga ko‘proq urg‘u qaratilgan”ini ta’kidlaydi.[10] Sanskrit she’riyati bo‘yicha Hindistonda yirik mutaxassis S.K.De sanskrit poetikasining kamchiliklaridan bir sifatida “poetik tasavvurlarning rolini tushunmaslik oqibatida estetika darajasiga o‘sishiga xalaqit” berganini ta’kidlaydi.[11] Qadimgi arab adabiyoti poetikasida ham shunga o‘xshash holat kuzatiladi: “tasavvur va fikr ifodasi adabiyotning maqsadi deb tushunilmagan...arablar hech qachon adabiyotdagi go‘zallik tushunchasini tahlil qilish bilan shug‘ullanmaganlar, boshqacha aytganda, ular hech qachon estetikani ishlab chiqish bilan mashg‘ul bo‘lmaganlar”.[12]

Arab adabiyoti poetikasi haqida shuni aytish kerakki, o‘rta asr arab adabiyotida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi (qachon? Qaysi davrdan boshlab? Balki uyg‘onishning birinchi bosqichidan boshlangandir?). 1X – X asrlarda arab olimlari adabiyot nazariyasiga yangicha nuqtai nazardan yondashdilar. Buning natijasida arab adabiyotining o‘zak masalalari, xususan, o‘rta asr poetikasining muhim masalalariga diqqat qaratdilar. Jumladan, o‘rta asr arab filologlari “poetik o‘zlashtirish” (poeticheskoe zaimstvovanie)ga e’tibor qaratdilar va shu orqali adabiyotda shakl va mazmun uyg‘unligiga e’tibor bera boshladilar. Asli estetik izlanish, adabiyotni estetikaga bog‘lash ana shu “poetik o‘zlashtirish"da ham namoyoin bo‘lgan edi. Ammo arab adabiyoti tarixini tadqiq qilgan olimlar hali “poetik o‘zlashtirish”ni to‘liq baholay olmadilar.[13] “Poetik o‘zlashtirish” alohida badiiylik kategoriyasi sifatida badiiy adabiyot rivojida muhim rol o‘ynadi.

VIII-XI asr arab shoirlari va tanqidchilarining ayrimlari tamomila boshqacha fikrda bo‘ldilar. Bu davrda “poetik o‘zlashtirish” arab filolog olimlarining diqqat markazida bo‘ldi. Bu davrda “poetik o‘zlashtirish” muammolari bilan Ibn Kunos (741-823\24), Az-Zubayr ibn Boqqor (870 yil vafot etgan), Abu Diyo Bishr ibn YAhyo an-

---

1010 Winternitz M. A history of Indian literature. Calcutta, 1959, vol.III, p.1.
11 Бу ҳақда қаранг: Гринцер П.А. Литературы древности и средневековья в системе исторической поэтики. – «Историческая поэтика: итоги и перспективы» тўпламида. Москва. Наука, 1986. 73-бет.
12 Гринцер П.А. Юқоридаги мақола, ўша бет.
13 Қаранг: Куделин А.Б. Средневековская арабская поэтика. Наука: Главная редакция восточной литературы, Москва, 1983, 100-бет.

Nasibi (1X asrning ikkinchi yarmi), Ahmad Tayfur (893 yili vafot etgan), ibn Yamut (946 yildan so‘ng vafot etgan), al-Xotimiy (998 yili vafot etgan) kabi qator olimlar samarali mehnat qilganlar.

Agar tarixiy poetika nuqtai nazaridan ularning asarlarida tadqiqot ob’ekti sifatida “poetik o‘zlashtirish” qaralar ekan, bu hodisa biz ko‘p tilga oladigan motiv (arab adabiyotshunosligida *ma’no*)dir. A.N.Veselovskiy tarixiy poetikaning vazifasi “shaxsiy (indvidual demoqchi – D.S.) ijod jarayonida rivoyatlarning roli va chegaralarini aniqlashdir”[14] deb aytgan gapi ham ilk arab filologiyasidagi “poetik o‘zlashtirish”ga tegishli deb qarash mumkin. Xuddi shu ma’noda ijodkorlarning asarlarida boshqa manbalardan keltirilgan rivoyatlar, latifalar, turli qiziqarli tarixiy voqealar ham “poetik o‘zlashtirish”ning yaqqol namunasi bo‘lishi mumkin. Arab adabiyotida Ibn Qutayba (828-889) o‘zining “Ash-she’r va ash-shuaro” asarida u yoki bu shoirning “o‘zlashtirishi” haqida so‘z yuritadi. Abul-Faraj al-Isfaxoniy (897-967)ning “Kitob al-og‘oni” asarida, al Marzuboniyning “Al-Muvashshax” asarida “poetik o‘zlashtirish” sifatida turli mazmundagi xabarlar, latifalar va boshqa materiallar keltiriladi.

SHuni ta’kidlash kerakki, adabiy manbalarda keltirilgan “poetik o‘zlashtirish”ni adabiy hodisa sifatida baholash kerakmi yoki adabiy jarayonda salbiy hodisami? Bu albatta o‘z bahosini hali to‘liq olganicha yo‘q. O‘rta asr filolog olimlari ham “poetik o‘zlashtirish”ga turlicha munosabatda bo‘ldilar, har xil talqin qildilar. Bu adabiy hodisa arab tilida “sariqa” va “axz” terminlari bilan yuritiladiyu. “sariqa” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “o‘g‘irlik”, “talon-taroj qilish” demakdir. “Axz” so‘zi esa “olish”, “tortib olish” ma’nosini ifodalaydi. Birinchi termin ma’nosiga ko‘ra, yunoncha “plagiat” so‘ziga juda yaqin; yunonchada “plagiat” “odamlarni o‘g‘irlovchi”, “adabiyot o‘g‘risi” ma’nolarini ifodalaydi.

Mazkur terminlar ifodalagan lug‘aviy ma’no adabiy hodisaga nisbatan qo‘llanganda, albatta, adabiy jarayonning xususiyatlarini hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Jahon adabiyotida “poetik o‘zlashtirish” hodisasi qadimdan bor va adabiy jarayonga turtki beradigan hodisa sifatida o‘zini oqlagan. Misolni yana SHarq adabiyotida keng tarqalgan va an’anaviy ravishda avloddan avlodga, adabiyotdan adabiyotga o‘tib kelgan syujetlar, yoki ma’lum rivoyatlar, afsonalarga qaratsak kifoya. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari fanga yaxshi ma’lum. Bu - tarixiy-etnografik asar. Asar tarkibida afsonalar va rivoyatlar ma’lum bir tarixiy voqeani dalillash yoki rad qilish uchun keltiriladi. Zotan, Beruniy bu asarining yozilish sabablarini ko‘rsatadi, ammo amalga oshirish nihoyatda murakkab bo‘lganini yozadi: Ayniqsa, qadimgi xalqlar va ularning yil hisoblari haqidagi rivoyatlar chalkashib ketgani, yolg‘on afsonalar va asossiz ma’lumotlarga to‘lib-toshib ketganini ta’kidlaydi. Ayni paytda, Beruniy rivoyat va afsonalarning haqiqiylarini ajratib, saralab olish uchun imkoni boricha harakat qiladi. Beruniyning bu prinsipi ham tarixiylik va haqqoniylikka asoslanganini sezish qiyin emas. YOlg‘on va soxta rivoyatlar qadimgi SHarq xalqlarining hisoblari haqidagi aniq ilmiy xulosalarga xalaqit berishi, ayniqsa, yolg‘on xulosalarga olib kelishi haqida yozadi. Beruniyning asosiy maqsadi turli xalqlardagi yil hisobiga aniqlik kiritish, ularda ilgari tadqiqotchilar yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni

---

[14] Веселовский А.Н. Историческая поэтика, 493-бет.

tuzatish edi. Ammo “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” tarixiy-etnografik asar bo‘lgani holda, nima uchun poetik o‘zlashtirish haqida so‘z ketyapti? Bu tarixiy poetikaga zid emasmi? SHuni ta’kidlash kerakki, bu asar tarix va etnografiyaga aloqador bo‘lsa ham, Beruniy keltirgan afsonalar, rivoyatlar badiiy asarga aloqador bo‘lgani uchun, tarixiy poetika uchun material bo‘la oladi. Beruniy yil hisobi uchun rivoyat va afsonalar, hikoyatlarning nihoyatda muhim dalil ekaniga ishonadi, ularga suyanadi, ishonchsiz, shubhali rivoyatlar va afsonalarni rad qiladi. U rivoyat va afsonalarni tanlashda o‘zi tayangan asoslangan metod haqida shunday yozadi: “Men tutgan yo‘l va belgilagan usul oson emas, balki uzoq va qiyin yo‘ldir. Xabar va rivoyatlarga ko‘plab kirib qolgan yolg‘on so‘zlarning hammasi ham ravshan emas. Boshqa dalillar bo‘lmaganda ba’zilarining yolg‘onligini bilib bo‘lmasdi. Odamlar hozir ham, o‘tgan zamonlarda ham shunday tabiiy hodisalarga duch kelgan, agar o‘shanday hodisalar uzoq zamonlarda [yuz bergan deb hikoya] qilinsa, albatta biz unga ishonmas edik. Xalqlardan biriga [tegishli] xabarlar[ning hammasi]ni aniqlab bilishga inson umri kifoya qilmaydi-yu, hamma millatlar [haqidagi] xabarlarni bilishga qanday kofoya etsin?! Bu mumkin emas!”[15]

YOki SHarq og‘zaki va yozma adabiyotida keng tarqalgan YUsuf qissasi, “YUsuf va Zulayho” dostonlari, butun olam To‘foni afsonasi (SHumer adabiyotida, Musoning “Ibtido” kitobida, “Qisasi Rabg‘uziy”da, “Qisas ul- anbiyo”larda va h.) ning tarqalishi va bir xalq adabiyotidan ikkinchisiga ko‘chishi ham salbiy ma’nodagi “plagiatorlik” deb emas, balki “poetik o‘zlashtirish” deb baholanishi kerak. O‘rta asr arab filolog olimlaridan – 1X asrda yashagan filolog Abu Tammomning *sariqa* haqidagi quyidagi fikri ma’lum darajada adabiyot tarixidagi “poetik o‘zlashtirish”ga xolis berilgan baho bo‘lib tuyuladi: “Agar sariqa o‘zlashtirilayotgan ma’noga qo‘shimcha oydinlik kiritsa yoki birinchi shoirga nisbatan bunisining she’rlarida so‘zlar yanada ma’nodorlikka olib kelsa, yo sariqa sababidan uning aqliga ma’no kelib, bu ma’no o‘zidan oldingi shoirning she’ridagi ma’noni aniqlashtirsa, bunda o‘zidan oldingi shoir sababli u aniqlanishga muhtoj bo‘lmasa, shoirning sariqasi kechirarli bo‘ladi”.[16]

## 4-mavzu
## **Syujetlarni o‘rganishga oid muhim nazariyalar**

O‘zbek adabiyoti, umuman, turkiy xalqlar adabiyoti tarixida A.N.Veselovskiy ta’rif bergan tarixiy poetikaning barcha jihatlarini qamrab olgan manbalar bor. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘at it-turk” asari ana shunday manbalardan biridir.

A.N.Veselovskiy adabiyotning, xususan, she’rning asosiy masalalarini tarixiy poetika uchun manba qilib oladi. Bu bejiz emas. Zotan, badiiy tafakkur ilk bor she’rda o‘zini namoyon qilgan. A.N.Veselovskiyning she’r asosida qo‘ygan asosiy muammolari

[15] Беруний. Танланган асарлар. Том 1, Таржимон А.Расулов, Тошкент, 1968,  41- бет.
[16]Куделин А.Б. Юқоридаги асар, 104-бет.

quyidagilardir: 1. Ibtidoiy snkretizm va janrlar taraqqiyoti. 2. SHoirning holati va she’rning ijtimoiy vazifasi. 3. Poetik til taraqqiyoti. 4. Syujetlar poetikasi.

«Har qanday poetik taraqqiyot boshida, - deb yozgan edi A.N.Veselovskiy, - poetik janrlarning ibtidoiy snikretizmi yotadi. SHe’rning bunday holati epos, lirika va dramaning dastlabki yaxlitligidan ajralib chiqmagan va she’r- musiqadan, taqlidiy raqsdan ajralib chiqmagan davrga to‘g‘ri keladi. SHe’rning ilk taraqqiyot bosqichida ritmik va musiqaviy elementlar bosh o‘rin tutadi. So‘z ikkinchi o‘rinda turadi. Matn tasodifan improvizatsiya qilinadi va keyin unutiladi. Ibtidoiy she’rning mazmuni ibtidoiy jamoaning, ijtimoiy hayotning turli tomonlarini ramziy shakldа aks ettiradigan urf-odatlarni beradi». A.N.Veselovskiy lirika va dramaning kelib chiqishi uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan bahorgi urf-odatlarga e’tibor qaratadi. SHe’rning keyingi taraqqiyoti urf-odat aloqalaridan qo‘shiqning ajralib chiqishiga va poetik janrlarning differensiatsiyalashuviga olib keldi. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit-turk» asarida anna shu differensiatsiyalashuvni ko‘ramiz.

Koshg‘ariyning tug‘ilgan yili aniq emas. U «Devonu lug‘atit-turk» asarini 1068 yili yozib tugatgan. Koshg‘ariy bu asari ustida uzoq yillar ishladi. Avval yurtma-yurt kezib material to‘pladi.YUqori CHindan tortib butun Moavarounnahr, Xorazm, Farg‘ona va Buxoroga qadar cho‘zilgan keng hududni kezib chiqdi. Bu hududda yashagan urug‘lar, qabilalarning turmush tarzini, kasb korini, turar joylarini aniqladi, tillarini sinchiklab o‘rgandi. Mahmud Koshg‘ariy bu asarini o‘rganish bilan ilk bor turkiyshunoslikka asos soldi.

«Devonu lug‘atit-turk» - qomusiy asar. Bu asardan faqat tilga yoki adabiyotga oid materiallar va dalillarnigina emas, balki Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan qabilalar tarixi to‘g‘risidagi manba hamdir. Har bir qabilaning o‘sha davrdagi mavqei, tarixi to‘g‘risida ham etarli ma’lumotlar beradi. Jumladan, o‘g‘uzlar, qarluqlar kabi yirik qabilalar to‘g‘risida o‘rni-o‘rni bilan aytilgan ma’lumotlar bunga dalildir.

«Devonu lug‘atit-turk» adabiy manba sifatida ham qimmatli yodgorlikdir. Asardagi she’riy parchalar X1 asrgacha bo‘lgan adabiy hayot to‘g‘risida to‘laqonli so‘z yuritishga imkon beradi. Bu she’riy parchalar ma’lum bir so‘zning izohi uchun keltirilgan bo‘lsa-da, bu parchalar qadimgi turkiy adabiyotda, xususan, lirik va epik janrning rivoj topganidan dalolat beradi. Koshg‘ariy keltirgan mazkur she’riy parchalar turli mavzuda – mehnat, yorning ta’rif-tavsifi, turk bahodirlarining qahramonliklari, ezgulikka da’vat, vatanparvarlik va h. SHe’riy parchalarni Mahmud Koshg‘ariy xalq og‘zidan yozib olgan. Ayni paytda «Devonu lug‘atit-turk»dagi ba’zi she’riy parchalar majlum bir ijodkor qalamiga mansub ekanligini Koshg‘ariyning ishorasidan bilish mumkin. Koshg‘ariy ko‘p o‘rinlarda «shoir aytadi» iborasini ishlatadi va bir to‘rtlik keltiradi. Ular xalq orasida mashhur bo‘lganlari uchun ham Koshg‘ariy ularning ismini aytib o‘tirmagan. Ba’zi shoirlarning (masalan, CHo‘chu) aytib o‘tadi.

O.Pritsakning aytishicha, o‘z Qoraxoniylar sulolasiga mansub odam bo‘lgan. U siyosiy ta’qiblardan qochib, o‘n yilcha turkiy qavmlar yashaydigan o‘lkalarda u erdan-bu erga ko‘chib yurgan. Ana shu davrda u turkiylar haqida ko‘p material to‘plagan.Oxiri Bag‘dodda to‘xtagan. Bu davrda Bag‘dodni Saljuqiylar egallagan edi. Saljuqiylar ham turkiyzabon bo‘lgani uchun, Mahmud Koshg‘ariy o‘zi to‘plagan

materiallar saljuqiylarda qiziqish uyg‘otishini bilib, «Devonu lug‘atit-turk» asarini yozgan.

«Devon»dagi she’riy parchalar ko‘p turkologlar o‘rtasida munozaraga sabab bo‘lib kelgan. Ko‘pchilik evropalik turkologlar «Devon»da keltirilgan to‘rtliklarni dastlab turkiy xalqlarning qadimgi folkloriga mansub deb qaragan edilar. Jumladan, K. Brokkelman shunday fikrni aytgan edi. Ammo u «Devon»dagi ikkilik va to‘rtliklar unutilib ketgan ma’lum bir shoirlar ijodiga mansubligini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Uningcha, asardagi asar yozilgan davrdan ilgari mavjud bo‘lgan va islomga hech qanday aloqasi yo‘q. Brokkelman ham «Devon»dagi she’riy parchalar misralari teng bo‘g‘inli (etti bo‘g‘indan o‘n to‘rt bo‘g‘inga) qofiyalangan she’rlardir.

V.V.Bartold esa «Devonu lug‘atit»dagi she’riy parchalarga nisbatan tamomila boshqacha fikrda. Uningcha, «Devonu lug‘atit-turk»dagi she’rlar orasida xuddi «Qutadg‘u bilig» dagi singari, saroy adabiyotiga xos xususiyatlar bor. Buning isboti sifatida V.V.Bartold quyidagi to‘rtlikni keltiradi:

Turkan qatun qutinga,
Tegur mendin qo‘shug‘,
Ayg‘il sizing tabug‘chi
O‘tnur yangi tabug‘ (1, 357)

Malika (shoh) xotinga mendan maqtov, qasida (qo‘shiq) etkazgin, xodimingiz yangi xizmat bilan yo‘llanadi, deb ayt.

Mazkur to‘rtlik, garchi shaklan xalq og‘zaki ijodiga xos to‘rtlikni gavdalantirsa ham, aniq obraz (Turkon malika) mavjudligi, didaktik mazmun ifodalangani bilan individual she’riyatga mansub deb qaralsa maqsadga muvofiq bo‘ladi va V.V.Bartoldning qarashlari o‘rinli aytilgan bo‘ladi.

Ayni paytda «Devonu lug‘atit-turk»da shakl jihatidangina emas, balki mazmun tomondan «Qutadg‘u bilig»ga monand didaktik xarakterdagi parchalar ham borki, barqaror adabiy muhit, ma’lum izga tushgan ijtimoiy hayotning aks sadosini ko‘rishimiz mumkin. Namuna sifatida «Devonu lug‘atit-turk»ning 1-jildidagi to‘rtliklarni keltiramiz:

Ulug‘luq bo‘lsa sen ezgu qilin,
Bo‘lg‘il kishig beglar qatin yaxshi ulan (1,95).

Daraja yoki martaba topsang, xulqingni chiroyli qil, amirlar oldida yaxshilik etkazuvchi, xalqning ishlarini yaxshi qabul qiluvchi bo‘l.

Kelsa qali yarlig‘ bo‘lub yunchig‘ uma,
Keldur anuq bo‘lmish ashig‘ tutma uma (1, 118).

Bechora, ojiz g‘arib mehmon kelsa, hozir bo‘lgan (o‘zingda bo‘lgan) narsani mehmonga tezlik bilan taqdim qil, kechiktirib, beparvolik qilib, mehmonga malol keltirma.

Kelsa kishi etma angar o‘rtar kula,
Baqqil angar ezgulugung ag‘sin qula (1, 149).

Senga kular yuzli bir kishi kelsa, sen uning yuziga issiq kul sochma, yaxshilik qil, yoqimli qiliq bilan hurmatla.

«Devonu lug‘atit-turk»dagi she’riy parchalar yuzasidan evropalik olimlar olib bildirgan mulohazalar anchayin diqqatga sazovor. Asardagi to‘rtliklar turkiy she’riyatning qadimgi namunalaridir degan K.Brokkelmanning fikrlari P.Peloning qarashlarini shubha ostiga qo‘ydi. P.Pelo moniylik she’rlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida, qadimgi turkiy she’riyat qofiyali emas, balki alliteratsiyali she’r bo‘lgan degan xulosaga kelgan edi. Alliteratsiya, uningcha, misralar boshida keladi va she’rni bir tizimga soladi. Pelo «Devonu lug‘atit-turk»dagi to‘rtliklarning qofiyalanishini fors she’riyati ta’siri deb qaraydi. «Qutadg‘u bilig»ning she’r tuzilishiga fors she’riyatidagi qofiya o‘z izini qoldirgan va bu haqda etarli fikrlar aytilgan.[17] Moniylik oqimidagi she’rlarga e’tibor berilsa, haqiqatan, alliteratsiyaning misralar boshida qo‘llanganini kuzatish mumkin. Masalan, «Tong tangrisi» nomli madhiya alliteratsiya izchil qo‘llangan she’rning yaqqol namunasidir. SHe’rni to‘liq keltiramiz.

Tang tangri keldi,
Tang tangri o‘zi keldi,
Tang tangri keldi,
Tang tangri o‘zi keldi.

Turunglar qamug‘ baglar, qadashlar,
Tang tangrig ogalim.

Korugma kun tangri,
Siz bizni kuzating,
Korunugma ay tangri,
Siz bizni qurtgaring.

Tang tangri,
Yidlig‘, yiparlig‘,
Yarug‘lug‘, yashuqlug‘
Tang tangri
Tang tangri.

Tang tangri,
Yidlig‘, yiparlig‘,
Yarug‘lug‘, yashuqlug‘
Tang tangri
Tang tangri.[18]

Misralar boshidagi ***t, y, k, s*** undoshlarining takrori alliteratsiyali she’ri yuzaga chiqargan. Bu she’rda “Devonu lug‘atit-turk”dagi singari qofiya qo‘llanmagani uchun

---

17 Тўхлиев Б. Юсуф хос Ҳожиб ва туркий қофия тараққиёти.Тошкент, 1994.

18 Resid Rahmati Arat. Eski turk siiri: 1991, 8–35-s.

hijolar tengligi yo‘q.  Alliteratsiyali she’rda hijolar tengligi bo‘lishi shart emas. Ritm va ohang alliteratsiya bilan birga takror orqali ham yuzaga kelaveradi.

Moniylik she’rlarini kuzatsak, alliteratsiya usuli she’riyatning muhim xususiyati bo‘lganini ko‘ramiz. “Bizing Tangrimiz adgusi radni tiyur”, Aprinchur tiginning boshlanishi o‘chib ketgan she’ri, “O‘lim tasviri”, “Moniyga atalgan madhiya” alliteratsiyali she’r qadimgi turkiy she’riyatning tuzilishida asosiy omil ekanini ko‘rsatadi.

“Devon”dagi she’rlar haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: 1. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asaridagi she’rlar ham xalq og‘zaki ijodiga, ham individual she’riyatga mansub. 2. Matnlar islomdan oldingi davrga mansub, ammo musulmonlikning ta’siri ham seziladi.
Bunday talqindan so‘ng yana quyidagicha savol kelib chiqadi: agar “Devon”dagi she’rlar ham xalq og‘zaki ijodiga, ham individual she’riyatga mansub bo‘lsa, qaysi tamoyillarga ko‘ra ularni farqlash mumkin? “Devon”dagi hamma she’rlar sillabik she’r deb qabul qilingan, ya’ni folklor va adabiy parchalar metrikasi bir xil. Hamma she’rlar qofiyalangan. Demak, she’rning tovush tuzilishi folklor va individual she’riyatni farqlash uchun zaruriy edement bo‘lib xizmat qilmaydi. Nihoyat, matnlar mazmunida ham (Turkon malikaga bag‘ishlangan to‘rtlikdan tashqari) folklorga oid she’rlar bilan individual she’riyatni farqlashga yordam beradigan hech narsa yo‘q.[19]

Agar “Devon” dagi she’rlar islomgacha bo‘lgan davrga mansub bo‘lsa va bora-bora musulmonlik ta’sirida qolgan bo‘lsa, bu she’riy parchalarning tuzilishidagi qaysi elementlar islomgacha bo‘lgan davr elementlariyu qaysi elementlar islom ta’sirida deb qaraladi? Musulmonlik ta’siri nimada o‘z ifodasini topgan? Bombachining fikricha, islomgacha bo‘lgan she’r turi izosillabizm (teng hijolilik) tamoyili buzilgan o‘rinlardagi baytlarda o‘z aksini topgan. Bombachi, qadimgi turkiy she’riyat uchun misralardagi bo‘g‘inlar miqdori turlichaligi xarakterlidir, deb asoslashga harakat qiladi. Masnaviy shaklidagi qofiyalanishga ega bo‘lgan ikkiliklar arab-fors poetikasning ta’siri sinab ko‘rilgan usuldir deb qarash mumkin, deydi.

Bombachining bu fikrini haqiqatdan uzoq deb bo‘lmaydi. Zotan, Koshg‘ariy o‘z asarida (1 jild, 151-betda Ash’a degan shoirning arabcha bir baytini keltiradi) arabcha baytlarni ham keltiradiki, bundan Mahmud Koshg‘ariy arab-fors she’riyati poetikasidan foydalangani haqiqatga yaqin, deb aytish mumkin. Quyida arab-fors adabiyotiga oid masnaviy shaklidagi baytlardan keltiramiz.

Alg‘il o‘gut mendin, o‘g‘ul erdam tila,
Bo‘yda ulug‘ bilga bo‘lub, bilging ula (1, 85).

O‘g‘il, mendan o‘git sotib ol, fazilat tila,
El-yurt orasida ulug‘ olim bo‘l, ilmingni tarqat.

Qishqa etin kelsa, qali qutlug‘ yay,
Tun, kun kecha alqinur o‘zlak bila ay (1, 111)

[19] Стеблева И.В. Разитие тюркских поэтических форм в X1 веке. Главная редакция восточной литературы, Москва, 1971, 8-бет.

Barakali yoz kelsa, qishga tayyorlan, chunki kecha va kunduzning o‘tishi bilan oy va zamon kechadi (yoz o‘tib qio‘ keladi).

Bardi eran qo‘nuq, ko‘rub qutqa saqar,
Qali yavuz uyuq, ko‘rub evni yiqar (1, 112)

Mehmonni davlat va barakatdan sanaydiganlar o‘tib ketdi, sahrolarda ko‘ringan qoralarni va manzillarni belgilash uchun qo‘yilgan toshlarni ko‘rib, odam deb o‘ylab, u kelib qolmasin deb, chodirni buzguvchilar qoldi.

O‘truk o‘tun ag‘rilayu yuzga baqar,
Elkin tashub bermish ashig‘ bashqa qaqar (1, 127)

Erlarning hiylakori, pastkashi, baxili qoldi. Mehmon uning oldida o‘g‘ridek ko‘rinadi, musofir mehmonga eydigan narsasini minnat qilib, bergan narsasi bilan mehmonning boshiga uradi.

SHuni ta’kidlash kerakki, Koshg‘ariy «shoir aytadi» iborasi ostida keltirgan to‘rtliklar shaklan xalq og‘zaki ijodiga tegishli. Ammo adabiy jarayonning qadimgi va ilk klassik davrdagi holati folklor va yozma adabiyot tamoyillarining bir-biriga uyg‘unligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, urxun yodnomalari bilan «Devonu lug‘atit - turk» qislanganda, badiiy fikrlashning eng umumiy tamoyillari urxun yodnomalarida ham, «Devon»da bir ekanligi ayonlashadi.[20]

«Devonu lug‘atit-turk» va enisey yodnomalaridagi jang lavhalari bir biriga motiv va syujet jihatidan uyg‘un keladiki, «Devon»dagi to‘rtliklar «islomdan oldingi O‘rta Osiyo xalqlarining eposi»[21]ga aloqador. Fitratning ko‘rsatishicha, «Devon»dagi to‘rtliklar milodiy VII-VII asrlarga oid adabiy manbalardir. Qadimgi turkiy adabi yot - urxun-enisey yodnomalaridagi an’ana Qoraxoniylar davri adabiyotiga uzluksiz o‘tgani haqidagi fikrlar shunday parchalarda o‘z tasdig‘ini topadi. Jumladan, A.Bombachi qadimgi turkiy adabiyot bilan «Qutadg‘u bilig» o‘rtasidagi aloqani tarixiy sharoit bilan bog‘laydi: «Turkiylar uchun islomgacha bo‘lgan davrdan islomga o‘tish birdaniga bo‘lmagan edi. An’ananing uzluksizligi Qoraxoniylar adabiyotida yaqqol kuzatiladi. Til ilgari qanday bo‘lsa, shundayligicha qoldi».[22]

Bombachining bu fikri uchta manba – urxun- enisey yodnomalari, «Devonu lug‘atit-turk» va «Qutadg‘u bilig»ga tegishli. Rus va Evropa turkologiyasida «qadimgi turkiy adabiyot» va «qadimgi turkiy til» nomi ostida X11 asrgacha bo‘lgan turkiy tildagi yodgorliklar nazarda tutiladi va bu o‘zini oqlaydi.

Gap «Devonu lug‘atit-turk» va urxun- enisey yodnomalarining tili umumiyligi va bu manbalardagi tasvirning uyg‘unligi haqida ketar ekan, yana Fitratga murojaat etamiz. U yuqoridagi asarida «Devon»dagi bir necha epik asarlarni tiklaydi, ular tasvir

---

[20] Қаранг: Раҳмонов Н. Кўҳна битигтошлар. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси.Тошкент, 1991, 14-бет.

[21] Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Тошкент, Фан, 1981, 88-бет.

[22] Бомбачи А. Тюрские литературыё Введение в историю стиля. “Зарубежная тюркология” тўплами. Москва, 1986, 208-бет.

xarakteri, ruhi, poetik jihatlari, voqealar mazmuni jihatidan xalq eposlariga taalluqli ekanligi sezilib turadi. Fitrat «Devon»dagi to‘rtliklarni mazmuniga ko‘ra, o‘n besh bo‘limga guruhlaydi. Biz bu o‘rinda VII (Tangut begining urushi, 53-58- betlar), VIII (Uyg‘urlar bilan urush, 58-60-betlar), XII (Bir urush, 74-78-betlar), XIII (Uch urush, 72-74-betlar) bo‘limlaridagi to‘rtliklarning yodnomalardagi parchalarga nafaqat g‘oya va mazmun tomondan, balki tarixiylik nuqtai nazaridan ham ta’kidlamoqchimiz. Misol uchun «Tangut begining urushi» deb nomlangan bo‘lim to‘rtliklarida (8 to‘rtlik) jang manzarasi tasvirlangan.

Qatun sini jig‘iladi,
Tangut begin yag‘iladi,
Qani ag‘ib jag‘iladi,
O‘yin suvin qizil sag‘di.

Qatun sini qabilasi qichqirishib, g‘ulg‘ula solib, tangut begiga dushman bo‘ldi, urush ochdi, (oqibatda) bo‘ynidan zil suv sog‘ilgan kabi bo‘lib, qoni vijillab oqdi.

Bu to‘rtliklardagi tarixiy voqealar turk xoqonligi davrida yuz bergan. Qiyos uchun Bilga xoqon yodnomasidagi tangutlar bilan bo‘lgan jang lavhasiga to‘xtalaylik.

*Yati yigirmi yashima tangut tapa suladim. Tangut bodunin buzdim, og‘lun, yutuzin, yilqisin, barimin anta altim* (Bx, 24) – O‘n etti yoshimda tangutga lashkar tortdim. Tangut xalqini engdim, o‘g‘lini, xonumonini, yilqisini, molini o‘shanda oldim.

Bu voqea VIII asrning boshlarida – taxminan 702 yiliga to‘g‘ri keladi. Ammo tarixiy voqealarning aynanligini «Devon»dan qidirish maqsadga muvofiq emas. «Devon»dagi to‘rtliklar xalqning ijodi sifatida paydo bo‘lgan, ya’ni xalq qo‘shiqlaridir. Quyidagi parchada ham Bilga xoqon yodnomasidan keltirilgan parchadagi singari jang tasviri va tangutlarning mag‘lubiyati tasvirlangan:

Tangut susin ushuqladi,
Kishi ishin elikladi,
Aran atin balqiladi,
Bulun bolup bashni tig‘di.

Tangut qo‘shinini sovuqda bosdi. Bu ish bilan erkaklar ishini masxara qildi. Bosqinda barcha er hakm otlarni har kimga bo‘lakladi (ya’ni hadya qildi). Oxirida o‘zi asir bo‘lgach, boshi kesildi.

Tangut xani yubildi,
O‘lum birla tubuldi,
Qazashlari tabladi,
O‘lum ko‘rub yuzi ag‘di.

Tangut xoni uni boshdan aldadi-da, so‘ngra ulim bilan tepaladi, engdi, qarindoshlari uni bu mag‘lubiyatidan orlandilar. CHunki o‘limni ko‘rgach, uning yuzi oqargan edi.

Mazkur to‘rtliklarda jang tasviri, qahramonlarning xatti-harakatlari, holati batafsil tasvir etilgan. CHunki epik bayon bilan birga, naturalistik tasvir tamoyil folklor uchun, ayniqsa, doston uchun xarakterli xususiyatdir.

YOki quyidagi to‘rtlik ham motiv va syujet jihatidan To‘nyuquq, Kul tigin yodnomalaridagi aksariyat jang lavhalarini gavdalantiradi.

Eran alpi o‘qushtilar,
Qing‘ir ko‘zun baqishtilar,
Qamug‘ tutup to‘qushtilar,
Qilich qing‘a kuchin siqti.

Erlar, botirlar bir-birlarini kurashga undadilar. Bir-birlariga yov ko‘zi bilan yomon qaradilar. Butun yaroqlari bilan urushga kirishdilar. Qilichlarning qinga kirishi qiyinlashdi.

«Devon»dagi to‘rtliklar qadimgi turk davrida shakllangan va ularga qadimgi turk davridagi tarixiy voqealar zamin bo‘lgan ekan, bizningcha, yuqoridagi parchalarni tarixiy qo‘shiq janriga mansub deb qarash kerak.[23]

Mahmud Koshg‘ariy nozik didli adabiyotshunos sifatida maqol va she’rni yaxshi farqlaydi va har bir baytni berishda aniqlik kiritadi. Qaysi o‘rinda maqol, qaysi o‘rinda she’r kelayotganini o‘quvchiga uqtirish uchun “maqolda shunday kelgan”, “she’rda shunday kelgan” iboralarini keltiradi.

“Devon”da she’rlardan tashqari, Mahmud Koshg‘ariy ikki afsonani ham keltirgan. SHu afsonalardan biri - “Oltin qon” afsonasi, ikkinchisi - yil hisobi to‘g‘risidagi afsonadir. Afsona turkcha o‘n ikki muchal yillarining paydo bo‘lish tarixiga oiddir (1, 331-332). Koshg‘ariy afsonani hikoya qilib bo‘lgach, qadimgi turkiylarda yil hisobi quyidagi tartib bilan yuritilishini ko‘rsatadi: *sichqon yili, sigir yili, bars yili, quyon yili, timsoh yili, ilon yili, ot yili, qo‘y yili, maymun yili, tovuq yili, it yili, to‘ng‘iz yili.*

Bu afsonaning yana bir diqqatga sazovor tomoni shundaki, qadimgi Xitoy afsonalari tarkibida ham mazkur afsona bor. Xitoylarda bu afsona Budda bilan bog‘liq.

Xitoylarda rivoyat qilinishicha, Budda er yuzini tark etishdan oldin huzuriga hamma hayvonlarni chaqiribdi. U bilan xayrlashgani o‘n ikki hayvon kelibdi, xolos. Kelgan hayvonlarni mukofotlash uchun Budda, men chaqirganimda navbat bilan kelganingiz bo‘yicha yillarga nom beraman, debdi. Hayvonlar birinchi bo‘lib kim kelgani to‘g‘risida bahslasha boshlabdilar. Oxiri, bir to‘xtamga kelish uchun musobaqa uyushtirishga qaror qilibdilar: daryoning narigi qirg‘og‘iga birinchi bo‘lib o‘tgan hayvonning nomi bilan birinchi yil ataladigan bo‘libdi. Keyingi yillar daryoni birin-ketin kechib o‘tgan hayvonlar nomi bilan ataladigan bo‘libdi. Nihoyat, o‘n ikki jonzot qirg‘oqqa tizilishibdi va baravar suvga o‘zlarini tashlabdilar. Kalamush darrov ho‘kizning ustiga minib olibdi, ho‘kiz esa hech narsani sezmabdi. Ho‘kiz boshqa hamma hayvonlardan oldinga ketib, daryoning narigi qirg‘og‘iga chiqishga tayyorlanibdi. SHu lahzada *kalamush* uning ustidan sakrabdi-da, qirg‘oqqa bir necha soniyaga *ho‘kizdan* oldin chiqibdi. SHunday qilib, kalamush birinchi bo‘lib chiqqan hisoblanibdi. Qolgan hayvonlar shu tartibda suzib o‘tibdilar: *yo‘lbars, quyon, ajdar, ilon, ot, qo‘y, maymun, xo‘roz, it. To‘ng‘iz* nihoyatda sustkash va dangasa ekan, shuning uchun eng oxirida qirg‘oqqa etib kelibdi.[24]

---

[23] Раҳмонов Н. Юқоридаги асар, 16-17-бетлар.
[24] Тони Энтони. Укрощение тигра, Санкт-Петербург, 2008, 29-бет.

Ikkala afsonadagi yil hisobining nomlari va tartibida katta farq yo‘q. Ehtimol, Xitoyga buddaviylik kelgandan keyin, qadimgi turklar afsonasini o‘zlashtirgan bo‘lishlari mumkin.

SHuningdek, “Devonu lug‘atit-turk”da munozara (YOz va Qish munozarasi) janri, Alp Er To‘ngaga va yana bir noma’lum qahramonga bag‘ishlangan marsiya ham bor.[25]

“Devonu lug‘atit-turk”dagi janrlari o‘zaro bir-birini taqozo qiladi. Masalan, munozara janri to‘rtlik shaklisiz, yoki fard janrisiz shakllana olmaydi. YOki munozarada madh ham uchraydi. Unda munozarani yozishga buyurgan kishi ta’riflanadi.[26]

Munozara dunyo adabiyotidagi qadimiy janrlardan biridior. U G‘arb va SHarq, jumladan, fransuz, fors va turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqalgan. Fors-tojik adabiyotida munozaraning birinchi etib kelgan qadimiy namunasi “Daraxti asurik” dir. Bu asar pahlaviy tilida yozilgan. Unda xurmo daraxti bilan echki orasida munozara ketadi va kimning insonga ko‘proq foyda berishi to‘g‘risida bahs yuritiladi.[27]

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asari asosida tiklangan munozara janri to‘g‘risida I.V.Stebleva, E.Rustamov, M. Abduvohidova o‘z munosabatlarini bildirganlar. Jumladan, E.Rustamov “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida “Devonu lug‘atit-turk”dagi munozara haqida qisqa to‘xtalib ketgan bo‘lsa, I.V.Stebleva “X1 asrda turkiy she’riy shakllar taraqqiyoti” (“Razvitie tyurkskix poeticheskix form v X1 veke”, Nauka, GRVL, Moskva, 1971, 195-bet) nomli asarida “Devonu lug‘atit-turk”dagi munozara janrining tiklangan matnini ham keltirgan. Bu o‘rinda I.V.Steblevaning mehnati alohida tahsinga loyiq ekanini aytib o‘tish kerak. U “Devonu lug‘atit-turk”ning to‘rtta nashri – turk olimlari Ahmad Rif’at va Basim Atalay tarjimalarini va nashrlarini, o‘zbek olimi S.Mutallibov tarjimasi va nashrini, nemis(?) turkolog olimi K. Brokkelmanning nashrlariga tayanib, tanqidiy matn tayyorlab, munozara janrini tiklaydi va yigirma uchta to‘rtlikni munozara janri sifatida beradi. I.V.Stebleva keltirgan “Devonu lug‘atit-turk”dagi munozara quyidagicha:

Qish yay bila to‘qushti,
Qing‘ir ko‘zin baqishti,
Tutushqali yaqishti,
Utg‘alimat o‘g‘rashur (1.VA 170, T. I 181-182)[28]

Yay qish bila qarishti,
Ardam yasin qurishti,
CHerig tutib kurashti,
O‘qtag‘ali utrushur (II. BA 97, T. II 104)

---

[25] Қаранг: Стеблева И.В. Юқоридаги асар, 153- 162, 195 -207- бетлар.

[26] Ўзбек адабиёти тарихи. 1 том, Тошкент, Фан, 1977,311-бет.

[27] Ўзбек адабиёти тарихи.., 311-бет.

[28] 1.BA 170, T 181-182 – 1 рақами – “Девону луғатит-турк”нинг жилдини, BA – Басим Аталайни, кейинги рақам – жилднинг саҳифасини, T – Тошкентни, кейинги рақам – Тошкент нусхасининг саҳифасини англатади.

Qish yayg‘ahi suvlanur,
Ar at manin yavrayur,
Iglar yama savriyur,
At yin taqi bakrishur (III. BA 278, T  III 294)

O‘l qar qamug‘ qishin inar,
Ashliq tarig‘ anin o‘nar,
Yavlaq yag‘i manda tunar,
San kalibon tabrashur (II BA 204, T. II 237)

Canda qo‘par chayanlar,
Quzg‘u singak yilanlar,
Duk ming quyu tumanlar,
Quzruq tikib yugrushur (III. BA 367, T. III 378)

Tumlug‘ kelib qapsadi,
Qutlug‘ yayig‘ tepsadi,
Qarlab ajun yapsadi,
Et yin ushub emrishur (I BA 463, T. I 430).

Balchiq baliq yug‘rulur,
CHig‘ay yavuz yig‘rilur,
Eringaklari o‘g‘rilur,
O‘zg‘uch bila evrishur (I. BA 248, T. I 249)

Kaldi esin esnayu,
Qazqa tugal usnayu,
Kirdi budun kusnayu,
Qara bulit ko‘krashur (II. BA 223, T. II 259-260, BA 147, )

Ordi bulit ingrashu,
Aqti aqin mungrashu,
Qaldi budun tanglashu,
Ko‘krar taqi mangrashur (III BA 398, T.III 407)

Quydi bulut yag‘murin,
Kerib tutar aq to‘rin,
Qirqa qo‘zti o‘l qarin,
Aqin aqar angrashur  (III BA 39, T.III 46)

Qar buz qamug‘ erushdi,
Tag‘lar suvi aqishdi,
Ko‘kshin bulit orushdi,

Qayg‘uq bo‘lub egrishur (I BA 186, T.I 195)

Qaqlar qamug‘ kulardi,
Tag‘lar bashi ilardi,
Ajun tani yilirdi,
Tutu chechak cherkashur (I BA 179, T.I 189)

Ay qo‘pub evlanib,
Aq bulit o‘rlanib,
Bir bir uza o‘klunub,
Sachlub suvi engrashur (III BA 398, T. I 258)

Tuman chechak tizildi,
Bukundan o‘l yazildi,
O‘gush yatib uzaldi,
Yerda qo‘ba azrishur (I BA 233-234, T.I 236-237)

Tegma chechak ukuldi,
Bukuklanib bukulti,
Tugsin tugun tuguldi,
Yarg‘ilamat yurkashur[29] (I BA 437, T.I 409-410; II BA 285, T II 329)

Yamg‘ur yag‘ib sachildi,
Turlug chachak suchuldi,
Yinju qabi achildi,
CHindan yipar yug‘rushur (II BA 122, T.II 139)

Qizil, sarig‘ arqashib,
Yepkin, yashil yuzkashib,
Bir-bir keru yurkashib,
Yalinguq ani tanglashur (I BA 395, T.I 375)

Yashin atib yashnadi,
Tuman turub tushnadi,
Ayg‘ir, qisir kishnadi,
O‘gur alib o‘qrashur (I BA , 235-236 T.I 238)

Alin tubu yashardi,
Urut o‘tin yashurdi,
Ko‘lning suvin kushardi,
Sig‘ir buqa mungrashur (II BA ,79 T.II 83)

Qulan tugal qumutti,

[29] ДЛТ Іі жилдда охирги мисра “йазлиб йана йуркашур (таралиб, кўплигидан яна йиғилади)”.

Arqar so‘qaq yumutti,
Yaylag‘ taba emitti,
Tizgiq to‘rub sekrashur (I BA ,214, T.I 221)

Qo‘chingar teka sevildi,
Sag‘liq surug qo‘shuldi,
Sutlar qamug‘ yushuldi,
O‘g‘laq qo‘zi yamrashur (III BA ,102, T. III 113)

Yilqi yazun atlanur,
O‘tlab aning etlanur,
Beglar semiz atlanur,
Sevnub o‘gur isrishur (I BA , 285, T. I 282)

Sanda qachar sundilach,
Menda tinar qarg‘ilach,
Tatlig‘ o‘tar sanduvach,
Erkak tishi uchrashur (I BA ,529, T. I 481, III BA 178, T. III 193)

Yay baruban erkuzi,
Aqti aqin munduzi,
Tug‘di yarug‘ yulduzi,
Tingla so‘zum kulgusuz (I BA , 96, T. I 121)

Ag‘di bulit ko‘krayu,
Yag‘mur to‘li sekrayu,
Qaliq ani ugriyu,
Qancha barir belgusiz (I BA , 354, T. I 336)

Turlug chechak yarildi,
Barchin yazim kerildi,
Uchmaq yeri ko‘ruldi,
Tumlug‘ yana kelgusuz (I BA 119, T. I 141)

Qush, qurt qamug‘ tirildi,
Erkak tili terildi,
Ugur alip tarildi,
Yinqa yana kirgusuz (III BA 5-6, T. III 11-12)

Yay, ko‘rkinga inanma,
Suvlar uza tayanma,
Esizligig anunma,
Tilda chiqar ezgu so‘z (III BA 160-161, T. III 176)

Munozaraning asosiy qahramonlari Qish bilan YOz ramziy obrazlardir. Har ikkala qahramon o‘rtasidagi bahs va munozara turkiy xalqlar og‘zaki ijodidan oziqlangan va mazkur ramziy obrazlarda xalqning orzu-umidlari o‘z aksini topgan. SHuningdek, oxirgi to‘rtlikdagi didaktik ruh mazkur janrning xulosasi sifatida keltirilganini ko‘rsatadi.

“Devonu lug‘atat turk”da ayrim to‘rtliklar dostonlar syujetiga aloqador jang lavhalarini eslatadi:

Kecha turub yo‘rir erdim,
Qara, qizil bo‘ri ko‘rdum,
Qatig‘ yani qura ko‘rdum,
Qaya ko‘rup baqu ag‘di (III 138).

## 5-mavzu
## Badiiy modallik poetikasi

Ulug‘bek Xurosondagi adabiy va ilmiy muhitdan farqli o‘laroq, turk-mo‘g‘ul xalqlari tarixi bilan qiziqdi. CHingizxon va mo‘g‘ul sulolalari tarixining Temuriylar davrida davom etgani qiziqarli va diqqatga sazovor. Zotan, turk-mo‘g‘ul qavmlarining qondoshlik jihatdan birligi haqidagi tarix bu davrda ma’lum edi. SHu chin tarixni keng ommaga etkazish uchun zarurati bor edi.

“To‘rt ulus tarixi” Mirzo Ulug‘bekning rahbarligi ostida va shaxsan ishtirokida yaratilgan. Asar 1425 yili yozib tamomlangan.

Asar “Ulus- a- arba’a – yi CHingiziy” (“CHingiziylarning to‘rt ulusi”) va “Tarixi arbaa ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) nomlari bilan mashhur.* Asar *muqaddima* va *etti bob*dan iborat.

Muqaddima qismida o‘rta asrlarda yaratilgan tarixiy asaralar an’anasiga ko‘ra, Tangri taolo, uning elchisi Muhammad s.a.v. va uning avlodlari sha’niga maqtov, Odam ato, payg‘ambarlar, Nuh alayhissalom, uning farzandlari tarixi bayon qilinadi.

*Birinchi bobda* Turkxon ibn YOfas va uning Turkiston elida hukmronlik qilgan avlodlari – Abuljaxon, dabkuyxon. Kuyukxon va boshqa mo‘g‘ul hukmdorlari, shuningdek, turk qavmlari va podshohlari – Mo‘g‘ulxon, Qoraxon, O‘g‘uzxon tarixi bayon qilingan. SHunisi diqqatga sazovorki, asarda keltirilgan turk-mo‘g‘ul urug‘lari tarixi va etnik tarkibi Rashididdinning “Jome ut-tavorix” asarining 1 jildida keltirilgan ma’lumotlardan keskin farq qilmaydi. Bu hol Rashididdin foydalangan va turk-mo‘g‘ul xalqlariga oid boshqa manbalarni Mirzo Ulug‘bek ham sinchiklab o‘rganganini dalillaydi. Usmonli turklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham bu bobdagi muhim jihatlardan biridir.

*Ikkinchi bob* turk-mo‘g‘ul xalqlarining afsonaviy onasi Alonquva va undan tarqalgan avlodning – Buzunjor xon, Buqo xon, Dutumin xon, Qobulxon, Boysung‘ur xon, YAsugay bahodir va boshqalarning tarixi bayonidan iborat.

*Uchinchi bob* buyuk jahongir CHingizxon tarixining bayoniga bag‘ishlangan. Bu bobda eng diqqatga sazovor o‘rinlar – CHingizxonning bir qator

xonlarni mag‘lub qilgani, uning nasl-nasabi, farzandlari, el-ulusga joriy qilgan yasoqlari, ya’ni qonunlari zikri va u o‘rnatgan qonunlar tufayli o‘g‘irlikka barham berilgani, lashkar tuzilishiga oid voqealar bayonidir. Jumladan, lashkar tuzilishi to‘g‘risida Mirzo Ulug‘bek quyidagicha yozadi: “Lashkar tartibi shunday tuzilganki, Odam ato zamonidan bugungi kungacha biror podshohning sipohi turknikidek muyassar bo‘lmagan. Sabru bardosh shiddatida va ma’lum muddatgacha shokirlikda yashirin va oshkora o‘z hokimlariga jonu dildan mahkumlik va mute’lik qilurlar” (113-bet). Sulton Muhammad Xorazmshoh va uning o‘g‘li Jaloliddin  bilan olib borgan jangu jadallari ham shu bobda qiziqarli tarzda bayon etiladi.

*To‘rtinchi bob* CHingizxon farzandlariga va Qorachor no‘yonga davlat ishlari borasida vasiyat etishi voqealari bilan boshlanadi. O‘ktoyning taxtga o‘tirishi va uning Ulug‘ yurtdagi podshohligi, O‘ktoy, CHig‘atoy va Tulixonning Xitoyga lashkar tortishi, u mamlakatni egallab qaytayotganlarida Tulixonning vafot etishi,O‘ktoyxondan keyin taxtga o‘tirgan Kuyukxon hukmronligi bilan bog‘liq voqealar, nihoyat, O‘rdoyxon ibn Arig‘ Temurxon hukmronligigicha bo‘lgan hodisalar ham shu bobda hikoya qilinadi. O‘ktoydan boshlab O‘rdoyxongacha yigirma bir ukmdor tarixi qisqa bayon qilingan.

*Beshinchi bob*— CHinigzxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘ji xon naslidan bo‘lgan o‘ttiz uch xon zamonida Dashti Qipchoq (hozirgi Qozog‘iston, G‘arbiy Sibir, Volga bo‘yi erlari) tarixiga bag‘ishlangan. Voqealar qisqa, Oltin O‘rta poytaxti Saroy shahrini qurgan Botuxon (Jo‘jining o‘g‘li), Barakaxon, O‘zbek xon, Jonibek kabi hukmdorlar tarixi shu bobdan o‘rin olgan

*Oltinchi bob*— Eron mamlakatida saltanat qurgan o‘n ikki podshoh tarixiga oiddir. Saltanatning asoschisi Tulixonning o‘g‘li Halokuxon bo‘lib, u Elxon laqabini olgan edi. Halokuxon tarixiga kitobda kengrov o‘rin berilgan. U Eronda o‘z saltanatini barpo qilish uchun kurashadi, muruvvatpesha hukmdor sifatida shuhrat qozonadi, mamlakat obodonchiligi yo‘lida ko‘p ishlar olib boradi. SHu bobdan ayon bo‘lishicha, Halokuxon ilm-fan ahliga ko‘p rag‘bat ko‘rsatgan. Jumladan, Halokuxon farmoni bilan Nasriddin Tusiy Tabrizda (Mo‘g‘ul elxonlarining poytaxti) qurgan rasadxona Halokuxondan qolgan yodgorlikdir. SHu rasadxonada tuzilgan zij “elxoniy” nomi bilan mashhurdir.bo‘lib

*Ettinchi*– oxirgi bob CHig‘atoy ulusining CHingizxon zamonidan (1227 yil) Amir temurning hokimiyat tepasiga kelishi (1370 yil) gacha bo‘lgan voqealar hikoya qilinadi. Bu bobda ham diqqatga sazovor voqealar ko‘p. SHunday voqealalardan biri Mahmud Torobiy boshchiligidagi xalq qo‘zg‘olonidir. Mirzo Ulug‘bek bu voqeaning boshidanoq Mahmud Torobiyning asl qiyofasini chizib beradi:

Soxta sher ko‘k so‘fi kiyib yurardi, ikkiyuzlamachiligu ayyorlikning asoslarini irg‘itdi.

Firib bilan tutun tarqatdi olchoq, ularning salomi salovotu ro‘zadan iborat.

Mirzo Ulug‘bek Torobiyning el orasida obro‘ orttirish usulini hikoya qilar ekan, birinchi navbatda. Erkaklarni itrofiga yig‘ib, uning amridan chiqmasligini buyurdi. Torobiyning tabobatdan xabrdorigi sabab ayrim xasta odamlar unga kelib.

“tasodif bo‘lib, bir-ikkikasalgaTangritaoloshifohamberdi”. SHu bois omma unga ixlos qo‘ydi va uning atrofiga yig‘ildi. Parchada Mahmud Torobiyning xalqni qanday qilib o‘ziga og‘dirib olish usullari, avomni notavonligidan foydalanib. O‘zini sohibkaromat qqilib ko‘rsatish usullarini bayon qiladi. Buxoro shahri tashqarisida mo‘g‘ullar va Mahmud Torobiy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jangda mo‘g‘ul askarlaridan birining kamondan otgan o‘qi Mahmud Torobiyga tegdi va u jon berdi. Ammo uning o‘limidan hech kim voqib bo‘lmadi, shu paytda qattiq chang-to‘zon ko‘tarilib, odamlar bir-birlarini ko‘ra olmay qoldilar. Mo‘g‘ul lashkari bu tabiiy hodisani ham Torbobiyning karomatiga yo‘ydilar va jang qilishdan to‘htadilar.SHayx Torobiyning odamlari talon-tarojga berildilar, Talon-tarojni bas qilganlarida, shayxning yo‘qligi ma’lum bo‘lib qoldi va “shayximiz g‘oyib bo‘libdi” deb uning ukasi Muhammad Alini shayx qilib ko‘tardilar. Mo‘g‘ul lashkari bilan Muhammad Ali tomonidan Buxoro xalqi o‘rtasidagi jangda har ikki tomondan yigirma ming odam o‘ldi. Mo‘g‘ul lashkarining qo‘li baland keldi va Qorachor no‘yonning amri bilan Buxoroni g‘orat qilishdan lashkar o‘zini tiydi.

Mahmud Torobiy bilan bog‘liq voqealarni Mirzo Ulug‘bek keltirishidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, tarixda Mahmud Torobiy boshchiligidagi xalq qo‘zg‘oloni zolimlarga qarshi kurash yo‘lidagi kurash emas. balki Mahmud Torobiy avom xalqni aldov bilan o‘ziga og‘dirib olgani va shu xalq uni Buxoro amiri qilib ko‘targanini hikoya qilgan. Mahmud Torobiy o‘zini avomgaqanday qilib sohibi karomat qilib ko‘rsatgani quyidagi parchada yana ayon bo‘ladi: “...Keyingi juma kuni SHayx Mahmud Torobiy nomiga xutba o‘qitdilar. Imomlar va Buxoro akobirlarining barchasi shunda hozir qilindi. Ularning ba’zilarini o‘ldirdi, ba’zilarini sazoyi qildi. Rind va avboshlarning barchasini katta ehtirom bilan qabul qildi. Ularga dedi: “Sizlar uchun g‘oyibdan qurolyarog‘ topishga muyassar bo‘ldim!” O‘sha kunlarda SHeroz tomondan bir karvon keldi va to‘rt xarvor shamshir olib kelishdi. Bu ham odamlar sonining ko‘payishi va e’tiqodiga sabab bo‘ldi”. Xalq bundan tashqari boylarning uyiga kirib, molini talon-taroj qilib keldilar, Mahmud Torobiy o‘ljalarni avboshlarga taqsimlab berdi.

Mirzo Ulug‘bek Mahmud Torobiyning qiyofasini chizmagan bo‘lsa-da, u bilan bog‘lik voqealarda uning ichki dunyosi bilan tashqi harakatlari bir-biriga nihoyatda mos ekanini ko‘rsatib bergan.

## 6-mavzu
## Mif poetikasi

N.Veselovskiyning qadimgi she’riyat sinkretizmi va adabiy turlarning kelib chiqishi haqidagi qarashlari Levi Stross, Levi Bryul kabi g‘arb olimlarining ibtidoiy fikrlash tarzi haqidagi qarashlariga hamohangdir. Zotan, ibtidoiy fikrlash tarzi sinkretik xarakterga ega. Veselovskiy ibtidoiy sinkretizmning tarixiy asoslarini qidiradi: uningcha, ibtidoiy sinkretizm ritmik, doiraviy harakat hamda qo‘shiq va musiqaning verbal ijro etilishini o‘z ichiga oladi. Badiiy matnni qaror toptirishda ritmning roli katta bo‘lgan.

SHuni ta’kidlash kerakki, ibtidoiy sinkretizm bosqichida mifni A.N.Veselovskiy e’tiborga olmaganday ko‘rinadi. Ammo qadimgi she’rning ritm bilan verbal ijro etilishi jarayonida mif ham bor deb qarash maqsadga muvofiqdir. Mif faqat verbal ijro etiladi. Ayni paytda mifni yoki mifologik tasavvurlarni qamrab olgan qadimgi she’r tasviriy san’atni ham o‘z ichiga oladi. Keng ma’noda hammasini she’riyat deb qarash mumkin.

Sinkretizm davrida so‘z estetik tafakkur orqali anglanadigan ma’nosidan yoki o‘zi ifodalagan ob’ektidan ajralmagan. Masalan, “daraxt” so‘zi va daraxtning o‘zi mifologik ong uchun ikkita real voqelik – so‘z va predmet sifatida emas, balki bitta ajralmas voqelik sifatida paydo bo‘ladi. Bu degani – so‘z qandaydir substansial (ilk asos, hamma narsalar va hodisalarning mohiyati) hodisa sifatida qabul qilinadi deganidir. Buni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun diniy tasavvurlar yordam beradi. Iso Masihning ta’limotida aytilishicha, so‘z jamiki olamning asosi bo‘lib, avval so‘z, keyin olam paydo bo‘lgan:

Azalda *Kalom* bor edi,
*Kalom* Xudo bilan birga edi,
*Kalom* – Xudo edi.
Azalda U Xudo bilan birga edi.
Butun borliq Kalom orqali yaratilgan,
Usiz yaratilgan biron narsa mavjud emas.

*Kalom* – obraz, u sinkretizm davrining mahsuli, Xudo yaratgan hamma narsalarning asosi. Ayni paytda *Kalom* – ko‘p ma’noli. SHu o‘rinda N.YA.Marrning quyidagi gapini eslatish o‘rinli: “Tilning taraqqiyotida shunday bosqich bo‘lgan ediki, universal ma’noga ega bo‘lgan bitta so‘z mavjud edi”. Bizningcha, N.YA.Marr Iso Masih ta’limotidan olingan yuqoridagi parchada keltirilgan *Kalom*ni nazarda tutgan.

Sinkretizm, yuqoridagilardan ma’lum bo‘lishicha, ibtidoiy tafakkurning mahsuli sifatida paydo bo‘lgani shubhasizdir. Ibtidoiy tafakkur esa atrof muhitni, jamiki o‘zgarishlar va hodisalarni miflashtirishning natijasidir. Bu jarayon o‘ziga xos, ilg‘or pozitsiya sifatida qaralishi kerak. Agar atrof olamni miflashtirish, mifologik fikrlash bo‘lmaganda edi, insoniyatning ilk dunyoqarashi, tabiatga bo‘lgan munosabati nihoyatda g‘arib. Estetik tafakkurdan tamomila uzilgan bo‘lar edi. SHu bois sinkretizm va mifologik fikrlash jarayoni bir-biridan ajralmagan holda qaraladi.

SHu o‘rinda ibtidoiy tafakkurning xususiyatlari haqida aytib o‘tish o‘rinlidir. Ibtidoiy tafakkur uchta xususiyatga ega, ya’ni ibtidoiy tafakkur – *konkret*, *ajralmas* va *obrazli*dir. Har uchala xususiyat ibtidoiy inson yashagan ijtimoiy bosqichda yuzaga chiqqan.

Olamni bilib olgan insonda obrazli taqakkur bilish vazifasini bajaradi. Bu bosqichda obrazli tafakkur va tushuncha aynan bir xildir. Masalan, doimiy epitet (*oq qor*) yoki o‘xshatish (*bo‘riday* odam), metafora kabi badiiy tasvir vositalari ibtidoiy davrda obrazli tafakkur mahsuli, ayni paytda tushuncha hamdir.

Ibtidoiy tafakkur mavhum tushunchalarni bilmagan. U mifologik obrazga asoslangan. Ammo bu degani – ibtidoiy tafakkur o‘z o‘zidan mifologik mazmunga ega degan ma’noni bildirmaydi. Borliq har qanday fikrlashning omili hisoblanadi, fikrlash

esa obrazlar vositasida ob’ektiv borliqni ifodalaydi. SHuning uchun ham ibtidoiy insonlar buyum bilan uning paydo bo‘lish jarayonini, buyum va uning xususiyatlarini bir-biriga o‘xshatavergan. Aytaylik, hayvonlarning paydo bo‘lishini odamlarning paydo bo‘lishi bilan birday tasavvur qilganlar, o‘zi bilan hayvonot o‘rtasiga chegara qo‘ya bilmagan. Hayvonot yoki tabiatdagi boshqa buyumlar bilan bog‘liq tasavvurlar, qarashlar (masalan, animizm, totemizm va h.) shubhasiz, ibtidoiy sinkretizm davridagi insonning obrazli fikrlash mahsuli va ayni paytda hayvonot olami hamda tabiat haqidagi tushunchalaridir.

Fikrlashning sinkretikligi turli buyumlarning o‘xshashligi kabi hodisalarni paydo qildi. Ibtidoiy inson tilida zid hodisalar bir xil so‘z bilan atalgan.Fikrlash ham konkret xarakter kasb etgan edi. Har bir buyum hissiy tarzda qabul qilingan, obraz esa predmetning tashqi tomonini – zohiriy va sezilib turadigan tomonini aks ettirgan. Ob’ekt va sub’ektning yaxlitligi katta mohiyatga ega edi. Hamma buyumlar bir biriga o‘xshash tasavvur qilingan. Ma’lum bir qabilaga mansub odamlar o‘za qabilaning totemi nomi bilan atalavergan. Ibtidoiy fikrlash barham topgandan keyingina, metafora obrazli “ko‘chim”ga, keyingi bosqichda esa poetik ko‘chimlarga aylangan. Bu poetik ko‘chimlarda mifologik metafora hali saqlangan edi. Bu obrazlarni keyingi davr adabiyotidagi obrazlar bilan bir xilda qaramaslik kerak. Ibtidoiy tafakkur mahsuli bo‘lgan bu obrazlar – mifik ijod mahsuli bo‘lgan obrazlardir.

Bu fikrni tasdiqlash maqsadida Markaziy Osiyoning qadimgi san’ati va mifologiyaning, poetik tafakkurning munosabatlariga oid bir dalil keltiramiz.

Markaziy Osiyodan topilgan san’at asarlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, ish qurollari, devor suratlari, qoyalarga o‘yilgan yoki yog‘ochlarga ishlangan va boshqa qator namunalari orasida ikki qiyofali tasvirlar bor. YOzma matn yoki xalq og‘zaki ijodi, xususan, sehrli ertaklar, afsonalar bilan yuqorida biz aytib o‘tgan san’at asarlaridagi tasvirlarning mohiyati va mazmuni bir-biriga yaqindir. Zotan, ikki qiyofali tasvir san’at asarida bo‘ladimi yoki matnda bo‘ladimi - baribir, bir mazmundagi mifologik obraz bo‘lib, “bu mifologik obraz uchun polisemantizm, ya’ni obrazlarning mazmuniy o‘xshashligi deb ataladigan tasavvurlar xarakterlidir. Bu hodisa sub’ekt va ob’ektning, bilib bo‘ladigan olam bilan bu olamni biladigan insonning yaxlitligi bilan izohlanardi. Olamni mifologik o‘zlashtirishni paydo qiladigan konkret fikrlash shundan iborat ediki, inson buyumlarni va hodisalarni faqat yakkalikda, umumlashtirishlarsiz, ularning tashqi, jismoniy mavjudligi bilan, ularning sifatiga yorib kirishlarsiz tasavvur qila olar edi. Biz bunday mifologik tasavvurlarni “”obrazlar” deb ataymiz...Ilgarigi mifologik fikrlashda buyumning “xususiyati” jonli mavjudot, shu buyumning qiyofadoshi sifatida fikr qilingan edi”.[30] SHu nuqtai nazardan baholansa, tasviriy san’atdagi ikki qiyofali jonzotlar xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi g‘ayritabiiy timsollarning o‘rnini bosadi va estetik ehtiyojni qondiradi.

Markaziy Osiyoning barcha hududlarida – Janubiy Sibir, Mo‘g‘uliston, O‘rta Osiyo hududlarida topilgan san’at namunalari “skif-sibir san’atida hayvonot usuli”, “skif hayvonot usuli” kabi terminlar bilan yuritiladi. Biz san’atdagi bu usulga e’tibor berishimizga sabab – miflar, xalq og‘zaki ijodi va ilk yozma adabiyotdagi g‘ayritabiiy

[30] Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. “Наука”, 1978, с.182.

timsollar bilan san'atdagi bu singari timsollar bir-birini to'ldiradi, badiiy fikrlash har ikkalasida ham bir xil tarzda namoyon bo'ladi. San'atdagi bu tasvirlar qadimgi turkiy qavmlarning badiiy tafakkur imkoniyatlarini ham ko'rsatadi. Qolaversa, bu usulning san'atda uzoq asrlar davomida qo'llanib kelgani ham insoniyatning, xususan, qadimgi turkiylarning estetik tafakkuri rivojiga ham bir dalildir.

SHunisi ham borki, bu muammo yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilgan va bir qancha nuqtai nazar bo'lishiga qaramay, Dunaydan tortib O'rdusgacha cho'zilgan cho'l zonasida istiqomat qilgan xalqlarda skif-sibir "hayvonot usuli"ning kelib chiqishi va uning tasviriy hamda amaliy san'atdagi ko'rinishlari haqida kitoblar maqolalar bor bo'lishiga qaramasdan, masala hanuzgacha munozaraliligicha qolmoqda[31]. O'zbekistonda skif-sibir hayvonot usuli haqida N.Rahmonovning ayrim kuzatishlari bor.[32] U qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda va "O'g'uznoma" dostonida skif-sibir hayvonot usulining o'zaro genetik bog'liqligi jihatlari, jumladan, har ikkalasida ham uch qavatli olam modeli ifodalangani haqida so'z yuritib, qadimgi turklarning tasavvuri aynan skif-sibir hayvonot usuli asosida paydo bo'lganini dalillashga harakat qilgan. SHunisi diqqatga sazovorki, N.Rahmonov skif-sibir hayvonot usuli faqat san'atda emas, balki yozma adabiyotda ham o'z izini qoldirganini dalillashga uringan va mafkura, dunyoqarashning yaxlitligi bu usulning san'atda va adabiyotda deyarli birligini ko'rsata olgan. Bu yodgorliklardagi mifologik obrazlarning umumiyligi yoki tarixiy qahramonlarni ideallashtirish yo ularga mifologik mazmun yuklash orqali olam modelini qadimgi turklar va skiflar qanchalik aniq tasavvur qilganlari haqida o'z qarashlarini ilgari surgan. SHubhasiz, qadimgi turkiylar va skiflarning olam modeli haqidagi tasavvurlarining umumiyligi ularning qarindoshligini belgilovchi omillardan biri ekani to'g'risida bugun mulohazalarni aytish mumkin.

Skif-sibir hayvonot usulida ayrim ramziy obrazlar "ko'chib yurishi" natijasida Evropaga ham tarqalgan.

Skif-sibir hayvonot usulida yasalgan oltin va kumush buyumlar orasida g'ayritabiiy timsollarning Markaziy Osiyodagi yodgorliklarda kuzatilishi alohida e'tiborni tortadi. O'tgan asrning 60-70-yillarida skifologiyaga bo'lgan qiziqish qadimiy tasviriy san'at asarlarini tizimli holda o'rganishga olib keldi va maxsus konferensiya ham o'tkazildi. Bu konferensiya materiallari alohida to'plam holida bosilib chiqdi.[33] Mutaxassislar Osiyo va Evropaning ko'p hududlaridan topilgan arxeologik yodgorliklar misolida skif-hayvonot usulida bajarilgan san'at naunalarini tahlil qildilar. Lekin O'rta Osiyo skif-hayvonot usulida bajarilgan san'at namunalari e'tibordan chetda qolganini shu o'rinda eslatib o'tish o'rinlidir.

---

[31] Маннай-оол М.Х. .К вопросу о происхождении скифо-сибирского "звериного стиля".- Новые исследования Тувы №3, 2009; Толстов С.П, Итина М.А. Саки низовьев Сырдарьи. СА, 1966, №2, с. 151-175; Киселев С.В. Древняя история Южной Сибири. М.: 1951; Руденко С.И. Культура населения горного Алтая в скифское время. М.-Л.: 1953; Руденко С.И. Культура населения Центрального Алтая в скифское время. М.-Л.: 1960.

[32] Рахмонов Н.А. Орхоно-енисейские памятники и тюрксие эпосы. АДД. Ташкент, 1991. С.45.

[33] Проблемы скифской археологии. М.; 1971.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalar orasida mashhur arxeolog M.I.Artomonovning san’atdagi “skif-sibir hayvonot usuli”ga bag‘ishlangan maqolasi g‘oyat ahamiyatlidir. U mazkur usul haqida so‘z yuritar ekan, bu usul ma’lum bir etnik guruhga emas, balki miloddan oldingi birinchi ming yillikda turli irqlarga va turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlarga mansubligi to‘g‘risida o‘z mulohazalarini o‘rtaga tashlaydi.[34] SHubhasiz, san’atdagi bir turli etnik guruhga mansub usul boshqa xalqlarga ham tarqalganda, ularning turmush tarzi, xo‘jalik yuritishining umumiyligi, bir xildagi jamiyat qurilishi va o‘xshash mafkurasi muhim rol o‘ynaydi. M.I.Artomonov skif-sibir hayvonot usulining ilk bor paydo bo‘lishida SHimoliy Eron qabilalari asosiy mavqeni egallagani to‘g‘risida gapiradiki,[35] bu fikr o‘rganilayotgan mavzu va qo‘yilgan masalani hal qilishda ob’ektiv xulosalar chiqarish uchun etarli dalillarni bermasligi mumkin. Biz Eron va skif-hayvonot usuli tarqalgan hududlarning xalqlari bilan tarixiy-etnik munosabatlarga to‘xtalmaymiz, chunki bu alohida mavzu. Bizning asosiy ob’ektimiz tasviriy va amaliy san’atdagi alohida usulning ostida yotgan mifologik mazmun bo‘lgani uchun, masalaga o‘rni-o‘rni bilan to‘xtalib o‘tamiz.

Skif-sibir hayvonot usuli amaliy jihatdan kundalik hayotda qo‘llanadigan buyumlar – ish qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, taqinchoqlar, kiyimlarda o‘z aksini topgan. SHuningdek, devor suratlari va amaliy san’at namunalari orasida ham skif-sibir hayvonot usulida bajarilganlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Biz skif-sibir hayvonot usulini hududiy jihatdan emas, balki bu usulning Markaziy Osiyo va undan tashqari hududidagi umumiy xususiyatlariga, jumladan, tasvirlanayotgan parranda yoki hayvonlarning g‘ayritabiiy tasviriga tayanib o‘rganish tarafdorimiz. Zotan, bu usulda mifologik tasavvurlarga asoslangan mifologik fikrlash Markaziy Osiyo hududidagi etnik guruhlarning qarindoshligiga ham dalillardan biri bo‘la oladi. G‘ayritabiiy hayvonlar, parrandalar kulti mifologik fikrlashga zamin bo‘lgan.

Ko‘p tarqalgan tasviriy san’at asarlari orasida qanotli ot, qanotli tuya va boshqa qator g‘ayritabiiy qanotga ega bo‘lgan jonzotlar ko‘p uchraydi. “Amudaryo xazinasi” turkumiga kirgan san’at asarlari orasida g‘ayritabiiy jonzotlar tasviri uchraydi.

“Amudaryo xazinasi”ga mansub yodgorliklar, ma’lumotlarga qaraganda, Axmoniylar davriga oid bo‘lib, miloddan oldingi IV-II asrlarga tegishli. Bu xazinaga mansub buyumlar orasida dastagi she’rning kalla qismi va orqa tomoni oltindan qilingan ko‘za, ikki qanotli grifon gavdasi shaklidagi bilaguzuk, fantastik Gopatshoh –tanasi ho‘kiz, bosh qismi soqolli odam bo‘lgan tasvirlar ham diqqatga sazovor

## 7-mavzu
## Ramziy obrazlar va mif munosabati

Qadimgi she’rning asosiy xususiyatni shuki, so‘z paydo bo‘lganda, u she’rning ham vazifasini bajargan. Xususan, miflar yaratilgan paytda ulardagi dunyoni bilishga

[34] Артомонов М.И. Скифо-сибирское искусство звериного стиля. – “Проблемы скифской археологии” тўпламида. М.: 1974, 24-бет.
[35]

intilish, diniy tasavvurlar ijro usuli, sodda poetik qurilishishi va boshqa qator elementlar borki, she’rning vazifasini bajargan deb qarash mumkin. SHe’r rivoj topgan davrdagi badiiy tasvir vositalara, diniy va ilmiy tasavvurlar, musiqa va ohang so‘zda mujassamlashgan bo‘lib, sinkretik xarakter kasb etgan. SHe’riyat rivoj topganda (xususan obrazlilikning asosiy vositalaridan biri parallelizm shakllanganda), she’rdi mifologik tasavvurlar relikt sifatida saqlanib qoldi va she’rni she’r qilib turadigan ramziy obrazlar, o‘xshatish, epitet va boshqa qator badiiy tasvir vositalari ajralib chiqib, differensiatsiyalashuv jarayoni boshlandi. Qadimgi she’rlar musiqa va harakat bilan ijro etiladigan bo‘ldi. Umuman obrazli tafakkur ibtidoiy davrda hali she’r mifologik jarayonning ilk bosqichi davrida boshlangan edi. A.F.Losevning fikri bu jahitdan qimmatlidir. Uning aytishicha, mifda tom ma’nodagi borlik aks etgan edi, ya’ni haqiqiy voqelik mavjud substansiyalar butun realligi bilan bor edi.

Eng arxaik va ilk obraz ko‘rinishi ikki a’zoli parallelizmdir. Ikki a’zoli parallelizmning ko‘rinishi quyidagicha: “Tabiat tasviri va u bilan yonma-yon inson hayotida aynan shunga o‘xshash manzara ikki a’zoli parallelizmni hosil qiladi. Ob’ektiv mazmunni farqlashda ular bir-birini takrorlaydi, ular orasida, ya’ni tabiat manzarasi bilan inson hayotidagi aynan shunga mos manzara ular o‘rtasida umumiylik borligini ko‘rsatadi, ular orasida ohangdoshlik bor...parallelizm tenglashtirish g‘oyasiga moyil edi.” Tenglashtirish shuni anglatadiki, tabiat manzarasi bilan tabiiy hodisalar, inson ruhiy holati solishtiriladi va teng qo‘yiladi. Navoiyning

Orazin yopqoch, ko‘zimdin sochilur har lahza yosh
Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh

mashhur bayti psixologik parallelizmning namunasidir.
Ikki a’zoli parallelizmdan tashqari, epitet ham she’r sinkretizmining bir ko‘rinishidir. Umuman, she’r sinkretizmi barcha badiiy tasvir vositalarida o‘z aksini topadi.

Adabiy turlarning tahliliga to‘xtalar ekanmiz, biz mualliflik muammosiga duch kelamiz. Buning mohiyati shundaki, sinkretizm davrida adabiy turlar endigina shakllana boshlagan edi. Ularning paydo bo‘lishi (xuddi bayon va ko‘chimlarning kelib chiqishi kabi) san’at taraqqiyoti bu bosqichi tugayotgani va yaqinligini anglatadi. Adabiy turlar mohiyatan nimani ko‘rsatadi? Oddiy ta’rif shunday: adabiy tur – badiiy asarning bir turi. Tarixan uchta tur shakllangan bo‘lib, har uchala tur – *epik*, *dramatik*, *lirik* tur bir butunlikni hosil qiladi. SHunday qilib, adabiy turlarning genezisi va shakllanishi – bu badiiy asar va uning ko‘rinishlari kelib chiqishi hamda taraqqiyoti demakdir.
Ammo bu ta’rif ham etarli emas. Gap shundaki, badiiy asar ko‘p qirrali tushuncha. Zotan, adabiyotshunoslik matn va estetik ob’ekt o‘rtasiga chegara qo‘yadi. Matn o‘z-o‘zidan tushunarli. Darvoqe, u *tashqi asar* (N.D.Tamarchenko) deb ham aytiladi. Badiiy asar estetik ob’ekt (yoki “estetik ob’ektning mazmuni”) sifatida “*badiiy olam*”, “*ijodkorni ham qamrab oladigan ijod*”, “*estetik komponent*” yoki “*obraz*” hisoblanadi. SHuningdek, badiiy asar o‘z arxitektonikasiga (badiiy asar qismlarining o‘zaro muvofiq yaxlit holda uzviy qurilishi) – tugallangan shakliga ega.

Adabiy turlarga berilgan ta’riflardan ularning paydo bo‘lishi sinkretizm chegaralarini anglatishi tushunarli bo‘ladi: chegaralarning borligi shundan guvohlik beradiki, badiiy va nobadiiy reallik chegaralari paydo bo‘ldi. Badiiy olam o‘z ichida differensiatsiyalashdi. Ammo badiiy asar hali mustaqil hodisa sifatida mavjud bo‘lmagan paytda, tarixiy poetika bo‘lg‘usi san’at turlarining (musiqa, qo‘shiq, raqs, teatr, adabiyot) “ibtidosi” va adabiy turlar sinkretik ko‘rinish holatida bo‘lgan, mif va udumlarning tarkibiy qismlari sifatida tashkil topgan edi.

A.N.Veselovskiy tarixiy poetikaga asos solgan olim sifatida adabiy turlar hosil bo‘lishining ilgarigi notarixiy nazariyasini bekor qildi. Veselovskiy adabiy turlarning hosil bo‘lishi haqida Gegel sxemasining asossizligini ko‘rsatdi. Gegel sxemasi bo‘yicha, adabiy turlarning taraqqiyoti ob’ekt (epos)dan sub’ekt (lirika)ga va ularning birikuvi (drama)ga tomon borgan. SHuningdek, A.Veselovskiy, lirika boshqa adabiy turlarga qaraganda ustunlik qiladi, degan romantik qarashlarning asossizligini ham ko‘rsatdi. SHunday qilib, turlarning hosil bo‘lish jarayoni ob’ektivlikdan sub’ektivlikka (yoki aksincha) tomon borgan emas, balki azaldan adabiy turlar bir-biridan ajralib chiqmagan hamda mustaqil holda mavjud bo‘lmagan edi.

Bizga ma’lumki, mif bilan bir qatorda udumlar – arxaik madaniyatning sinkretik shaklidir. Bu o‘rinda udumlarga to‘xtalishimiz bejiz emas. SHubhasiz, udumlar ham adabiy turlar shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. SHuning uchun ayrim olimlar adabiy turlarning ajralib chiqishini A.N.Veselovskiy qarashlaridan boshqacha tarzda talqin qiladilar. E.M.Meletinskiyning aadabiy turlarning, xususan, eposning kelib chiqishi haqida aytgan fikri diqqatga sazovor. Uning fikricha, eposning kelib chiqishi lirika va dramanikidan boshqacha, eposning kelib chiqishida udumlarning aslo roli yo‘q, balki ular mifdan kelib chiqqan. Meletinskiy qadimgi san’atda so‘zning *sakral* xususiyatlariga alohida diqqat qaratish lozimligini ta’kidlaydi. SHu o‘rinda sakral termini haqida. Bu so‘z lotincha bo‘lib, “diniy kult va udumlarga mansub bo‘lgan muqaddaslik” degan ma’noni bildiradi, umuman, xalq og‘zaki ijodida sakral ob’ektlar, jismlar muhim rol o‘ynaydi, ularning udumlarga bog‘liqligi aynan sakrallik xususiyatidan kelib chiqadi. Haqiqatan, bugungi kunda xatti-harakatning va mifning verbal qismi sakral maqomiga hech qanday shubha yo‘q. Albatta, A.N.Veselovskiy va E.M.Meletinskiyning epos alohida tur sifatida ajralib chiqishiga oid qarashlari qanchalik o‘zini oqlashi haqida kelgusidagi tadqiqotlar natijasida bir qarorga kelish mumkin. Lekin shuni aytish kerakki. mif asosan verbal xususiyatga ega ekan, udumlar, kult yoki sakral ob’ektlar mifning shakllanishiga turtki bergan degan mulohazani o‘rtaga tashlamoqchimiz. Masalan, totemistik, kosmogonik yoki boshqa mif turlarining paydo bo‘lishi shunday fikrga olib keladi.

X1X-XX asr Evropa adabiyotshunosligi asosan antik adabiyotni asos qilib oldi va buning natijasida grek va rim adabiyoti tarixi tarixiy poetika sohasida ham asosiy mezon bo‘lib qoldi. Hatto A.N. Veselovskiy ham antik yunon adabiyoti taraqqiyotini mezon sifatida qaragan edi: “Grek adabiyoti taraqqiyoti tarixi bizga taxminiy adabiy turlarning izchil ravishda ajralib chiqish manzarasini namoyon qiladi. Biz epos, lirika, drama va romanda o‘ziga xos ifodani izlaydigan va topadigan ma’lum ijtimoiy va badiiy talablarning sahnadagi tarixi, aksi hisoblangan har bir turni bilib,

umumlashtirishga beixtiyor moyil boʻlamiz”[36]. Ammo sanskrit, arab, fors va b. sharq adabiy manbalari Evropa tarixiy poetikasi uchun asos sifatida etarli darajada qabul qilinmadi. SHu bois A.Veselovskiyning yuqoridagi qarashlarini ham tanqidiy oʻrganish taqozo etiladi. CHunki Bibliyaning shakllanishi, shumerlarning “Gilgamish” dostoni, hindlarning “Moxobxorot” va “Ramyana” dostonlari, “Avesto”ning miloddan oldingi II ming yillikning boshlarida yaratilgan qatlami yunon adabiyotidan qadimiyligini hisobga olsak, adabiy turlarning tarixiy jarayonini oʻrganishda SHarq adabiyotiga ham e’tibor berish zarurligi ayon boʻladi. Birgina “Oltun yorugʻ”ning badiiy tuzilishi va adabiy janrlarning shakllangani milodiy birinchi ming yillik oxiridagi sanskrit adabiyotida sinkretizmning qonuniyatlarini belgilaydigan manba boʻlib yuzaga chiqadi.

A.N. Veselovskiyning qarashicha, eposlarning shakllanishida kantilenlar asosiy omil boʻlgan. Ammo kantilenlar eposning adabiy tur sifatida ajralib chiqqan ilk davriga emas, balki liro-epik qoʻshiqlar paydo boʻlgan davrlarga aloqador. Kantilenlar tarixiy voqealar asosida paydo boʻladi. Eposning kelib chiqishini tarixiy voqealarga bogʻlar ekanmiz, yilnomalardagi tarixni nazarda tutish kerak emas. Masalan, Rossiyalik nemislardan Vollnerning kuzatishlari epos va tarix munosabatlarini aniqroq ochib beradi. Vollnerning fikricha, eposlarning taraqqiyoti yilnomalarda berilgan voqealarning mazmunini tamomila oʻzgartirib berish natijasi bilan bogʻliq. Aslida eposda oʻzgartirib berilgan voqealar yilnomada dalil sifatida keltirilgan. Vollner, qadimgi rus she’riyatida Oleg (“Igor jangnomasi”dagi Oleg Svyatoslavovich)ning va Vladimir Monomaxning ishlari toʻgʻrisida, shuningdek, koʻp tarixiy shaxslar haqida koʻplab qoʻshiqlar yaratilgan, deb taxmin qiladi va bu qoʻshiqlarda tarix yozgan yilnomachidan koʻra koʻproq ma’lumotlar berilgan. Ammo bu ma’lumotlar tarixiy emas, balki qoʻshiqchi (oʻzbek xalq ogʻzaki ijodidagi baxshi) ning ijodi mahsuli hisoblanadi. Vollner xalq qoʻshiqlari bilan yilnomalarni solishtirgan va ularoʻrtasida moslik topa olmagach, shunday xulosaga kelgan: “Qoʻshiqlarning mazmuni ertaklarnikiga oʻxshaydi, bu qoʻshiqlarning qahramonlari tarixiy nomlarni olgan, xolos”.

8-mavzu

## Mifologiya va yozma adabiyot munosabatlari

Ammo muarrix yilnomachi e’tibor bergan voqealarga qoʻshiqchi ham e’tibor berganmikan, degan savol paydo boʻlishi tabiiy. Albatta, qoʻshiqchining vazifasi, xuddi bugungi tarixiy romanlardagi singari, qahramon atrofida tarix yaratish emas, balki xalq qoʻshiqlaridagi qahramonni ideallashtirish, uning xalq qoʻshiqlarida yorqin obrazini yaratish, unga katta ijtimoiy vazifa yuklash, xalqning dardi bilan yashovchi qahramon sifatida koʻrsatish va hokazolar bilan bogʻliq, ya’ni qoʻshiqchi agarda yilnoma bilan yaxshi tanish boʻlsa ham, soʻzsiz oʻz nuqtai nazari boʻyicha qahramonga munosabatini bildiradi. Masalan, qadimgi fransuz xalq qoʻshiqlarining juda koʻpchiligi

[36] Веселовский А.Н. Историческвя поэтика..., 65-бет.

Buyuk Karlga bag‘ishlangan. Keyingi asrlarda ham tarixiy shaxslar atrofida fransuz xalq qo‘shiqlari yaratilgan, Buyuk Karl haqidagi qo‘shiqlar bilan o‘sha tarixiy shaxslar haqidagi qo‘shiqlar qo‘shilib ketgan, Buyuk Karl boshqa “epik qahramonlarning elkasida katta bo‘lgan”.

YUqoridagi tarixiy va xalq qo‘shiqlarining mnosabatidan kelib chiqqan holda, kantilenlarning vazifasi haqida shuni aytish kerakki, qo‘shiqchi bitta shaxs yoki voqea haqida bitta emas, balki bir necha qo‘shiqni bilgan. Qo‘shiqchi sho‘a qo‘shiqlarni qatorasiga kuylayvergan, natijada bitta qahramon yoki voqea yuz bergan joy (masalan, Borodino jangi) haqida qo‘shiqlar turkumi yaratilgan. Ayniqsa, serb xalq qo‘shiqchisi Vuka Karadjichning (X1X asr) arxividagi xalq qo‘shiqlari bu jihatdan nihoyatda diqqatga sazovor. Uning arxivida qadimgi davrga oid qo‘shiqlar orasida bur turkum qo‘shiqlar uchraydi. Masalan, shoh Lazar va shahzoda Markoga bag‘ishlangan qo‘shiqlar shular jumlasidandir. “Knyaz Lazarning qasami”, “SHoh Lazar va malika Militsa”, “SHahzoda Marko uylanadi”, “SHahzoda Marko otasining qilichini taniydi”, “SHahzoda Marko va Muso qaroqchi”, “Marko ramazon oyida may ichadi”, “SHahzoda Marko er haydaydi” kabi qator qo‘shiqlardan ham yilnomalardagi tarixiy voqealarni talab qilib bo‘lmaydi. Xuddi kantilenlar singari liro-epik xarakterdagi qo‘shiqlardir. Agar bu qahramonlarga bag‘ishlangan qo‘shiqlar birlashtirilsa, epos hosil bo‘lishi tabiiy. Ammo bu qahramonlar haqidagi qo‘shiqlarni turli qo‘shiqchilar ijro etganlar. Demak, kantilenlardan eposga o‘tish jarayoni bir necha qo‘shiqni bitta ijrochi kuylashiga bog‘liq emas ekan. Qo‘shiqlarni turkumlashtirish natijasida Roland haqida qo‘shiq, Nibelunglar haqida qo‘shiq kabi qadimgi dostonlarning shakllanishi haqida ham muhim izohlarni va talqinlarni topishimiz mumkin.

Turkiy xalqlarda kantilenlardan epos hosil bo‘lishiga oiiboratiboratd eng yaxshi misol “Dada Qo‘rqut” kitobidir. Bu kitobiy doston bo‘lib, XV asrda yozib qoldirilgan. Doston o‘n ikki qo‘shiq (*boy*)dan tashkil topgan. Har bir qo‘shiq mustaqil asar bo‘lgani holda birlashtirilib, dostonni hosil qilgan. Zotan, har bir qo‘shiqning qahramoni bitta – Qo‘rqut ota.

Kantilenlar birlashib, yirik epik asar hosil qilishi uchun xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lishi shart emas. Hamma gap – asar qahramonining yagonaligida. Masalan, Bibliya, “Avesto”, “Manas” kabi yirik asarlar kantilenlar asosida hosil bo‘lgan deb qarash mumkin. Bibliya tarkibidagi oltmish oltita kitobning qahramoni – YAhve (ya’ni Xudo), “Avesto”ning bosh qahramoni – Zardusht, “Manas” eposining bosh qahramoni – Manas. Gap bu asarlarning katta hajmdaligida emas, balki bir necha asrlar davomida qo‘shiqlar shakllana borib, har bir qo‘shiq bitta qahramon atrofida birlashadi. Masalan, Bibliyaning ilk syujetlari miloddan oldingi X1V- XIII boshlarida shakllana boshlagan. Miloddan oldingi 1X asrda esa ilk bor yozib olina boshlagan. Taxminan milodning I asr oxiri – II asr boshlarida yakunlangan va yaxlit kitob holiga keltirilgan. Biz uchun kitoblardagi aqidalar muhim emas, balki bir necha kitoblardan yaxlit bir kitobning hosil bo‘lish yo‘llari, usullari, Bibliya tarkibidagi har bir kitob Musoning Tavrotidagi aqidalarni izchil davom ettirishi muhimdir. YAhve obrazi Musoning Ibtido qitobida bor edi va oxirgi kitob – Vahiy kitobigacha bu obraz davom etgan. Buning natijasida g‘oya va maqsad jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan kitoblar birlashtirilib, Bibliyani hosil qilgan.

“Avesto” ning shakllanishi haqida ham shunday gapni aytish mumkin. Asarning qadimiy qatlami Gohlarning paydo bo‘lishi va boshqa qismlarining shakllanib, yaxlit asar “Avesto”ni yuzaga keltirishi eposlarning shakllanish jarayonini o‘zida ifoda etadi. Asarni tashkil qilgan qo‘shiqlar, bo‘limlar, fargard va hokazolar aynan kantilenlarni o‘zida ifoda etadi. SHuning uchun bu har ikkala asar ham kantilenlardan tashkil topgan deb aytish mumkin.

## Mifologiya va yozma adabiyot. Epik asarlar tarkibidagi mifologik unsurlar

Tarixiy poetikaning o‘rganish ob’ektlaridan biri mifologiya masalasi ilk bor A.N.Veselovskiy tomonidan qo‘yilgan. U psixologik parallelizmning paydo bo‘lish yo‘llari haqida so‘z yuritar ekan: “SHe’r tili eng qadimgi psixologik jarayonni davom ettiradi: u til obrazlari va mifdan, ularning metaforalari va ramzlaridan foydalanadi, ayni paytda ularga o‘xshash yangilarini ham yaratadi”.[37] Psixologik parallelizm bilan mifning o‘zaro aloqasi ramzlarni hosil qiladi. Miflar ilk badiiy tafakkur manbai bo‘lgani uchun ham tarixiy poetikaning ob’ekti hisoblanadi.

Avvalo, mif nima degan savolga javob beramiz. Ko‘pincha, mif – bu afsonadir, deb talqin qiladilar. Aslida mif yunoncha so‘z bo‘lib, “afsona” ma’nosini bildiradi. Antik miflarda yuksak badiiy mazmun saqlangan. Badiiy tafakkurning ilk bosqichida mif shakllangan. Afsona esa mif zaminida paydo bo‘lgani shubhasiz. Mifning qoldiqlari (reliktlari) afsonalarga, hatto tarixiy rivoyatlarga turtki beradi va ularning zaminida mif qoldiqlari saqlanishi mumkin.

Mifologiya ilk timsollar olami va ruhiy materiyadir. Ammo mifologiyani yaratganlar uchun u shunchaki ishonchli yoki haqiqiy bo‘lmagan. Ammo ibtidoiy inson uchun mifologiya ob’ektiv borliq hisoblangan. Masalan, biz uchun bir yil 365 yoki 366 kundan iborat degan tushuncha qanchalik haqiqat hisoblansa, ibtidoiy inson uchun ham mifda aks etgan voqealik shunchalik haqiqiy hisoblangan.

Miflar ham anonim asarlar bo‘lib, jamoaviy tarzda yaratilgan. Ibtidoiy insonlar uchun mif badiiy asar hisoblanmagan, ya’ni ular mif yaratganlarida badiiy asar yaratyapmiz, deb o‘ylamaganlar.

Mifologiya – bu avlodlarning mulki bo‘lib, avloddan - avlodga o‘tib kelgan ilk obrazlar olamidir. Ilk obraz – tafakkurning obrazidir. Har qanday obrazdan bir ajralib chiqa olamiz, uni unutishimiz mumkin. Ammo ilk obrazdan, garchi mumkin bo‘lsa ham ajralish mumkin emas, uning ta’sirini boshdan kechirmaslik ham mumkin emas. Ilk obraz – bu tafakkurning “ko‘zi”. Biz ko‘z bilan ko‘ramiz, ammo ko‘zimizni ko‘rmaymiz. Ilk obraz ham shunday: biz ilk obraz yordamida anglaymiz yoki fikr yuritamiz, ammo ilk obrazning o‘zi fikrlashi - xuddi ko‘z o‘zini ko‘ra olmaganday gap. Buni xuddi oynaga o‘xshatish mumkin. Oynada biz o‘zimizni o‘zimiz ko‘ra olamiz. O‘zimizning qiyofamiz – ilk obrazlardan biridir.

Mifologik fikrlash – jamoaviy fikrlashdir. Mifologiya inson fikrlashining dastlabki shakli bo‘lib, fikrlashning yanada rivojlangan shakllariga – diniy, badiiy,

---
[37] Веселовский А.Н. Историческая поэтика..., 133- бет.

falsafiy. Ilmiy fikrlashga manba boʻldi. Bularning hammasi mifologik fikrlashning “gʻishtchalari”dan tarkib topgan. Gegel miflarni inson naslining pedagogikasi deb atagan edi. Miflar maʼnaviy madaniyatning oʻziga xos materiyasi hisoblanadi.

Mifologiyaga YAngi davrda qiziqish Amerikaning kashf qilinishi bilan yanada kuchaydi. XVIII asrda fransuz missioneri J.F.Lafito SHimoliy Amerika hindulari turmush tarzini ilk bor tadqiq qiluvchilardan biri boʻldi. SHundan boshlab dunyoning turli joylaridagi xalqlar miflarini qiyoslash imkoni paydo boʻldi va qiyosiy mifologiyaga asos solindi. Qiyosiy mifologiyani oʻrganishda koʻproq miflarning oʻxshashligiga, qadimda ularning kelib chiqishi qonuniy xarakteriga eʼtibor qaratildi. Italyan faylasufi Dj. Viko mifologiyani chuqur tadqiq etdi. U miflarni “ilohiy poeziya” sifatida qaradi. Uning mif falsafasi mifologiyani oʻrganishda kelgusidagi deyarli hamma yoʻnalishlarning boshlanishini oʻz ichiga qamrab oldi.

Miflarni ratsional talqin qilishga ilk urinishlar ularni allegoriya sifatida tushunish bilan bogʻliqdir. Tadqiqotchilar miflarda qochirimlarni, oʻgitlarni, oʻxshatishlarni, ishoralarni koʻrdilar. Miflarga bunday yondashuvning yorqin namunasini tajribaviy bilimlar metodologiyasining asoschisi F. Bekonda koʻramiz. U “Qadimgilar donishmandligi haqida” risolasida antik miflarni va ularda yashiringan donishmandlikni bayon qildi. U miflarning mohiyatini quyidagicha oʻxshatish orqali ifodalagan edi: “Miflar menda shunday taassurot qoldiradiki, yaxshi siqib olinmagan bir bosh uzumdan nimadir olingan, ammo eng yaxshi qismi qolib ketib, foydalanilmaganday tuyuladi”.

Ibtidoiy davrda mif olamning anglashning asosiy usuli hisoblangan. Mif oʻzi yaratilgan davrda olamni his qilish va anglashni ifodalagan.

X1X asrda bir qator mifologik maktablar, nazariyalar shakllandi. Jumladan, mifologiyada Angliya antropologiya maktabi (E. Taylor, J. Frezer, Dj. Xarrison, S.E.Xeyman va b.) ritualizm va funksionalizmni, fransuz sotsiologiya maktabi (E.Dyurkgeym, Levi Bryul) diniy-mifologik fikrlashni, nemis ritual maktabi (E.Kassirer) simvolizm nazariyasini shakllantirdi. Mifologik maktablar tarixiy poetika uchun unchalik ahamiyatli boʻlmagani uchun bu haqda toʻxtalmaymiz.

## 9-mavzu
## Qadimgi SHarq adabiyoti poetikasi masalalari

Tarixiy poetikaning oʻrganish obʼektlaridan biri mifologiya masalasi ilk bor A.N.Veselovskiy tomonidan qoʻyilgan. U psixologik parallelizmning paydo boʻlish yoʻllari haqida soʻz yuritar ekan: “SHeʼr tili eng qadimgi psixologik jarayonni davom ettiradi: u til obrazlari va mifdan, ularning metaforalari va ramzlaridan foydalanadi, ayni paytda ularga oʻxshash yangilarini ham yaratadi”.[38] Psixologik parallelizm bilan mifning oʻzaro aloqasi ramzlarni hosil qiladi. Miflar ilk badiiy tafakkur manbai boʻlgani uchun ham tarixiy poetikaning obʼekti hisoblanadi.

[38] Веселовский А.Н. Историческая поэтика..., 133- бет.

Avvalo, mif nima degan savolga javob beramiz. Ko‘pincha, mif – bu afsonadir, deb talqin qiladilar. Aslida mif yunoncha so‘z bo‘lib, “afsona” ma’nosini bildiradi. Antik miflarda yuksak badiiy mazmun saqlangan.

Badiiy tafakkurning ilk bosqichida mif shakllangan. Afsona esa mif zaminida paydo bo‘lgani shubhasiz. Mifning qoldiqlari (reliktlari) afsonalarga, hatto tarixiy rivoyatlarga turtki beradi va ularning zaminida mif qoldiqlari saqlanishi mumkin.

Mifologiya ilk timsollar olami va ruhiy materiyadir. Ammo mifologiyani yaratganlar uchun u shunchaki ishonchli yoki haqiqiy bo‘lmagan. Ammo ibtidoiy inson uchun mifologiya ob’ektiv borliq hisoblangan. Masalan, biz uchun bir yil 365 yoki 366 kundan iborat degan tushuncha qanchalik haqiqat hisoblansa, ibtidoiy inson uchun ham mifda aks etgan voqealik shunchalik haqiqiy hisoblangan.

Miflar ham anonim asarlar bo‘lib, jamoaviy tarzda yaratilgan. Ibtidoiy insonlar uchun mif badiiy asar hisoblanmagan, ya’ni ular mif yaratganlarida badiiy asar yaratyapmiz, deb o‘ylamaganlar.

Mifologiya – bu avlodlarning mulki bo‘lib, avloddan - avlodga o‘tib kelgan ilk obrazlar olamidir. Ilk obraz – tafakkurning obrazidir. Har qanday obrazdan bir ajralib chiqa olamiz, uni unutishimiz mumkin. Ammo ilk obrazdan, garchi mumkin bo‘lsa ham ajralish mumkin emas, uning ta’sirini boshdan kechirmaslik ham mumkin emas. Ilk obraz – bu tafakkurning “ko‘zi”. Biz ko‘z bilan ko‘ramiz, ammo ko‘zimizni ko‘rmaymiz. Ilk obraz ham shunday: biz ilk obraz yordamida anglaymiz yoki fikr yuritamiz, ammo ilk obrazning o‘zi fikrlashi - xuddi ko‘z o‘zini ko‘ra olmaganday gap. Buni xuddi oynaga o‘xshatish mumkin. Oynada biz o‘zimizni o‘zimiz ko‘ra olamiz. O‘zimizning qiyofamiz – ilk obrazlardan biridir.

Mifologik fikrlash – jamoaviy fikrlashdir. Mifologiya inson fikrlashining dastlabki shakli bo‘lib, fikrlashning yanada rivojlangan shakllariga – diniy, badiiy, falsafiy. Ilmiy fikrlashga manba bo‘ldi. Bularning hammasi mifologik fikrlashning “g‘ishtchalari”dan tarkib topgan. Gegel miflarni inson naslining pedagogikasi deb atagan edi. Miflar ma’naviy madaniyatning o‘ziga xos materiyasi hisoblanadi.

Mifologiyaga YAngi davrda qiziqish Amerikaning kashf qilinishi bilan yanada kuchaydi. XVIII asrda fransuz missioneri J.F.Lafito SHimoliy Amerika hindulari turmush tarzini ilk bor tadqiq qiluvchilardan biri bo‘ldi. SHundan boshlab dunyoning turli joylaridagi xalqlar miflarini qiyoslash imkoni paydo bo‘ldi va qiyosiy mifologiyaga asos solindi. Qiyosiy mifologiyani o‘rganishda ko‘proq miflarning o‘xshashligiga, qadimda ularning kelib chiqishi qonuniy xarakteriga e’tibor qaratildi. Italyan faylasufi Dj. Viko mifologiyani chuqur tadqiq etdi. U miflarni “ilohiy poeziya” sifatida qaradi. Uning mif falsafasi mifologiyani o‘rganishda kelgusidagi deyarli hamma yo‘nalishlarning boshlanishini o‘z ichiga qamrab oldi.

Miflarni ratsional talqin qilishga ilk urinishlar ularni allegoriya sifatida tushunish bilan bog‘liqdir. Tadqiqotchilar miflarda qochirimlarni, o‘gitlarni, o‘xshatishlarni, ishoralarni ko‘rdilar. Miflarga bunday yondashuvning yorqin namunasini tajribaviy bilimlar metodologiyasining asoschisi F. Bekonda ko‘ramiz. U “Qadimgilar donishmandligi haqida” risolasida antik miflarni va ularda yashiringan donishmandlikni bayon qildi. U miflarning mohiyatini quyidagicha o‘xshatish orqali ifodalagan edi: “Miflar menda shunday taassurot qoldiradiki, yaxshi siqib olinmagan

bir bosh uzumdan nimadir olingan, ammo eng yaxshi qismi qolib ketib, foydalanilmaganday tuyuladi”.

Ibtidoiy davrda mif olamning anglashning asosiy usuli hisoblangan. Mif o‘zi yaratilgan davrda olamni his qilish va anglashni ifodalagan.

X1X asrda bir qator mifologik maktablar, nazariyalar shakllandi. Jumladan, mifologiyada Angliya antropologiya maktabi (E. Taylor, J. Frezer, Dj. Xarrison, S.E.Xeyman va b.) ritualizm va funksionalizmni, fransuz sotsiologiya maktabi (E.Dyurkgeym, Levi Bryul) diniy-mifologik fikrlashni, nemis ritual maktabi (E.Kassirer) simvolizm nazariyasini shakllantirdi. Mifologik maktablar tarixiy poetika uchun unchalik ahamiyatli bo‘lmagani uchun bu haqda to‘xtalmaymiz.

**Mif va adabiyot**. Mif va adabiyot doimo aloqada bo‘lib kelgan, mif adabiyotga muttasil ravishda ta’sir o‘tkazgan. SHuningdek, bu singari ta’sir bilvosita tasviriy san’at, udumlar, xalq bayramlari, diniy odatlar orqali namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ertaklarda, eposlarning arxaik syujetlarida miflarning ta’siri yaqqol seziladi. Xalq qo‘shiqlari tafakkur tarzi bo‘yicha mifologiyaga tortadi, san’at turi sifatida esa adabiyotga tutashadi.

Keyingi asrlarda mifologiyaning ilmiy konsepsiyasi, estetik va falsafiy ta’limoti shakllandi, mifologiya folklorshunoslikning alohida bir yo‘nalishi sifatida o‘rganiladigan bo‘ldi.

Mif va yozma adabiyotning o‘zaro munosabati ikki aspektda – evolyusion va tipologik aspektda qaralishi mumkin. Evolyusion aspekt mif haqidagi tasavvurlarni tarixiy jihatdan yozma adabiyot paydo bo‘lmasdan oldingi tafakkurning ma’lum bosqichi sifatida qaraydi. Adabiyot bu nuqtai nazardan faqat mifning “buzilgan”, ya’ni relikt shakllari bilan munosabatda bo‘ladi. Ilk yozma adabiyotdagi, eposlardagi, xalq qo‘shiqlaridagi ramziy obrazlar, metafora, eposlarning arxaik syujetlari bunga misoldir.

Mifologik maktab vakillari orasida simvolik nazariya etkachilik qildi va hozir ham davom etmoqda. Masalan. I.G.Gerder mifni talqin qilganda, aynan simvolik nazariyani ilgari surdi.

Tarixiy poetikaning o‘rganish ob’ektlaridan biri mifologiya masalasi ilk bor A.N.Veselovskiy tomonidan qo‘yilgan. U psixologik parallelizmning paydo bo‘lish yo‘llari haqida so‘z yuritar ekan: “SHe’r tili eng qadimgi psixologik jarayonni davom ettiradi: u til obrazlari va mifdan, ularning metaforalari va ramzlaridan foydalanadi, ayni paytda ularga o‘xshash yangilarini ham yaratadi”.[39] Psixologik parallelizm bilan mifning o‘zaro aloqasi ramzlarni hosil qiladi. Miflar ilk badiiy tafakkur manbai bo‘lgani uchun ham tarixiy poetikaning ob’ekti hisoblanadi.

Avvalo, mif nima degan savolga javob beramiz. Ko‘pincha, mif – bu afsonadir, deb talqin qiladilar. Aslida mif yunoncha so‘z bo‘lib, “afsona” ma’nosini bildiradi. Antik miflarda yuksak badiiy mazmun saqlangan.

Badiiy tafakkurning ilk bosqichida mif shakllangan. Afsona esa mif zaminida paydo bo‘lgani shubhasiz. Mifning qoldiqlari (reliktlari) afsonalarga, hatto tarixiy rivoyatlarga turtki beradi va ularning zaminida mif qoldiqlari saqlanishi mumkin.

---

[39] Веселовский А.Н. Историческая поэтика..., 133- бет.

Mifologiya ilk timsollar olami va ruhiy materiyadir. Ammo mifologiyani yaratganlar uchun u shunchaki ishonchli yoki haqiqiy bo‘lmagan. Ammo ibtidoiy inson uchun mifologiya ob’ektiv borliq hisoblangan. Masalan, biz uchun bir yil 365 yoki 366 kundan iborat degan tushuncha qanchalik haqiqat hisoblansa, ibtidoiy inson uchun ham mifda aks etgan voqealik shunchalik haqiqiy hisoblangan.

Miflar ham anonim asarlar bo‘lib, jamoaviy tarzda yaratilgan. Ibtidoiy insonlar uchun mif badiiy asar hisoblanmagan, ya’ni ular mif yaratganlarida badiiy asar yaratyapmiz, deb o‘ylamaganlar.

Mifologiya – bu avlodlarning mulki bo‘lib, avloddan - avlodga o‘tib kelgan ilk obrazlar olamidir. Ilk obraz – tafakkurning obrazidir. Har qanday obrazdan bir ajralib chiqa olamiz, uni unutishimiz mumkin. Ammo ilk obrazdan, garchi mumkin bo‘lsa ham ajralish mumkin emas, uning ta’sirini boshdan kechirmaslik ham mumkin emas. Ilk obraz – bu tafakkurning “ko‘zi”. Biz ko‘z bilan ko‘ramiz, ammo ko‘zimizni ko‘rmaymiz. Ilk obraz ham shunday: biz ilk obraz yordamida anglaymiz yoki fikr yuritamiz, ammo ilk obrazning o‘zi fikrlashi - xuddi ko‘z o‘zini ko‘ra olmaganday gap. Buni xuddi oynaga o‘xshatish mumkin. Oynada biz o‘zimizni o‘zimiz ko‘ra olamiz. O‘zimizning qiyofamiz – ilk obrazlardan biridir.

Mifologik fikrlash – jamoaviy fikrlashdir. Mifologiya inson fikrlashining dastlabki shakli bo‘lib, fikrlashning yanada rivojlangan shakllariga – diniy, badiiy, falsafiy. Ilmiy fikrlashga manba bo‘ldi. Bularning hammasi mifologik fikrlashning “g‘ishtchalari”dan tarkib topgan. Gegel miflarni inson naslining pedagogikasi deb atagan edi. Miflar ma’naviy madaniyatning o‘ziga xos materiyasi hisoblanadi.

Mifologiyaga YAngi davrda qiziqish Amerikaning kashf qilinishi bilan yanada kuchaydi. XVIII asrda fransuz missioneri J.F.Lafito SHimoliy Amerika hindulari turmush tarzini ilk bor tadqiq qiluvchilardan biri bo‘ldi. SHundan boshlab dunyoning turli joylaridagi xalqlar miflarini qiyoslash imkoni paydo bo‘ldi va qiyosiy mifologiyaga asos solindi. Qiyosiy mifologiyani o‘rganishda ko‘proq miflarning o‘xshashligiga, qadimda ularning kelib chiqishi qonuniy xarakteriga e’tibor qaratildi. Italyan faylasufi Dj. Viko mifologiyani chuqur tadqiq etdi. U miflarni “ilohiy poeziya” sifatida qaradi. Uning mif falsafasi mifologiyani o‘rganishda kelgusidagi deyarli hamma yo‘nalishlarning boshlanishini o‘z ichiga qamrab oldi.

Miflarni ratsional talqin qilishga ilk urinishlar ularni allegoriya sifatida tushunish bilan bog‘liqdir. Tadqiqotchilar miflarda qochirimlarni, o‘gitlarni, o‘xshatishlarni, ishoralarni ko‘rdilar. Miflarga bunday yondashuvning yorqin namunasini tajribaviy bilimlar metodologiyasining asoschisi F. Bekonda ko‘ramiz. U “Qadimgilar donishmandligi haqida” risolasida antik miflarni va ularda yashiringan donishmandlikni bayon qildi. U miflarning mohiyatini quyidagicha o‘xshatish orqali ifodalagan edi: “Miflar menda shunday taassurot qoldiradiki, yaxshi siqib olinmagan bir bosh uzumdan nimadir olingan, ammo eng yaxshi qismi qolib ketib, foydalanilmaganday tuyuladi”.

Ibtidoiy davrda mif olamning anglashning asosiy usuli hisoblangan. Mif o‘zi yaratilgan davrda olamni his qilish va anglashni ifodalagan.

X1X asrda bir qator mifologik maktablar, nazariyalar shakllandi. Jumladan, mifologiyada Angliya antropologiya maktabi (E. Taylor, J. Frezer, Dj. Xarrison,

S.E.Xeyman va b.) ritualizm va funksionalizmni, fransuz sotsiologiya maktabi (E.Dyurkgeym, Levi Bryul) diniy-mifologik fikrlashni, nemis ritual maktabi (E.Kassirer) simvolizm nazariyasini shakllantirdi. Mifologik maktablar tarixiy poetika uchun unchalik ahamiyatli boʻlmagani uchun bu haqda toʻxtalmaymiz.

**Mif va adabiyot**. Mif va adabiyot doimo aloqada boʻlib kelgan, mif adabiyotga muttasil ravishda ta’sir oʻtkazgan. SHuningdek, bu singari ta’sir bilvosita tasviriy san’at, udumlar, xalq bayramlari, diniy odatlar orqali namoyon boʻladi. Ayniqsa, ertaklarda, eposlarning arxaik syujetlarida miflarning ta’siri yaqqol seziladi. Xalq qoʻshiqlari tafakkur tarzi boʻyicha mifologiyaga tortadi, san’at turi sifatida esa adabiyotga tutashadi.

Keyingi asrlarda mifologiyaning ilmiy konsepsiyasi, estetik va falsafiy ta’limoti shakllandi, mifologiya folklorshunoslikning alohida bir yoʻnalishi sifatida oʻrganiladigan boʻldi.

Mif va yozma adabiyotning oʻzaro munosabati ikki aspektda – evolyusion va tipologik aspektda qaralishi mumkin. Evolyusion aspekt mif haqidagi tasavvurlarni tarixiy jihatdan yozma adabiyot paydo boʻlmasdan oldingi tafakkurning ma’lum bosqichi sifatida qaraydi. Adabiyot bu nuqtai nazardan faqat mifning “buzilgan”, ya’ni relikt shakllari bilan munosabatda boʻladi. Ilk yozma adabiyotdagi, eposlardagi, xalq qoʻshiqlaridagi ramziy obrazlar, metafora, eposlarning arxaik syujetlari bunga misoldir.

Mifologik maktab vakillari orasida simvolik nazariya etkachilik qildi va hozir ham davom etmoqda. Masalan. I.G.Gerder mifni talqin qilganda, aynan simvolik nazariyani ilgari surdi.

## 10-mavzu
## Janrlar poetikasi

Qadimgi SHarq adabiyotidagi janrlar belgilarida ham qisman antik janrlar xususiyatlarini koʻrish mumkin.

“Oltin yorugʻ”ning janr xususiyatlari toʻgʻrisida dastlab S.E.Malov oʻz munosabatini bildirgan.

Markaziy Osiyo hududida istiqomat qilgan qadimiy qavmlarning ijtimoiy hayoti, madaniy–ma’naviy hayot tarzi arxeologik materiallardan koʻra, yozma manbalarda toʻlaqonli oʻz aksini topgan. Qadimiy yozma manbalarni yozma adabiyot sifatida talqin va tahlil etish, ularning janr xususiyatlarini belgilash masalasi hali kun tartibiga qoʻyilgan emas.

Ma’lumki, yozma matnlarni janrlarga ajratishda turli belgilarga tayaniladi. Sof adabiy belgilarga asoslangan holda janrlarga ajratish – keyingi hodisa. SHu bois adabiyot tarixi oldida shunday vazifa turadi: faqat janrlarning oʻzini emas, balki janrlarga ajratish tamoyillarini oʻrganish, alohida janrlar va ularning tarixini emas, balki ma’lum davrdagi janrlar tizimini oʻrganish ma’lum natijalarga olib keladi. Ilk mumtoz davr(X1 asr)dan keyingi janrlarni tizim holida oʻrganish borasida ma’lum natijalarga erishilgan. Ammo ilgariga borgan sari adabiy janrlarga ajratish tamoyillari

murakkablashib boraveradi. Zotan, yozma yodgorliklar adabiy vazifadan tashqari, noadabiy vazifalarni ham u yoki bu darajada bajaradi[18]. “Xuastuanift”, “Oltun yorug‘” asarlari bunga bir misoldir. Bu yozma yodgorliklarning qaysi janrga mansubligini aniqlashtirishda aniq bir fikr yo‘q. Mazkur yozma yodgorliklarning qaysi janrga mansubligini belgilashda ularni yuzaga keltirgan ijtimoiy–madaniy muhitni ham nazarda tutish kerak. Darvoqe, mazkur yodgorliklarning noadabiy vazifasi – ma’lum diniy oqimlarni keng omma orasiga yoyish va insoniyatni ezgulikka etaklash vazifasi ham yozma yodgorliklarning alohida janr sifatida shakllanishida xizmat qilgan.
“Xuastuanift” moniylik oqimi va uning aqidalarini bayon qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan asardir. Asarning yig‘ma matnini nashrga tayyorlagan L. V.Dmitrieva “moniylarning tavba ibodati” degan ta’rif bilan cheklanadi.[19] Uning vazifasi “Xuastuanift”ning to‘liq matnini tiklash bo‘lgan edi. S.E.Malov ham bu yozma yodgorlikning parchasini e’lon qilganda, “ibodat” terminini ishlatadi. “Ibodat” qadimgi turkiy adabiyotda janr belgilariga egami, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga javob berishda, shubhasiz, janrlar to‘g‘risidagi bugungi mezonlar ahamiyatli bo‘la olmaydi. Bu davrdagi janrlarni aniqlashda yozma yodgorlikning o‘zidan olingan terminga e’tibor qaratish va janrni o‘sha termin bilan atash o‘rinli bo‘ladi. “Xuastuanift”ning har bir bo‘limi so‘ngida muallif moniy jamoasi a’zolarining ilgari qilgan gunohlari uchun Tangri Xo‘rmuzdga iltijo qilib, *otunch* (iltijo) terminidan foydalanadi va tavba qiladi. Bizningcha, ana shu termin “Xuastuanift”ning janr xususiyatini o‘zida ifoda etadi. Har bir bo‘limning mazmunidan kelib chiqqan holda, muallif o*tunch* terminini takrorlaydi.

Qadimgi turkiy adabiyotda ham janrlar bir–biriga bog‘liqsiz yashay olmaydi, ular o‘zaro munosabatda bo‘lgan holda bir tizimni hosil qiladi.

“Oltun yorug‘” asari esa, “Xuastuanift”dan farqli ravishda, *sudur*lardan tashkil topganligini yuqorida aytdik. Sudur adabiy janr sifatida rus adabiyotshunoslari tomonidan qayd etilgan.[20] Ammo “Oltun yorug‘” faqat sudurlardan iborat emas, balki asar boshida va oxirida, har bir bo‘limda afsonalar, hikoyatlar bor. “Sudur” janri, bizningcha, bu ikkala afsonani qamrab ololmaydi. Buning ustiga, “Oltun yorug‘” xuddi “Qutadg‘u bilig”dagi singari syujet qurilishiga ega ekanini ko‘ramiz. Tangrilar tangrisi burxon bilan Xo‘rmuzd o‘rtasidagi savol–javob shundan dalolat beradi. Xullas, “Oltun yorug‘”ning “Qutadg‘u bilig” bilan bir janr doirasida qarash o‘rinli.

Antik davr janr xususiyatlari to‘g‘risida so‘z ketganda, grek adabiyotidagi janr qonuniyatlari dunyo xalqlari adabiyoti janrlari uchun mezon emas. Biz adabiyotni davrlashtirganimizda, eydetik bosqich to‘g‘risida so‘z yuritgan edik. Eydetik poetika davri Evropada qadimgi grek adabiyotidagi janrlar tizimi shakllanishidan boshlanadi. So‘ngra o‘rta asar adabiyotlarida janrlar shakllanishining uzundan-uzoq davri boshlanadi. XVI-XVII asrlarda milliy adabiyotlarning badiiy tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan janrlarning antik tizimi tiklanishi yuz beradi. Xuddi antik davrga

---

[18] Лихачев Д.С.. Исследования по древнерусской литературе. – Л.: “Наука” ЛО, 1986, с.57.
[19] Дмитриева Л. В.. Хуастуанифт (введение, текст, перевод). – “Тюркологические исследования”, изд. АН СССР, М.: –Л.: 1963, стр.214.
[20] Буддизм. Словарь. – М.: “Республика”, 1992, 233–бет.

yaqin bo‘lgan, ammo undan keskin farq qiladigan yangi janrlar paydo bo‘ladi; *kanon* grekcha so‘z bo‘lib, “qoida” ma’nosini bildiradi.

SHuni ta’kidlash kerakki, ilk grek ijodkorlari keyingi davr adabiyoti uchun janriy kanon yaratgan edilar. Jumladan, doston kanoni Gomer tomonidan, didaktika kanoni Gesiod tomonidan, masal kanoni Ezop tomonidan aniqlashtirib berilgan. Janr kanoni bu ijodkorlarda abstrakt konstruksiya sifatida emas, balki his qilinadigan obraz sifatida zarur edi.

Janr kanonlari dastlab aniq bitta matn ijodkori tomoiidan boshlangan bo‘lsa, janr qonuni har qanday matn namunasini o‘zining imkoniyatlaridan bir sifatida o‘z ichiga oladi, ammo janr bu imkoniyatlar bilan hal bo‘lib qolmaydi, u imkoniyatlar yig‘indisi bilan, jumladan, hali amalga oshirilmagan imkoniyatlar bilan hosil qilinadi.

## 11-mavzu
## Ilk arab adabiyoti janrlari

Ilmi adab – SHarq adabiyotshunosligining asosidir. Ilm adab, ya’ni odob ilmi dastlab arab adabiyotiga nisbatan qo‘llangan. Ilmi adab islom paydo bo‘lgandan so‘ng shakllandi. Ilmi adab va adab adabiyoti bir asosga – so‘zning badiiy matndagi vazifasiga borib taqalar ekan, ular biri ikkinchisini taqozo etadi, adab ilmi adab adabiyotiga tayanadi.

Bu fan ma’lum tizimga solingan fanlarni va axloqiy mezonlarni o‘zida mujassam etib, saroy kotibi boshqalardan ajralib turishi uchun nihoyatda madaniyatli muomala qilish lozim edi. Qolaversa, xalifa yoki sultonning kotibi yozgan maktub yoki biron hujjatda adab ilmi aks etishi kerak edi. Zotan, adab ilmining maqsadi hukmdor huzurida olib boradigan xizmatida kotib boshqalardan farqli ravishda yuqori o‘rinda turish uchun alohida fazilatlarga va qobiliyatga ega bo‘lishi lozim edi.

Ilmi adab aslida ***adab madaniyati*** ta’sirida paydo bo‘lgan. Adab madaniyati ham yuqori tabaqa vakillari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va muloqot shakllaridan kelib chiqdi. Adab madaniyati dunyoviy qoidalar majmuini ishlab chiqishni anglatadi. Bu dunyoviy qoidalarga davlat xizmatidagi, hukmdorga yaqin odamlar, davozim pillapoyalariga intilganlar – hakamlar, muallimlar, turli lavozimdagi amaldorlar va b.lar rioya qilishlari shart edi. “Adab” adabiyotining shakli va mazmuni ayni ana shu toifadagilarning hayoti va faoliyati asosida shaklandi: axloqiy mavzudagi asarlar, nafis she’rlar, nasriy parchalar, engil, erkin suhbat olib borishga yordam beradigan hazil-mutoyibalar, latifalar shular jumlasidandir.

Arabshunoslar adab adabiyotiga mansub deb hisoblagan namunalar diqqatga sazvordir. Alab adabiyotining namunalarini arab adabiyotidan boshqa SHarq adabiyotining barchasida – hind, yahudiy, fors adabiyotlarida uchratamiz. Masalan, hind adabiyotining mumtoz namunalari hisoblangan “Kalila va Dimna”, “Panchatatra”ni, yahudiy adabiyotida “Barlom va YUsuf”, “Donishmand Akir” qissalarini, fors adabiyotida “Siyosatnoma”ni va boshqa qator asarlarni kiritish mumkin. Umuman olganda, adab adabiyotini didaktik adabiyotga tenglashtirish mumkin (masalan, “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul-haqoyiq” kabilar). Ko‘pchilik sharq xalqlari adabiyotida adab umuman adabiyotga nisbatan qo‘llangan. YUqorida biz

keltirgan hind, arab, yahudiy va turkiy adabiyotdan keltirilgan namunalar buning dalilidir. Bu asarlardan har biri to‘g‘risida uzoq so‘z yuritish mumkin. Adab adabiyotning ko‘pchiligi Hindistondan, Old Osiyodan kelib chiqqan va hindu, buddaviylik, arab va fors adabiyotiga ham moslashtirilgan. Bu adabiyot yunon, lotin, qadimgi yahudiy, qadimgi rus va qator evropa tillariga tarjima qilingan. Ana shunday asarlardan biri «Barlom va YUsuf» asaridir.

Asar o‘ziga xos qoliplovchi tuzilishga ega. Darvesh Barlom shahzoda YUsufga bio qator maslahatlar, jumladan, davlatni qanday boshqarish, davlat boshqaruvida ma’rifatning roli to‘g‘risida maslahatlar beradi; shuningdek, asar tarkibiga ko‘p masallar, hayvonot hayotiga oid ertaklar, latifalar kiritilgan. Bu asarning sharq versiyalarida darvesh bosh qahramon bo‘lib, uning ismi - Budosaf. Bu ism buddaviylikdagi bo‘disatvdir. U jonzotlar orasida eng ma’rifatlisi, jonzotlarning komil bo‘lishi uchun ustozdir. Bu buddaviylik qissasi dastlab sanskrit tilidan forschaga tarjima qilingan va moniylar orasida tarqalgan. Fors davlati arablar tomonidan bosib olingandan keyin, arab tiliga («Bluxor va Budosaf» nomi bilan), so‘ngra suryoniy va turkiy tilga («SHahzoda va darvesh» nomida bilan) tarjimasi paydo bo‘ldi. Arabcha tarjimasi esa yahudiy va gruzincha versiyalarining yaratilishiga asos bo‘ldi. Tez orada grek, efiopiya va lotin tillarida xristiancha versiyalari yuzaga keldi. Bu versiyalarda voqealar xiristancha mazmunda bo‘lib, darvesh Barlom xristian avliyosi sifatida paydo bo‘ladi. SHundan so‘ng xristian mazmunidagi arabcha versiyasi paydo bo‘ldi. Grek tilidan slavyanchaga, lotinchadan g‘arbiy Evropa tillariga tarjima qilindi. (inglizcha «Barlaam and Josaphat»).[40]

Arab xalifaligi va islom ma’rifatining yoyilishi natijasida adab adabiyoti rivoj topdi. Adab adabiyotining didaktik ruhi yanada xalqona tus oldi, musulmon madaniyatining gullab-yashnashi uchun zamin yaratildi.

Musulmon madaniyati gullab-yashnagan davr – “Musulmon Renessansi” (Adam Mets) deb nom olgan 1X-X1 asrlarda va keyingi ma’rifatparvar hukmdorlar davrida, ayniksa, xalifa Ma’mun davrida olimlar, donishmandlar, shoirlar, musiqachilar majlisi bo‘lib o‘tar, bunday kechalarda albatta hukmdor va a’yonlar ham ishtirok etardilar. Hukmdorlarning bilimga hurmatli munosabati dunyoviy madaniyatning o‘zagini ishlab chiqishga ta’sir etdi. Bu madaniyat birinchi navbatda, aslzodalar doirasida yoyildi, mazkur madaniyatning yuzaga kelishi va zodagonlar doirasida yoyilishiga esa adab adabiyoti asos bo‘ldi. Adab adabiyotining rivoj topishi, SHarq va hatto Evropa mamlakatlariga yoyilishi adabiyotga, badiiy so‘zga bo‘lgan mas’uliyatni oshirdi.

Ayni paytda alohida mutaxassislik adabiyoti, intelektual mehnat bilan shug‘ullanadigan shaxslar uchun o‘quv qo‘llanmalari ham paydo bo‘ldi. Adab orqali beriladigan tarbiya asosida ma’naviy an’analarga, birinchi navbatda, diniy an’analarga rioya qilish yotardi. Ammo adabning maqsadi dunyoviy ta’lim berish edi.

Adab diniy emas, balki dunyoviy adabiyot bo‘lib, gohida behayoroq adabiyot, ayni behayo qismi kurtuaz she’riyati va nasrini ham qamrab olardi. Adab adabiyoti, ayniqsa, darsliklar keng kitobxonlar ommasiga matematikadan, grammatika, tarixdan boshlang‘ich bilimlar berishga mo‘ljallangan edi. Ayniqsa, Uyg‘onishning eng

---

[40] Интернет матеиралларидан. «Адаб» сўзига қараш керак.

gullagan davrida – xalifa Ma’mun  davrida adab adabiyoti orqali bilim berish ancha rivoj topdi. Qolaversa, bunga asosiy sabablardan biri Ma’mun akademiyasining tashkil topishi bo‘ldi. As-Sijistoniy (888 yil vafot etgan) aql-idrokka munosabatga, jumladan, ko‘p adiblar qadrlaydigan yunon ilmiga ishora qilib, xalifa Ma’munning tushi haqida hikoya qiladi. Bu tushda Ma’mun Arastu bilan uchrashibdi. Arastu Ma’munning savollariga javob berib, aql-idrokka havola qilibdi. Arastu o‘z obro‘si orqali xalifa Ma’munni qo‘llab-quvvatlabdi. CHunki xalifa Ma’mun ilohiyotchilarning raqibi mutaliziylarga moyilligi bor edi.

Adabning yorqin vakillari al-Johiz, Ibn Qutayba, Abu Xayyon at-Tavhidiy kabilar edi. Agar al-Johizning nomi bilan yangilikka intiluvchi, izlanuvchi timsoli ko‘z oldimizga kelsa, undan yarim asr keyin yashagan Ibn Qutayba adabga oid asarlarni kanonlashtirishga e’tibor qaratdi.

Badiiy so‘zning o‘ziga xos xususiyatlari va ma’nosi ilk o‘rta asrlarda SHarq olimlarining e’tiborini tortdi. Jumladan, Forobiyning bu haqdagi qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. U “Fanlarning tasnifi haqida risola” asarida poetikani “til haqidagi fanlar”ning tarkibida kiritib, uch qismga bo‘ladi: 1. Metrika. 2. Qofiya. 3. Stilistika.[41] SHuningdek, Forobiy she’r san’atlari, she’r shakllari va yunon she’r navlarini tahlil qilar ekan, so‘zning inson ruhiga ta’siri she’rning hosil bo‘lishi uchun muhim qonuniyat ekanini aytadi: “Mabodo to‘g‘ri so‘z o‘zgartilirsayu odatdagiday aytilmaydigan bo‘lsa va buning ustiga unga uncha-muncha narsalar qo‘shilgan bo‘lsa, u holda bu narsa inson ruhiga xush keladi. Balki bunday so‘zlarni obrazli qilib va rost aytish ham mumkin. Ehtimol, shu bilan obrazli gaplar orqali e’tibor rost va tuyg‘ular tomonga qaratilgan bo‘ladi. Natijada obrazli gap ham, rost ham ma’qul bo‘ladi. Bunday holda obrazli gaplar taajjubga sazovor bo‘ladi va undan kishi ruhi lazzatlanib, engil tortadi. Narsa yoki hodisa aytilganda muvofiq kelguday bo‘lsa, uni rost deb qabul qilinadi. Obrazli gap esa, so‘z qanday aytilgan bo‘lsa, o‘shaanday harakat qilishga qaratilgan bo‘ladi. Rost esa, gap nima xususida borayotgan bo‘lsa, o‘shanga qaratilgan bo‘ladi, ya’ni u gapning asosidagi holatning ruhi haqida fikr yuritadi”.[42]

Forobiyning she’r, uning hosil bo‘lish qonuniyatlari va insoniyat tomonidan qay darajada, qay holatda qabul qilinishi ilmi adabning o‘ziga xos ko‘rinishidir.

Arab she’riyati nazariyasini, arab adabiyotini o‘rganish “lingvistik jihatlar” (I.YU.Krachkovskiy) tufayli paydo bo‘ldi. Darvoqe, Forobiyning she’r paydo bo‘lishi haqidagi qarashlari ham arab olimlarining qarashlariga hamohangdir. SHe’rning, ya’ni adabiyotning shakllanishi lingvistik omillar natijasi ekani keyingi arab va fors olimlari ishlarida ham ko‘rinadi. Xullas, ilmi adabning asosida arab tili morfologiyasi, sintaksisi, leksikologiyasi haqidani fanlar 1X asrda badiiy san’atlar haqidagi fan kelib chiqdi (Al-Johiz va ibn al-Mu’tazning asarlari). X11 asr oxirida bu nazariya ***ulum ash-she’r*** (she’r haqidagi fanlar) yoki ***ulum al-adab*** maxsus fan sifatida shakllandi. Ilk bor Forobiy arab va yunon she’r tuzilishi, she’riyatdagi mahorat va qonuniyat haqida so‘z yuritganda, aslida ilmi adabga asos solgan edi. Bu fan tarkibiga ilmi ma’oni, ilmi bayon, ilmi balog‘a, ilmi bade’, ilmi aruz va ilmi qofiya fanlari yaxlit holda ilmi adabni tashkil qildi. Umuman. X1-X11 asrlarda adabiy an’analarni izohlashga arab she’r

[41] Ал-Фараби. Философские трактаты. Алма ата, 1972, с. 116-117.
[42] Форобий. Шеър санъатлари. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980, 90-91-бетлар.

nazariyasini moslashtirdilar. YUqorida aytilganiday, arab she’r nazariyasi grammatikadan o‘sib chiqdi. Bu haqda I.YU.Krachkovskiy, N.YU.CHalisovalarning kuzatishlari alohida ahamiyatda ega.

12-mavzu

## Mumtoz adabiyotshunoslikda tarixiy poetikaning joriylanishi

Xullas, adabiyot fan sifatida bir qator muhim fanlarning mujassamlashuvidan tashkil topgan bo‘lib, o‘z davrida sog‘lom muhit yaratish uchun xizmat qila boshlagan edi. Bunday vaziyat islom adabiyoti tarix, fiqh, falsafa va mistika kabi fanlarning eng muhim jihatlarini o‘zida jamlab, bu adabiyotning ko‘p qirrali bo‘lishiga yordam berdi, o‘sha fanlarning ham vazifasini o‘z zimmasiga oldi.

Islom adabiyoti, ya’ni adab ilmi adab (adabiyotshunoslik) sifatida musulmon mamlakatlari adabiyotida keng tarqaldi. Islomiy madaniyatni keng yoyish, targ‘ib qilish, axloq mezonlarini ishlab chiqish va ommaga etkazish kabi ishlarni adabiyot bajara olishi mumkinligini ilm ahli to‘g‘ri anglab etdi. Islom etib borgan o‘lkalarda islomiy aqidalar bilan bir qatorda, ilmi adab ham shakllandi, madrasalarda o‘qitiladigan bo‘ldi. Ayniqsa, fors adabiyotida bu fan mustahkam o‘rnashdi.

Ilmi adab dastlab, chamasi, amaliy vazifalarni bajarish uchun ishlab chiqilgan. Dastlab xalifa va sultonlar saroyida shakllangan ilmi adab insoniy munosabatlarni madaniy tarzda yo‘lga qo‘yish uchun joriy qilingan bo‘lsa, bora- bora takomillashib, o‘ziga xos qonuniyatlar, mezonlar shakllandi. Adab alohida ilm sifatida SHarq poetikasining asosiga aylandi. Adab adabiyoti ilk shakllanish davridanoq o‘z asosini badiiy so‘zga qurgan ekan, albatta, adabning fan sifatida paydo bo‘lishida ham badiiy so‘zning matndagi vazifasi, estetik tabiati asosiy tayanch nuqtani tashkil qilgan, deb qarash mumkin.

Atoulloh badiiy so‘z nazariyasini tahlil qilar ekan, badiiy matndagi vazifasiga ko‘ra, so‘zni quyidagicha tasnif qiladi:

***Ilmi balog‘a*** – «notiqlik, ritorika”.

***Ilmi maoni*** – “obrazlar haqidagi fan”.

***Ilmi bayon*** – “sharh, stilistika”.

***Ilmi tavobiyi balog‘a*** – “ritorikaga bo‘ysunadigan fan”. Mana shu to‘rt fan SHarq adabiyotshunosligida ***ilmi bade’***ni – poetikani tashkil qiladi.[43]

13-mavzu

## Tarixiy manbalar va poetika munosabatlari

Eng arxaik va ilk obraz ko‘rinishi ikki a’zoli parallelizmdir. Ikki a’zoli parallelizmning ko‘rinishi quyidagicha: “Tabiat tasviri va u bilan yonma-yon inson

---

Мусулмонкулов Р. Персидско-таджикская калссическая поэтика X-XV веков. Москва, Наука, ГРВЛ,1989, 16-бет.

hayotida aynan shunga o‘xshash manzara ikki a’zoli parallelizmni hosil qiladi. Ob’ektiv mazmunni farqlashda ular bir-birini takrorlaydi, ular orasida, ya’ni tabiat manzarasi bilan inson hayotidagi aynan shunga mos manzara ular o‘rtasida umumiylik borligini ko‘rsatadi, ular orasida ohangdoshlik bor...parallelizm tenglashtirish g‘oyasiga moyil edi.” Tenglashtirish shuni anglatadiki, tabiat manzarasi bilan tabiiy hodisalar, inson ruhiy holati solishtiriladi va teng qo‘yiladi. Navoiyning

Orazin yopqoch, ko‘zimdin sochilur har lahza yosh
Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh

mashhur bayti psixologik parallelizmning namunasidir.

Ikki a’zoli parallelizmdan tashqari, epitet ham she’r sinkretizmining bir ko‘rinishidir. Umuman, she’r sinkretizmi barcha badiiy tasvir vositalarida o‘z aksini topadi.

Adabiy turlarning tahliliga to‘xtalar ekanmiz, biz mualliflik muammosiga duch kelamiz. Buning mohiyati shundaki, sinkretizm davrida adabiy turlar endigina shakllana boshlagan edi. Ularning paydo bo‘lishi (xuddi bayon va ko‘chimlarning kelib chiqishi kabi) san’at taraqqiyoti bu bosqichi tugayotgani va yaqinligini anglatadi. Adabiy turlar mohiyatan nimani ko‘rsatadi? Oddiy ta’rif shunday: adabiy tur – badiiy asarning bir turi. Tarixan uchta tur shakllangan bo‘lib, har uchala tur – *epik*, *dramatik*, *lirik* tur bir butunlikni hosil qiladi. SHunday qilib, adabiy turlarning genezisi va shakllanishi – bu badiiy asar va uning ko‘rinishlari kelib chiqishi hamda taraqqiyoti demakdir.

Ammo bu ta’rif ham etarli emas. Gap shundaki, badiiy asar ko‘p qirrali tushuncha. Zotan, adabiyotshunoslik matn va estetik ob’ekt o‘rtasiga chegara qo‘yadi. Matn o‘z-o‘zidan tushunarli. Darvoqe, u *tashqi asar* (N.D.Tamarchenko) deb ham aytiladi. Badiiy asar estetik ob’ekt (yoki “estetik ob’ektning mazmuni”) sifatida “*badiiy olam*”, “*ijodkorni ham qamrab oladigan ijod*”, “*estetik komponent*” yoki “*obraz*” hisoblanadi. SHuningdek, badiiy asar o‘z arxitektonikasiga (badiiy asar qismlarining o‘zaro muvofiq yaxlit holda uzviy qurilishi) – tugallangan shakliga ega.

Adabiy turlarga berilgan ta’riflardan ularning paydo bo‘lishi sinkretizm chegaralarini anglatishi tushunarli bo‘ladi: chegaralarning borligi shundan guvohlik beradiki, badiiy va nobadiiy reallik chegaralari paydo bo‘ldi. Badiiy olam o‘z ichida differensiatsiyalashdi. Ammo badiiy asar hali mustaqil hodisa sifatida mavjud bo‘lmagan paytda, tarixiy poetika bo‘lg‘usi san’at turlarining (musiqa, qo‘shiq, raqs, teatr, adabiyot) “ibtidosi” va adabiy turlar sinkretik ko‘rinish holatida bo‘lgan, mif va udumlarning tarkibiy qismlari sifatida tashkil topgan edi.

A.N.Veselovskiy tarixiy poetikaga asos solgan olim sifatida adabiy turlar hosil bo‘lishining ilgarigi notarixiy nazariyasini bekor qildi. Veselovskiy adabiy turlarning hosil bo‘lishi haqida Gegel sxemasining asossizligini ko‘rsatdi. Gegel sxemasi bo‘yicha, adabiy turlarning taraqqiyoti ob’ekt (epos)dan sub’ekt (lirika)ga va ularning birikuvi (drama)ga tomon borgan. SHuningdek, A.Veselovskiy, lirika boshqa adabiy turlarga qaraganda ustunlik qiladi, degan romantik qarashlarning asossizligini ham ko‘rsatdi. SHunday qilib, turlarning hosil bo‘lish jarayoni ob’ektivlikdan sub’ektivlikka (yoki aksincha) tomon borgan emas, balki azaldan adabiy turlar bir-biridan ajralib chiqmagan hamda mustaqil holda mavjud bo‘lmagan edi.

Bizga ma’lumki, mif bilan bir qatorda udumlar – arxaik madaniyatning sinkretik shaklidir. Bu o‘rinda udumlarga to‘xtalishimiz bejiz emas. SHubhasiz, udumlar ham adabiy turlar shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. SHuning uchun ayrim olimlar adabiy turlarning ajralib chiqishini A.N.Veselovskiy qarashlaridan boshqacha tarzda talqin qiladilar. E.M.Meletinskiyning aadabiy turlarning, xususan, eposning kelib chiqishi haqida aytgan fikri diqqatga sazovor. Uning fikricha, eposning kelib chiqishi lirika va dramanikidan boshqacha, eposning kelib chiqishida udumlarning aslo roli yo‘q, balki ular mifdan kelib chiqqan. Meletinskiy qadimgi san’atda so‘zning *sakral* xususiyatlariga alohida diqqat qaratish lozimligini ta’kidlaydi. SHu o‘rinda sakral termini haqida. Bu so‘z lotincha bo‘lib, “diniy kult va udumlarga mansub bo‘lgan muqaddaslik” degan ma’noni bildiradi, umuman, xalq og‘zaki ijodida sakral ob’ektlar, jismlar muhim rol o‘ynaydi, ularning udumlarga bog‘liqligi aynan sakrallik xususiyatidan kelib chiqadi. Haqiqatan, bugungi kunda xatti-harakatning va mifning verbal qismi sakral maqomiga hech qanday shubha yo‘q. Albatta, A.N.Veselovskiy va E.M.Meletinskiyning epos alohida tur sifatida ajralib chiqishiga oid qarashlari qanchalik o‘zini oqlashi haqida kelgusidagi tadqiqotlar natijasida bir qarorga kelish mumkin. Lekin shuni aytish kerakki. mif asosan verbal xususiyatga ega ekan, udumlar, kult yoki sakral ob’ektlar mifning shakllanishiga turtki bergan degan mulohazani o‘rtaga tashlamoqchimiz. Masalan, totemistik, kosmogonik yoki boshqa mif turlarining paydo bo‘lishi shunday fikrga olib keladi.

X1X-XX asr Evropa adabiyotshunosligi asosan antik adabiyotni asos qilib oldi va buning natijasida grek va rim adabiyoti tarixi tarixiy poetika sohasida ham asosiy mezon bo‘lib qoldi. Hatto A.N. Veselovskiy ham antik yunon adabiyoti taraqqiyotini mezon sifatida qaragan edi: “Grek adabiyoti taraqqiyoti tarixi bizga taxminiy adabiy turlarning izchil ravishda ajralib chiqish manzarasini namoyon qiladi. Biz epos, lirika, drama va romanda o‘ziga xos ifodani izlaydigan va topadigan ma’lum ijtimoiy va badiiy talablarning sahnadagi tarixi, aksi hisoblangan har bir turni bilib, umumlashtirishga beixtiyor moyil bo‘lamiz”[44]. Ammo sanskrit, arab, fors va b. sharq adabiy manbalari Evropa tarixiy poetikasi uchun asos sifatida etarli darajada qabul qilinmadi. SHu bois A.Veselovskiyning yuqoridagi qarashlarini ham tanqidiy o‘rganish taqozo etiladi. CHunki Bibliyaning shakllanishi, shumerlarning “Gilgamish” dostoni, hindlarning “Moxobxorot” va “Ramyana” dostonlari, “Avesto”ning miloddan oldingi II ming yillikning boshlarida yaratilgan qatlami yunon adabiyotidan qadimiyligini hisobga olsak, adabiy turlarning tarixiy jarayonini o‘rganishda SHarq adabiyotiga ham e’tibor berish zarurligi ayon bo‘ladi. Birgina “Oltun yorug‘”ning badiiy tuzilishi va adabiy janrlarning shakllangani milodiy birinchi ming yillik oxiridagi sanskrit adabiyotida sinkretizmning qonuniyatlarini belgilaydigan manba bo‘lib yuzaga chiqadi.

A.N. Veselovskiyning qarashicha, eposlarning shakllanishida kantilenlar asosiy omil bo‘lgan. Ammo kantilenlar eposning adabiy tur sifatida ajralib chiqqan ilk davriga emas, balki liro-epik qo‘shiqlar paydo bo‘lgan davrlarga aloqador. Kantilenlar tarixiy voqealar asosida paydo bo‘ladi. Eposning kelib chiqishini tarixiy voqealarga bog‘lar ekanmiz, yilnomalardagi tarixni nazarda tutish kerak emas. Masalan,

---

[44] Веселовский А.Н. Историческвя поэтика…, 65-бет.

Rossiyalik nemislardan Vollnerning kuzatishlari epos va tarix munosabatlarini aniqroq ochib beradi. Vollnerning fikricha, eposlarning taraqqiyoti yilnomalarda berilgan voqealarning mazmunini tamomila

14-mavzu

## Tarixiy poetikaning boshqa adabiyotshunoslik fanlari bilan o‘zaro munosabat

Rashididdinning “Jome’-ut-tavorix”ida va Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”da CHig‘atoyning aqlli, qobiliyatli, o‘ziga hurmatni talab qiladigan hukmdor bo‘lgani ta’kidlanadi.

Temuriylar saltanatining vujudga kelishida Movarounnahrdagi tarixiy-siyosiy sharoit muhim rol o‘ynadi.X1U asrning birinchi yarmida musulmon madaniyatining Movarounnahrda mustahkam qaror topishida Kepak xon (1318-1326)ning xizmatlari katta bo‘ldi. Hozirgi Qashqadaryo CHig‘atoy xonlarining qarorgohi bo‘lib qoldi. Kepakxon o‘zi uchun bir saroy qurdirdi. Bu saroy “qarshi” (o‘zbekchada “saroy” demakdir) deb nomlandi. O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan mo‘g‘ul hukmdorlaridan Kepak xon birinchi bo‘lib butun davlat miqyosida o‘zi nomi bilan qo‘yilgan tangalarni joriy qildi. Bu pulning nomi Amir Temur davrida ham “kepak” nomi bilan yuritilaverdi. Kepakxon musulmon madaniyatining rivoj topishida katta xizmat qilgan bo‘lsa ham, o‘zi majusiyligicha qoldi. Uning ukasi Tarmashirin(1326-1334) musulmonlikni qabul qildi. Tarmashirin akasining yo‘lini davom ettirib, ko‘chmanchilik an’analariga jiddiy zarba bera boshladi. Oqibatda Tarmashirin o‘ldirildi. SHundan so‘ng CHig‘atoy xonlarining saroyi bir ncha yilga Ili daryosi bo‘ylariga ko‘chirildi.

YAngicha ma’muriy bo‘linish – *tumanlar* ham ayni shu davrda paydo bo‘ldi. Samarqand, Buxoro, Eron tumanlarga bo‘lingan edi. Bunday ma’muriy bo‘linish, shubhasiz, davlat qurilishi va takomillashuvida jiddiy rol o‘ynadi. Jumladan, birgina Samarqand viloyati CHig‘atoylar, shuningdek, Amir Temur davrida va XU111 asrgacha etti tumanga bo‘lingan edi.[45] X1U asrning 40–yillarida Moavarounnahrda, aynan, hozirgi Qashqadaryo hududida yana chig‘atoylardan Qozonxon o‘z hokimiyatini o‘rnatdi, Qozonxon Qarshining g‘arb tomonida Zanjirsaroyni barpo qildi. Qozonxon mamlakatda mustahkam hokimiyat o‘rnatishga qaror qildi. Buning natijasida Qozonxon bilan orlot, jaloyir, qovchin va barlos urug‘boshilari o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ldi. Barlos urug‘idan bo‘lgan Qozog‘on qo‘zg‘olon ko‘tarib, mo‘g‘ul shahzodalaridan birini xon deb e’lon qildi. O‘rtada bir necha yil urush bo‘ldi va nihoyat, 1346–1347 yillarda Qozonxon mag‘lub bo‘lib, o‘ldirildi. Hokimiyat Qozog‘onxon qo‘liga o‘tdi. Ammo Qozog‘onxonga faqat Movarounnahr hukmronligi tegdi. CHig‘atoy davlatining qolgan qismiga dug‘lat urug‘boshisi hukmronlik qiladigan bo‘ldi. Fors manbalarida bu boshliqlar *amir* deb atalgan bo‘lsa, turkiy qavmlar *bek* yoki mo‘g‘ulcha *no‘yon* deb ataladigan bo‘ldilar. Movarounnahr amirlari ham, dug‘lat

[45] Бартольд В.В.Сочинения. ТомII. Стр.33.

amirlari ham bir qonuniyatga amal qildilar: ikkalasi ham CHingixxon avlodlaridan xon tayinlashni o‘zlarining hokimiyati uchun qonuniy deb bildilar.

Ma’lumotlarga ko‘ra, ikkala davlatning harbiy tuzilishi deyarli bir xil bo‘lgan edi. CHig‘atoy termini aholining ko‘chmanchi va ko‘chmanchilik an’analarini bildirish uchun Movarounnahrda saqlanib qoldi. Ammo u erda CHig‘atoy naslidan xonlar qolmagan bo‘lsam ham, bu nom temuriylar saltanatining oxirgi nasllarida, xususan, Bobur avlodlarida saqlanib qoldi. CHig‘atoyning ko‘chmanchi avlodi o‘zlarini mo‘g‘ullar deb ataydigan bo‘ldilar. Mo‘g‘uliston degan geografik nom ana shundan qolgan. Umuman, etnik nom aslidan uzoqlashib, tamomila boshqa nom va laqablarni oldi.[46]

Amir Qozog‘on o‘n ikki yil hukmronlik qildi. 1358 yili Qozog‘onxon o‘zining kuyovi tomonidan o‘ldirildi. Qozog‘on hukmronligi davri shunisi bilan diqqatga sazovor bo‘ldiki, ichki nizolar, chig‘atoy ulusi bilan mungullar o‘rtasida yuz bermadi. Qozog‘onning o‘limidan keyinm hokimiyat uning o‘g‘li Abdullaning qo‘liga o‘tdi. Abdulla otasi hayotligida Samarqandda yashardi. (Qozog‘on esa ko‘chmanchilar yo‘lboshchisi bo‘lib hayot kechirar, ishni Amudaryo bo‘yidagi Soli Saroy qishlog‘ida, yozni Munka shahrida – hozirgi Baljuvon yonida o‘tkazardi.) Abdulla poytaxtni o‘zi yashab turgan joyga ko‘chirmoqchi bo‘lgan edi, lekin boshqa amirlar bunga qarshi chiqdilar, bu nizolar oqibatida urush kelib chiqdi, urushda Abdulla halok bo‘ldi. Keyingi yillar Movarounnahrda doimiy isyonlar, fitnalar, mo‘g‘ul xonlar bilan muttasil kurashlar davri bo‘ldi. Xullas, bu davrda yuz bergan asosiy voqealar quyidagilardan iborat:

Mo‘g‘ul xoni Tug‘luq Temur 1360-1361 yillarda Movarounnahrga yurish qildi, shu paytda xon tomonidan SHahrisabz va Qarshi begi qilib tayinlangan Temur ilk bor jang qildi;

Temur Qozog‘onning nabirasi Husayn bilan ittifoq tuzib, mo‘g‘ullarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Lekin Husayn bilan Temur CHirchiqda (1365 yili) mo‘g‘ullarga qarshi kurashda mag‘lubiyatga uchradilar;

XU asrda mashhur shoir sifatida e’tirof etilgan Qobulshoh xon deb e’lon qilindi, lekin ko‘p o‘tmay u taxtdan tushirildi va Odil Sulton xon bo‘lib taxtga o‘tirdi;

Husayn Balxda 1368 yili o‘ziga atab qal’a qurdirmoqchi bo‘ladi, Temur esa uni bu niyatidan qaytarishga urinadi va amakisi Abdullaning taqdirini misol qilib keltiradi;

Husayn va Temur o‘rtasida kurash ketadi. Temur Husaynning turk amirlari, ayniqsa, musulmon ruhoniylari orasidagi dushmanlari bilan ittifoq tuzadi;

Husayn asirga olib o‘ldiriladi;

Balxdagi qal’a yo‘q qilinadi, poytaxt Samarqandga ko‘chiriladi, u erda harbiy inshootlar, shahar devori qurdiriladi (1370 yil).

SHunday qilib, Temur o‘n yil davomida butun Movarounnahrni egalladi.

Albatta, Amir Temur shaxsiyati madaniy hayot rivoji uchun muhim omillardan biri bo‘lgan edi. Amir Temur shaxsiyati to‘g‘risida ishonchli ma’lumot Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida bor. U Amir Temurga quyidagicha

---

[46]Бартольд В.В. Юқоридаги асар, 36–бет.

ta’rif beradi: “Temur Ko‘ragon – anorallohi burhonahi, agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo‘b mahal va mavqeda o‘qibdurlarkim, aningtek bir bayt o‘qug‘oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor”.*

Navoiyning “Majolis un-nafois”idagi Amir Temurga oid e’tirofini – sohibqironning g‘oyat nozik ta’b bo‘lgani, she’rni yaxshi tushungani haqida “Temur tuzuklari”da keltirilgan ma’lumotlar ham tasdiqlaydi”. Buning boisi yana uning shaxsiyatiga borib taqaladi. “Temur tuzuklari”da aytilishicha, u ilm ahliga, din bilimdonlariga, qissaxonlarga alohida e’tibor berib, o‘ziga yaqinlashtirgan va bundan ko‘p manfaatdor bo‘lgan.

Amir Temurdan so‘ng u tashkil qilgan davlat ikkiga bo‘linib, Xurosonda Amir Temurning o‘g‘li SHohruh (1409- 1447 yillar), Movarounnahrda nabirasi Ulug‘bek (1409-1449 yillar) hukmronlik qildilar. Yirik mamlakat ikkiga bo‘linib ketgan bo‘lsa ham, madaniy hayotda aslo uzilish bo‘lmadi. Aksincha, adabiy-madaniy aloqalar rivoj topib boraverdi. Amir Temurdagi ma’rifatparvarlik fazilati, temuriy shahzodalarga namuna bo‘lgani bois, ular adabiy-madaniy jarayon rivojlanishiga alohida e’tibor bergan. Navoiy “Majolis-un-nafois”da temuriylar avlodidan etishib chiqqan yigirma ikki ijodkorning ismi-sharifini zikr etadi. Bu shoirlar orasida Xalil Sulton, Ulug‘bek Sulton, Boysung‘ur Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo, SHoh G‘arib Mirzo va boshqalar bor. Ayniqsa, Boysung‘ur Mirzo adabiyotga homiylik qilibgina qolmay, o‘zi ham she’rlar yozdi. SHayx Ahmad Taroziyning “Funun -ul-balog‘a” (1436-1437 yillarda yozgan) asarida Boysung‘ur Mirzoning bir o‘zbekcha qit’asi ham berilgan. Mana o‘za qit’a:

Furqatingda sorig‘ o‘ldi olmangiz,
Ey musulmonlar, yaroqon o‘lmasun.
O‘lmakimdan fikrim oncha yo‘q turur,
Qo‘rqaram o‘lsam, yaroqon o‘lmasun.

SHubhasiz, temuriylar hukmronligi davrida turkiy tilli adabiyotga alohida e’tibor qaratildi. Akademik V.V.Bartold keltirgan dalillar bu jihatdan ancha diqqatga sazovor. Jumladan, uning ta’kidlashicha, temuriylar davri madaniy hayotida Qobulshoh (1366 yili xon deb e’lon qilingan va ko‘p o‘tmay taxtdan tushirilgan)ning ma’lum darajada roli bo‘lgan. Qobulshoh turkiy tilda she’rlar yozgan. XU asrda ham bu shoir ancha shuhrat qozongan. Amir Temurning safdoshlaridan amir Sayfiddin barlos fors va o‘zbek tillarida she’rlar yozgan.*

Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Movarounnahr bu jihatdan ko‘p muvaffaqiyatlarga erishgani ma’lum.* SHaxsan Ulug‘bekning fanga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. U bobosi Temur kabi olimlar bilan suhbat qurib, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bilan cheklanib qolmadi, balki SHarq tarixida kam uchraydigan hodisani – hokimiyat boshqaruvi bilan ilmni birga qo‘shib olib bordi. Zamondoshlari Ulug‘bekni bu fazilatlari tufayli Arastuning shogirdi Iskandan bilan tenglashtiradilar. Navoiy “Farhod va SHirin” dostonida aytadi:

SHahekim, ilm nurin topti zoti,
Aning to hashr qoldi yaxshi oti.

Sikandar topti chun ilmu hunarni,
Ne yanlig‘ oldi ko‘rgil bahru barni.

Aningtek saltanat ahli ko‘p erdi,
Qayu birga nu nav’ ish dast berdi?

Iki ming yil o‘tub yuz ming xiradmand,
Bo‘lub hikmatlari birla barumand.

Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek
Ki, olam ko‘rmadi sulton aningtek..

XU asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda adabiyot yuksalish bosqichiga ko‘tarildi. Bu haqda SHayx Ahmad Taroziyning yuqorida biz aytib o‘tgan “Funun-ul-balog‘a” asarida ko‘plab shoirlarning nomlari keltirilganki, mavjud ma’lumotlarga qo‘shimcha sifatida xizmat qiladi, ayni paytda ba’zi ma’lumotlarga aniqlik kiritadi. SHayx Ahmad she’rshunoslik, xususan, sharq mumtoz poetikasi munosabati bilan nomlari bizga noma’lum bo‘lib kelgan ko‘plab turkiy va forsiyzabon shoirlarning nomlarini keltiradi. Imon Ziyovuddin Forsiy, Jalol Samarqandiy, Umid Kamoliy, Mavlono Sayfiddin, Muhammad Ganjaviy kabi bir qator shoirlar temuriylar davri adabiyotida ma’lum mavqe egallaganini anglash mumkin. Ayni paytda shayx Ahmad Taroziyning o‘zi ham zamonasining iste’dodli shoiri bo‘lganini mazkur asarida keltirilgan g‘azalidan bilamiz.

Mustahkam poydor davlat, hukmdorlarning adabiyotga muhabbati va e’tibori Xuroson va Movarounnahrdagi adabiy jarayonga, ilm-fan ravnaqiga katta ta’sir o‘tkazgani haqiqat. Bu davrda o‘zbek va fors adabiyoti yonma-yon kamol topib bordi. O‘zbek adabiyoti, bir tomondan, o‘z an’analari negizida, ikkinchi tomondan, fors adabiyoti tajribalari ta’sirida tobora rivoj topdi. O‘zbek adabiyotida yangi janrlarning paydo bo‘lishi va mavjudlarining takomili ham buni tasdiqlaydi. O‘zbek nasri va she’riyatida o‘ziga xos xuroson uslubi paydo bo‘ldi. Bu adabiy uslubning muhim xususiyatlaridan biri shuki, badiiy va ilmiy asarlar ifodasida fors, arabiy so‘z hamda iboralardan, atamalardan, forsiy tilga xos jumla tuzish qoidalaridan keng foydalanilgan. Bu holat o‘lkadagi etnik sharoit ta’sirida yuzaga kelgan edi.”

Umuman, temuriylar davri yangicha tafakkur mahsuli bo‘lgan adabiyotni paydo qildi. Keyingi davrlarda – temuriylar saltanati parchalanib, uch xonlik barpo bo‘lgandan keyin ham, temuriylar davri adabiyoti an’analari davom etdi. Hindistonda boburiylar saltanatidan keyin yuzaga kelgan o‘zbek adabiyoti ham bevosita va bilvosita temuriylar davri adabiyotining mahsulidir.

**Tayanch so‘z va iboralar**

Janr
Maqom.
May
Ramz
SHlok
Taqshut
Fard
No‘m
Oltin O‘rda adabiyoti
Noma
Munozara
Poetik o‘zlashtirish
Sinkretizm
Maqom
Sudur

**Referat mavzulari**

1. O‘rta Osiyo, Eron va Ozarbayjonning qadimgi xalqlari miflaridagi mushtaraklik va farqli jihatlar
2. O‘rta Osiyoda X-X11 asarlarda arab tilidagi adabiyot
3. Qays Roziy va mumtoz adabiyot poetikasi masalalari (dars davomida “Aqliy hujum” metodidan foydalaniladi).
4. V.V.Bartold tomonidan temuriylar davri adabiyotining o‘rganilishi
5. Navoiy “Xamsa”si poetikasi masalalari
6. Navoiy devonlarining janriy tarkibi
7. “Lison ut-tayr”da ramziy timsollar tizimi (“Klaster” metodidan foydalaniladi)
8. XU1-X1X asrlar adabiyotida janrlar takomili

**Kurs ishi mavzulari:**

14. Metafora tarixiy poetika kontekstida.
15. SHarq adabiyotida adabiy janrlarning o‘zaro munosabatlari.
16. “Oltun yorug‘” mumtoz adabiy manba sifatida.
17. SHumer adabiy yodgorliklari poetikasi.
18. X1 asrda turkiy she’riy shakllar va janrlar taraqqiyoti.
19. SHarq adabiyotida epik janrlarning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti.
20. SHarq adabiyotida lirik janrlarning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti.

21. Ramziy obrazlarning paydo bo‘lishi va badiiy matndagi roli (xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot materiallari asosida).
22. Mif va uning turlari.
23. Tarixiy poetika va adabiyot tarixi.
24. Tarixiy poetika va qiyosiy she’rshunoslik.
25. Qadimgi va o‘rta asrlar mumtoz adabiyoti tarixiy poetika kontekstida.
26. Tarixiy poetika va folklor.

## Foydali maslahatlar

**Professor-o‘qituvchilar uchun:**

- Ushbu fan bo‘yicha talabalarga dars mashg‘ulotlarini o‘tishda, avvalo zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida rejalashtirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. O‘quv uslubiy majmuaning 3-bandidagi “Ta’lim texnologiyasi”da keltirilgan dars o‘tish metodlar asosida tashkil etilsa, talabalarga taqdim etilayotgan mavzusining maqsad va vazifalari tushunarli bo‘ladi;

- Fan doirasida maqsadlarni to‘laqonli yoritishga harakat qilingan ta’lim texnologiyasini yanada boyitishda mavzu doirasidagi mamlakatimiz va xorij amaliyotidagi ijtimoiy sohadagi tarkibiy o‘zgarishlardan keng ko‘lamda foydalanish ham tavsiya etiladi;

- Ushbu fanga tegishli mavzusini yoritishda turli interfaol metodlarning uyg‘unligini ta’minlash lozim;

- “Mumtoz tarixiy poetika” fani ma’anviyat, ma’rifat, madaniyat kabi ijtimoiy sohalar bilan bevosita bog‘liq. SHunday ekan, o‘quv-uslubiy majmuada keltirilgan tarqatma materiallarni hamisha yangilab borish va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda uni ko‘rgazmalilik ta’minotini ta’minlash zarur;

- Ushbu fan bo‘yicha talabalarni muntazam baholab borish va mustaqil fikrlashga undovchi metodlarni qo‘llash kerak. Bunda talabalarga turli mustaqil taqdimotlar tayyorlatish, mavzu o‘quv maqsadlari bo‘yicha hamda dolzarb ahamiyatga ega mavzularda mustaqil ishlar bajartirish muhim sanaladi.

**Talabalar fanni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun quyidagi maslahatlarga amal qilishi kerak:**

**Joriy nazorat uchun**

- Talabalar “Mumtoz tarixiy poetika” fanini to‘laqonli o‘rganishlari uchun avvalo fanning har bir mavzusini ustida qunt bilan ishlashi lozim.

- Fanni oʻrganishda talabalar avvalo quyidagi savollarga javob bera olishlari kerak: bu fanni oʻrganish nima uchun zarur? Uning qanday foydasi bor? Bu fan mutaxassislik bilan qanday bogʻliq? Uning mohiyati nimada? kabi qator savollarga javob topishlari kerak.
- Ushbu fan adabiyotshunoslik markazida turgani uchun fan mavzulari adabiyotshunoslikning boshqa tarkibiy qismlar bilan aloqadorligini tugal tasavvur etishi shart.
- Bevosita adabiy jarayoniga doir yangiliklarni, mamlakatimiz va xorij matbuotidagi va internet sayt ma'lumotlaridagi yangiliklarni bilib borish talabaga katta foyda keltiradi.

## Oraliq nazorat uchun

1. Oraliq nazoratlar oʻtilgan muayyan bir fasl, boʻlim yoki bob doirasi olgan bilimlarini mustahkamlashga qaratilishi kerak.
2. Talaba buni bajarishda koʻproq mustaqil tayyorlanishi hamda mukammal tushunmagan soʻz va iboralarni amaliy mashgʻulot darsida oʻqituvchi bilan muhokama qilishi kerak;
3. Talaba oʻzi olgan nazariy bilimini mukammal sinab borishi fan boʻyicha testlarni va mustaqil topshiriqlarni oʻz vaqtida bajarishi lozim.
4. Har bir mavzuga tayyorgarlik koʻrganda umumiy metodologik asos sifatida Respublika Prezidentining ma'naviyatga, badiiy adabiyotga doir fikrlaridan foydalanishi tavsiya qilinadi.

## Kurs ishi va referat yozish uchun

**a)** Eng avval mavzular bankidan talabalar oʻzi uchun muhim mavzuni tanlashi kerak.

**b)** Talabalar mavzuni mazmun-mohiyatidan kelib chiqib toʻla yorita bilishi shart va oʻrnatilgan talab darajasida hamda belgilangan muddatda topshirishi shart.

**v)** Har bir talaba mavzusidan kelib chiqib, uni seminar va amaliy mashgʻulotlarda auditoriyadagi talabalarga tushuntira bilishi lozim.

**g)** Mavzu yuzasidan auditoriyadagi talabalardan berilgan barcha savollarga, kurs ishi va referat mavzusini tayyorlagan talaba tomonidan toʻliq javob berilishi kerak. Buning uchun esa, talabadan mavzuga atroflicha tayyorgarlik koʻrishi lozim boʻladi.

**Reyting nazorati va baholash mezonlari**

**Reyting nazorati jadvali**

| № | Reyting nazorati shakli/Maksimal ballari | 1-JB | 2-JB | 3-JN | 4-JN | 1-ON | 2-ON | YAN | Ballar yig‘indisi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Maksimal ball | 10 | 10 | 10 | 10 | 15 | 15 | 30 | 100 |
| 2 | SHakli | Og‘zaki | Og‘zaki | Og‘zaki | Og‘zaki | YOzma | YOzma | YOzma | |
| 3 | Muddati (haftalarda) | 4 | 8 | 12 | 16 | 9 | 17 | 21 | |

**“Mumtoz tarixiy poetika” fani bo‘yicha joriy nazoratni baholash mezonlari**

Joriy nazorat bir semestrda 4 marta og‘zaki tarzda o‘tkazilish ko‘zda tutilgan. Har bir joriy nazorat uchun maksimal 10 ball qo‘yiladi. Jami 40 balni tashkil etiladi.

**35-40 ball olishning tartibi quyidagicha:**

- Talaba ko‘zda tutilgan 4 joriy nazoratning barchasiga qatnashsa.
- Talaba o‘z vaqtida mustaqil ta’limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan 8 adabiyotni topshirsa.
- Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan 8 savolga batafsil, to‘liq javob bersa.
- Talaba berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo‘lsa.

**29-34 ball olishning tartibi quyidagicha:**

- Talaba ko‘zda tutilgan 4 joriy nazoratning barchasiga qatnashsa.
- To‘rt joriy nazorat savollarining ayrimlariga etarlicha javob bersa.
- Talaba o‘z vaqtida mustaqil ta’limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan 8 adabiyotdan 6tasini topshirsa.
- Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan 8 savoldan 6 tasiga to‘liq javob bersa.
- Talaba berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda faol ishtirok etsa.

**22-28 ball olishning tartibi quyidagicha:**

- Talaba ko‘zda tutilgan to‘rt joriy nazoratning uchtasiga qatnashsa.
- Uch joriy nazorat savollarining ayrimlariga qisman javob bersa.
- Talaba o‘z vaqtida mustaqil ta’limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan 8 adabiyotdan 3tasini topshirsa.

- Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan 8 savoldan 3 tasiga to‘liq javob bersa.

- Talaba berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda etarlicha ishtirok etmasa.
- Ko‘zda tutilgan to‘rt joriy nazorat topshiriqlaridan o‘z vaqtida 3 tasini topshirmasa.

**0-21 ball olishning tartibi quyidagicha:**

- Talaba ko‘zda tutilgan 4 joriy nazoratning 3 tasiga qatnashsa.
- Uch joriy nazorat savollarining ko‘p qismiga javob bera olmasa.
- Talaba o‘z vaqtida mustaqil ta’limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan 8 adabiyotni faqatgina ikkitasiga qisman javob bersa.
- Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan 8 savolga qoniqarsiz javob bersa.
- Talaba berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda qoniqarsiz ishtirok etsa.
- Ko‘zda tutilgan uch joriy nazorat topshiriqlarini o‘z vaqtida topshirmasa.

## Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv

## qo‘llanmalar ro‘yxati

### Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar


1. Broytman S.N. Istoricheskaya poetika – Moskva, 2001; Teoriya literateraurы: v drugax tomax. T.
2. Istoricheskaya poetika . Pod red. N.D. Tamarchenko.- Moskva: ASADEMIA, 2004.-368 S.
3. Borev YU.B. Teoreticheskaya istoriya literaturы/ Teoriya leteraturы. T.4: Literaturnыy protsess.- Moskva, 2001.S. 130-468.
4. Stebleva I.V. Jizn i literatura doislamskix tyurkov. Moskva, “Vostochnaya literatura”, 2007.
5. Stebleva I.V. Ritm i smыsl v tyurkoyazыchnoy klassicheskoy poezii. Moskva, “Vostochnaya literatura”, 1993.
6. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – Moskva:Vыsshaya shkola, 1989. -y
7. Istoricheskaya poetika. Literaturnыe epoxi i tipы xudojestvennogo soznaniya. – Moskva: 1994.
8. SHarq mumtoz poetikasi manbalari H.Boltaboev talqinida. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. - b.
9. Semantika obraza v literaturax Vostoka. – Moskva, “Vostochnaya literatura”, 1998.
10. Teoriya janrov literatur Vostoka. – Moskva, “Vostochnaya literatura”, 1985.
11. Xolmo‘minov J., Hazratqulov J. Forsiy adabiyotning jahon adabiyotidagi o‘rni. Toshkent. “YANGI NAŞR”: 2012.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

12.Boltaboev H. Mumtoz so‘z qadri. – T.: Adolat, 2004.
13.Istoricheskaya poetika. Itogi i perspektivы izucheniya. – Moskva, 1986.
14.O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-2 jild. - Toshkent: Fan, 2005, 2007.
15.Mumtoz tarixiy poetika. O‘UM, O‘zMU 2011. O‘zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.
16.Oltin yorug‘. T.: MUMTOZ SO’Z .2013
17.www. ziyonet.uz
18.www.literature.uz

**Xorijiy manbalar**

19.Broytman S.N. Istoricheskaya poetika – Moskva, 2001; Teoriya literateraurы: v drugax tomax. T.2: Istoricheskaya poetika . Pod red. N.D. Tamarchenko.- Moskva: ASADEMIA, 2004.-368 S.
20.Borev YU.B. Teoreticheskaya istoriya literaturы/ Teoriya leteraturы. T.4: Literaturnыy protsess.- Moskva, 2001.S. 130-468.
21.Stebleva I.V. Jizn i literatura doislamskix tyurkov. Moskva, “Vostochnaya literatura”, 2007.
22.Stebleva I.V. Ritm i smыsl v tyurkoyazыchnoy klassicheskoy poezii. Moskva, “Vostochnaya literatura”, 1993.
23.Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – Moskva: Vыsshaya shkola, 1989. - s.
24.Istoricheskaya poetika. Literaturnыe epoxi i tipы xudojestvennogo soznaniya. – Moskva: 1994.
25.Semantika obraza v literaturax Vostoka. – Moskva, “Vostochnaya literatura”, 1998.
26. Teoriya janrov literatur Vostoka. – Moskva, “Vostochnaya literatura”, 1985.
27. Istoricheskaya poetika. Itogi i perspektivы izucheniya. – Moskva, 1986.